Tahlillar turkiy, jumladan, oʻzbek tili antroponimiyasi tarixiyligi va boyligidan hamda imkoniyatlari kengligidan, ota-bobolarimiz doimo farzandlariga faqat ezgu-niyatlar bilan oʻzlarining nasl-nasabi, mansabi, lavozimi motivlari negizida ism bergaliklaridan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1978. – 200 с.
2. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – 104 б.
3. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2000. – 1-ж. – 736 б.
4. Бегматов Э. А. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998. – 608 б.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – 5-ж. – 592 б.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – 2-ж. – 672 б.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – 4-ж. – 608 б.
8. https://ismlar.com/name

TIL TA’LIMIDA SHARQONA SODDA VA CHIROYLI SO‘ZLASH ODOBI MASALALARI

Qurbonova Xolbibi Qirboyevna
Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili ta’limi jarayonida nutq oʻstirish, oʻquvchi nutqiga qoʻyiladigan talablar, sharqning buyuk allomalarining nutq oʻstirish haqidagi fikrlari, nutq oʻzlashtirish metodikasini yaratishga qoʻshgan ulkan hissalari. Ona tili ta’limi jarayonida ogʻzaki va yozma nutqni oʻrganish, nutqni muomala-odobi bilan bogʻlab oʻrganish muhim pedagogik zaruratligi masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: nutq, nutqiy faoliyat, matn, ijodiylik, tafakkur, mustaqil fikrlash, ta’lim maqsadi, mantiq, logika, grammatika, muloqot.

Til jamiyat a’zolari o‘rtasida aloqa-aralashuvning muhim vositasi ekan, ma’naviyati yuksalib borayotgan insonlarning nutq madaniyati ham yuqori bo‘lmog‘i lozim. Bugungi kunda o‘zbek adabiy tilining boy ifoda imkoniyatlaridan imkon qadar ko‘proq foydalanib o‘z fikrini bayon qila oladigan o‘quvchigina tom ma’noda o‘qimishli, savodli, muomala madaniyatini egallagan deb hisoblash mumkin.

Yoshlarga nutq odobi, so‘zlash madaniyati haqida saboq berish masalasi uzoq o‘tmishdan beri Sharq mutafakkirlari ijodida markaziy o‘rinlardan birini egallagan. Chunonchi, vatandoshiniz Farobiy yoshlarni to‘g‘ri so‘zlash, mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va go‘zal nutq sohibi bo‘lishga da’vat etgan. Bunda leksikologiya, grammatika va mantiqning ahamiyati benihoya katta ekanligini ham ta’kidlagan. Bu haqda u shuday deydi: “ Qanday qilib ta’lim berish va ta’lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so‘rash va qanday javob berishga kelganimizda, bu haqdagi ilmlarning eng birinchisi, jismlarga, ya’ni substansiya va aksidensiyalariga ism beruvchi til haqidagi ilmdir deb tasdiqlayman.

Ikkinchi ilm grammatikadir: u jismlarga berilgan ism(nom)larni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aksidensiyaning joylashishini va bundan chiqadigan natijani ifodalovchi hikmatli so‘zlarni va nutqni qanday tuzishni o‘rgatadi.

Uchinchi ilm logikadir: u ma’lum xulosalar keltirib chiqarish uchun logik figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o‘rgatadi, bu xulosalar yordamida biz bilmagan narsalarni bilib olamiz hamda nima to‘g‘ri va nima yolg‘on ekanligi haqida hukm chiqaramiz” [Abu Nasr Farobiy, 1975.54-b.]

Farobiy fanlani tasniflash bilan birga, ularni “Qanday o‘rgatish” masalalariga ham e’tibor qaratadi. Uning fikricha, har bir fanni o‘rganuvchi o‘zini shu ilmni o‘zlashtirishga tayyorlashi, so‘ngra haqiqatni izlashi, o‘zining salomatligiga, odob-axloqiga jiddiy e’tibor berishi lozim. U yoshlarga o‘git tariqasida yoshlikdan ilm egalashga bel bog‘lash lozimligini, salomatligining yaxshi bo‘lishiga intilishi, axloqli, odobli bo‘lishi so‘zning ustidan chiqishi, yomon ishlardan saqlanishi kerakligini uqtiradi. [Abu Nasr Farobiy, 1975.54-b.]

Ayniqsa, Farobiyning ustoz-o‘qituvchining mas’ulyati xususida bayon qilgan ibratomuz fikrlarini chetlab o‘tib bo‘lmaydi. U shogirdga haddan tashqari qattiqqo‘l ham bo‘lmaslik, ko‘ngilchanlik ham qilmaslik lozimligini maslahat beradi. Bu fikrlar hozirgi kunda ham o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmagan. Ta’lim samaradorligi faqat o‘qituvchi-o‘quvchi faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish orqaligina qo‘lga kiritiladi.

Buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy nutqning ikki xil turi: nasr va nazm xususida fikr yuritib, ularning har biri muayyan qoidalar asosida rivojlanishini bayon qiladi. Uning fikricha, nutqning nasriy shaklida ham, nazmiy shaklida ham mazmun birlamchidir. [Abu Rayhon Beruniy, 1985.- 64-b.]

O‘qitishda asosiy e’tibor mazmunning ustuvorligiga qaratiladi.

XI-XIV asr mutafakkirlari so‘zning qudrati, undan foydalanish madaniyati, kam so‘zlab, ko‘p ma’noni ifodalash xususida ibratomuz fikrlarni bayon qilganlar. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarida: “Bilib so‘zlasa, so‘z bilig sanalur” yoki “Ugush

so‘zlama so‘z biror so‘zla oz: tuman so‘z tugunun bu bir so‘zla yoz’ (mazmuni: bilib so‘zlash lozim; so‘zni ko‘p so‘zlama, ko‘mroq so‘zla, tuman so‘z tugunini shu bir so‘zda yech) degan fikrni bayon qilgan.[Yusuf Xos Hojib,1971, - 18-b.]

Yusuf Xos Hojib so‘zlashga o‘rgatish odobi xususida fikr yuritib:

Til asli ta’lim bor, bosinma o‘qish-
Ara ugdulur til, ara ming sukun
Nega bunday ersa bilib so‘zla so‘z.
So‘zing bo‘lsu ko‘rsu kerag‘uqa ko‘z.[.[Yusuf Xos Hojib,1971, - 88-b.]
(104, 88)

Mazmuni: tilning foydasi ko‘p, ortiqcha hovliqma; goho til maqtaladi, goho so‘kiladi; modomiki shunday ekan, so‘zni bilib so‘zla; so‘zining ko‘r uchun ko‘z bo‘lsin. U tilning insonni e’zozlashi ham, jazolashi ham mumkinligini alohida uqturadi, inson “Tili tufayli baxtga erishadi”, - deydi. Yusuf Xos Hojibning fikricha, yoshlarga tilni o‘rgatish ularni muomala odobiga o‘rgatish demakdir.

XII asr oxiri XIII asr boshlarida ijod etgan Ahmad Yugnakiy ham nafaqat ilimning ahamiyati, balki ilmni o‘rganish xususida so‘zlab, bilimli kishi ilmni farqlaydi, bilimning qadrini kishiga ilm bildiradi, bilimli kishi kerakli so‘zni so‘zlaydi, molsiz faqir kishiga uning ilmi tugalmas boylikdir, degan g‘oyalarni ilgari suradi.

Husayn Voiz Koshifiy ham boshqa didakt olimlar singari so‘zlash odobiga keng o‘rin ajratadi. Ularning ko‘pchilik o‘rtasida qanday gapirish kerakligi haqida bergan o‘gitlaridan bilish mumkinki, ona tilini muomala-odobi bilan bog‘lab o‘rganish muhim pedagogik zaruratdir.

Sharqning buyuk mutafakkiri Kaykovus o‘zining “Qobusnoma” asarida so‘zlash madaniyati xususida to‘xtalib: “… xalq oldida gapirganda so‘zing go‘zal bo‘lsin, bu so‘zni xalq qabul qilsin. Xaloyiq sening so‘z bilan baland darajaga erishganingni bilsin, chunki kishining martabasini so‘z orqali biladilar, har kishining ahvoli o‘z so‘zi ostida yashiringan bo‘ladi”, - deb e’tirof etadi.

Ko‘rinib turibdiki, Sharqning buyuk mutafakkirlari inson nutqiga quyiladigan talablar xususida fikr yuritishar ekan, ayni vaqtda unga nutq odobini o‘rgatish masalalarini ham chetlab o‘tmaydilar.

Sodda va chiroyli so‘zlash odobi Zahiriddin Muhammda Bobur e’tiboridan ham chetda qolmagan. Zero, Bobur o‘z o‘g‘li Humoyinga yozgan bir xatida birovga yuboriladigan maktubni muallifning o‘zi bir necha bor o‘qib chiqishi, uning ravonligiga ishonch hosil qilganidan keyin jo‘natishi lozimligini uqturadi.

Yoshlarni turkiy til odobiga o‘rgatish, ayniqsa, buyuk shoir, mutafakkir va olim Alisher Navoiy davrida yuqori nuqtaga ko‘tarildi. Shaxsan Alisher Navoiy tashabbusi bilan madrasalarda qiroat san’atiga jiddiy e’tibor qaratildi. Hazrat Alisher Navoiy o‘zining “Mahbubul qulub” asarida: “… Xusnavis kotib so‘zga oroyish berur va so‘zlovchiga osoyish yetkarur”, - deb chiroyli yozish va yozma nutq malakasini egallashning barchaga “osoyish” berishini ta’kidlaydi. Shu asarida shoir talaffuz va imlo, ularning aloqadorligi, so‘z qudrati va nutq madaniyati, so‘z ma’nolaridan to‘g‘ri foydalanish, nutqni to‘g‘ri tuzish kabi masalalarning ilmiy sharhini berish bilan tilni chuqur o‘zlashtirish metodikasini yaratishga ulkan hissa qo‘shdi.

Xullas, yoshlarga nutq malakasini singdirish ishi yuksak madaniyat egasi bo‘lgan o‘zbek xalqi uchun bugungi kunning talabi bo‘lmay, balki qadimiy odatlardan biri sanaladi. Bu odat barcha zamonlarda ona tili ta’limining muhim jihatlaridan biri bo‘lib qoladi. Zero, ertaga maktabni bitirib chiqadigan yoshlar uchun ona tilining qonun-qoidalaridan nutq jarayonidan foydalana bilish bilan bir qatorda o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash, o‘zbekona go‘zal nutq sohibi bo‘lishi o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abu Rayhon Beruniy Tanlangan asarlar,II jild,1985..-64 b.
2. Abu Nasr Farobiy.Risolalar. – Toshkent :1975.54b.43b.
3. Yusuf Xos Hojib.Qutdg‘u bilig: - T:,1971.18 -88 b.
4. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Muhtaram yoshlarga murojaat.Tanlangan asarlar. - T.:Ma’naviyat, 1997. 153-b.
5.G‘ulomov A.,Ne’matov H.Ona tili ta’limi mazmuni. – T.: O‘qituvchi, 1995. – 125b.

“TEMUR TUZUKLARI”DA AMIR TEMUR MA’NAVIY QIYOFASINING AKS ETISHI

Мусфира Мунавварова
Ф.ф.н., “Миллий ғоя, маънавият асослари ва хукук таълими” кафедраси доценти.

Аннотация Мақолада «Темур тузуклари» туркий халқларнинг маънавий илдизлари сифатида тадқиқ этилган. «Темур тузуклари» мисолида туркий халқларда ижтимоий фикр қадим илдизларга эга эканлиги асослаб берилган.

Kalit so‘zlar: Ватан, миллий жипслик, маънавий илдизлар, ор, ғурур, тинчлик, адолат, зулм, эзгулик, ҳақиқат, бағрикенглик, тарихий хотира, фаровонлик, бунёдкорлик.

Аннотация В статье «Темур тузуклари» изучаются как духовные корни тюркских народов. На примере доказывается, что общественная мысль имеет древние корни у тюркских народов.

“Саъй – ҳаракатни ободончилик ва фуқаро фаровонлигига йўналтиришни ҳукмдорлик йўл-йўриқларининг фарзларида ва жаҳонгирлик суннатларидан деб билдик”.
Амир Темур

Амир Темур жаҳон тарихига қудратли ва гуллаб яшнаган давлат барпо этиб, ўрта аср дунёсининг асл маданий ва маънавий марказларидан бирига айланган, инсон ақли ва истеъдодининг ноёб ижоди бўлиб, бугунги кунда ҳам сақланиб қолган мислсиз меъморий обидалар билан машҳур Самарқандни унинг пойтахтига айлантирган атоқли саркарда ва давлат арбоби сифатидагина кирган эмас. Амир Темур олимлар, файласуфлар, меъморлар, шоирлар, ҳофизу машшоқларга ғамхўрлик қилишда ҳам ном қозонган, замонлар синовларида парчаланиб кетмайдиган юксак маънавият соҳиби бўлган шахс эди. Шу асосларга кўра Темурийлар даври илм-фан, маданият ва маорифнинг равнақ топишини таъминлаган иккинчи Ренессанс, Шарқ уйғониш даври бўлди. Шаксиз, биз бугун туркий

халқлар маънавий илдизлари ҳақида мулоҳаза юритар эканмиз, Амир Темур маънавий қиёфасини чуқур ўрганишга эҳтиёжимиз бор.

Амир Темур минтақамизда юз берган Иккинчи Ренессанснинг асосчисидир. Н.И.Конрад шундай ёзади: “Бу сафар Искандар ва Канишканинг руҳи, Чингизхонники эмас...”[57]. давомида атоқли олим ўз фикрини асослашда Темурнинг бунёдкорлик ва адолатпарварлик сиёсати, ҳунармандчилик ва зироатчиликни ривожлантириши, илм-фан, санъат, маданият, дин аҳлига ҳомийлик қилиши, Самарқандга таклиф қилиб ижод учун барча шароитни яратиб бериши каби далилларни келтиради. Темурнинг бундай фаолиятисиз Навоий давридаги маънавий юксалиш ҳам бўлмас эди, деган хулоса қилади.

«Темур тузуклари»да биринчи мақола Темурнинг пири Зайниддин Абу Бакр Тойбодий даъватлари билан бошланади: ”Пирим Зайниддин Абу Бакр Тойободий менга ёзмишларким: Абумансур Темур, салтанат ишларида тўрт нарсага амал қилгин, яъни: **1) (ўзинг билан) кенгаш; 2) (бошқалар билан) маслаҳату машварат айла; 3) ҳушёрлигу мулоҳазакорлик билан қатъий қарор чиқар; 4) эҳтиёткорлик қил.** Чунки кенгаш ва машваратсиз салтанатни барча қилган ишлари ва айтган гаплари хато бўлган жоҳил одамга қиёслаш мумкин, унинг сўзлари ва қилмишлари бошга пушаймонлик ва надомат келтиргай. Шундай экан, салтанат бошқаришда машварату маслаҳат ва тадбир билан иш юритгин, токи оқибатда надомат чекиб, пушаймон бўлмагайсан.

Тадбирлардан огоҳ қилингандан кейин шуни айтиш жоиздурким, **қатъийлик, сабр, чидамлилик, ҳушёрлик, эҳтиёткорлик ва шижоат** билан барча ишлар амалга оширилгай”.

Маънавий устозининг ушбу мактубидаги йўл-йўриқни соҳибқирон ўзи барпо этган давлатнинг маънавий устунига айлантирган. Салтанат ишларининг тўққиз улуши машварат, тадбир ва кенгаш орқали қолган бир улуши қилич билан бажарилиши Темурнинг юқоридаги ўгитдан чиқарган қатъий хулосаси. «Темур тузуклари»нинг пир ўгитлари билан бошлаш муаллифнинг маънавият ва илм соҳиби эканлигини англатади. Устоз мактуби ва соҳибқирон хулосаларидаги мантиқий изчиллик юксак даражада. Соҳибқирон мамлакатни бошқаришда **ақл, маслаҳат, ҳушёрлик, эҳтиёткорликка** таянибгина адолатга эришиш мумкинлигини теран англаган. Адолат Буюк Амир Темурнинг салтанатни бошқаришдаги илк ва муҳим хулосавий тамойили, бир умрлик раҳнамоси бўлган.

Кўплаб замондошлари Темурнинг узоқни ёки бирор ишни бошласа натижасини олдиндан кўриб туради деб ёзишган. Буни тузуклар билан ҳам асослаш мумкин.”Ишларимнинг барисида аввал кенгаш – маслаҳат қўлладим, ишни бажаришга киришар эканман, олдиндан чора-тадбирлар белгилаб қўярдим, ҳамда бу иш қандай якуланиши ҳақида фикр-мулоҳаза қилган ҳолда иш бошлардим; сўнгра, кези келганда, тўғри тадбир ва қатъий жазм, ёхуд мулоҳазакорлик ва эҳтиёткорлик, ёки узоқни кўриб ортини ўйла-ган ҳолда, уни (кўнгилдагидек) ниҳоясига етказардим”.

“Тўкал баҳодир минг отлиқ аскар олиб, менинг устимга келди. Олтмиш отлиқ йигитим ва менга қўшилган қайноғам Амир Ҳусайн билан бирга минг отлиқ кишилик ғаним лашкарига юзма-юз бўлдим ва жангга киришдим. Бу жангда шундай **баҳодирлик** қилиб**, чидамлик** кўрсатдимки, унинг минг кишисидан эллик киши қолди, менинг олтмиш отлиқ йигитимдан ўн кишигина қолди. Шундай бўлсада зафар мен томонда бўлиб, уларни қочирдим.” Бу зафарни соҳибқирон яхшилик аломати сифатида баҳолаган. Бинобарин, ушбу жангдан кейинги лашкар тўплаш жараёни ҳам салмоқли даражада тезлашиб, Мовароуннаҳр мулкини забт этиш сари қадам ташланди.

[57] Н.И.Конрад. Избранные труды. Литература и искусство. М., «Наука». 1978,91-б.

Кези келганда ўзи ҳақидаги эл ичида тарқаган гаплардан ҳам тўғри ва **оқилона хулоса чиқара билмоқлик** теран тафаккур соҳибига хос. “Жета лашкари амирлари устидан ғалаба қозонганимдан кейин, салтанатга даъвогарлик қилганим учунгина ҳуруж этганлигим ҳақида Туронзаминда хабар тарқалди. Шундан кейин мен адолат билан ҳукмронлик қилишга азму-жазм этдим ”.

“Темур тузуклари”да Темур маънавий қиёфасининг қанчалик теран маъноga эга эканлиги унинг **кечиримлилик** сифатида ҳам ёрқин акс этган.”Менга ҳар турли ёмонликлар қилиб, чўчиб юрган ва қилмишлари учун “ мени ўлдиради” деб ваҳимада юрганларни ўзимга эл қилиб олиш бобидаги кенгашим”- деб ёзади.

Соҳибқирон том маънода **халқпарвар** ҳукмдор бўлиб, мамлакатда адолат, тинчлик ва фаровон ҳаётни таъминлаш учун курашади. ”Амир Соҳибқирон, - дейди Низомиддин Шомий, - раиятлар аҳволини чуқур текшириб, мазлумнинг додини золимдан олди, мамлакатнинг хароблигу ободонлиги борасида маълумотлар олишга илтифот кўргазди.Ҳар кимнинг ҳақ-ҳуқуқини ўз ўрнига қўйган ҳолда халойиқнинг ҳар бир тоифасини турли туман меҳрибонликлар билан сийлади: сайидларни улуғлашу эҳтиром, амирларни инъом, уламоларни эъзозу икром, заифларни саховату эҳсон, раиятни амонлигу одиллик билан хушнуд этди. Шунинг учун унинг муборак зоти Худойи таолонинг лутфу иноятига сазовор бўлди...”.

У фарзандларига ҳам қўл остидаги мамлакатларга кўрсатилган тарзда сиёсат юритишни топшириб, бундай деган: “ ушбу улуғ ишни шу йўсинда олиб борингки, токи у адолат, ҳақиқат, ҳукмдорлик заруриятлари ва раиятпарварлик учун кафолат бўла олсин ҳамда унинг қоидаларига шундай бир тарзда амал қилсинки, токи у оламнинг ободлиги ва инсоният тинч тотувлиги билан якун топсин”.

Ўрта асрлардаёқ хорижий мамлакатлар халқларига меҳрибонлик ва дўстлик кўзи билан қараш Соҳибқироннинг инсонпарвар ва олижаноб шахс бўлганлигини кўрсатади. Темур давлатчилик сиёсатида миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенглик муҳим аҳамиятга эга бўлган. Тарихдан биламизки, бегона мамлакатларни камситиш ҳукмдорлар ва уларнинг қўл остидаги мансабдорлар учун одат тусига айланган даврларда ҳам Амир Темур бундай йўл тутмаган. Соҳибқирон узоқни ўйлаб давлат сиёсатида адолат устиворлигини таъминлаган. Юқорида кўрсатилганидек, ҳар бир фуқарога арзию дардини тортинмай, чўчимай бевосита Соҳибқиронга билдириш ҳуқуқи берилишининг ҳам аҳамияти катта. Бу ўз навбатида Соҳибқирон инсонпарварлигининг **шарқона демократиянинг ўзига хос кўриниши** ҳамдир.

Амир Темурнинг теран тафаккури, маънавий салоҳияти ўз замонасида юксак баҳоланган. Масалан, Миср қозиларининг қозиси ва таниқли тарихчи Валиуддин Абдураҳмон ибн Холдун Соҳибқиронга таъзим ила қуйидаги сўзлар билан мурожаат этган: “Азбаройи Худо, э, Мавлоно Амир! Дунё фатҳларининг калити бўлган қўлингни (менга) бергин, мен уни ўпиш шарафига муяссар бўлай... Миср сендан ўзга ноиб ҳукмидан ёинки, унда фақат сенинг амрингдан бошқа амр жорий бўлишидан хориждир. Сенга баробар келадиган кимса менинг насли-насабим, аҳлию аҳволим, ватану мамлакатим, дўсту биродарларим , хешу ақраболарим , оламлар подшолари тугул барча орқаю бош балки бутун инсоният орасида ҳам йўқдир.

Таълим-тарбия, илм-фан, маданият, маънавий-маърифий ишлар тизимининг тубдан чуқур ислоҳ қилинишининг сабаби ҳам, давлат раҳбари таъбири билан айтганда: Янги Хоразмийлар, Берунийлар, Ибн Синолар, Улуғбеклар, Навоий ва Бобурларни тарбиялаб берадиган муҳит ва шароит яратишимиз керак. [58]Муҳит эса нафақат объектив шарт-шароитлардан, шунингдек субъектив олимлардан, одамларнинг ўзаро муносабатлари

[58] Қаранг: Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистонда эркин ва фаровон яшайлик. (иқтибослар). Тошкент – 2021, 10-б.

мазмунидан, уларнинг қандай мақсадларни кўзлаб, амалий интилишларидан ҳам иборатдир. Бунинг учун ёш авлодга тарихимиз, улуғ даҳоларимиз ҳақида чуқур билим бериш керак, токи уларнинг ҳаёти ёшларимизга намуна бўлсин. Ш. М. Мирзиёев таъкидлаганидек: “Бир ҳақиқатни барчамиз чуқур англаб олишимиз керак: миллий тарихни халқимиз, айниқса ёшларимизга миллий руҳда етказиш, уларнинг қалбига, шуурига сингдириш керак. Акс ҳолда унинг тарбиявий таъсири бўлмайди. Биз ёшларимизни тарихдан сабоқ олиш, хулоса чиқаришга ўргатишимиз, уларни тарих илми тарихий тафаккур билан қуроллантиришимиз зарур”. [59] Амир Темур ҳаёти, фаолияти, маънавий

ТУРКИЙ ХАЛҚЛАР ОҒЗАКИ ИЖОДИДА МУШТАРАК ҚАДРИЯТЛАР

Мусфира Мунавварова Ф.ф.н.,
“Миллий ғоя, маънавият
асослари ва хукук таълими”
кафедраси доценти.

Аннотация: Мақолада халқ оғзаки ижодига мансуб достонларда акс этган етакчи ғоялар туркий халқлар учун муштарак бўлган қадриятлар сифатида тадқиқ этилган.

Таянч иборалар: Ватан, миллий жипслик, эрк, умуминсоний қадриятлар, мустақиллик, ғоя, маънавий илдизлар, ор, ғурур, тинчлик, адолат, зулм, эзгулик, ҳақиқат, бағрикенглик, тарихий хотира, фаровонлик, бунёдкорлик.

Туркий халқлар оғзаки ижодининг кўплаб жанрларида миллий эрк ва ватан ҳимояси учун жонни аямаслик, ўзаро бирлик, жипслик ғоялари энг муҳим қадрият сифатида ифодаланган. Хусусан, «Алпомиш», «Гўрўғли», «Рустамхон», «Кунтуғмиш» эпик достонлари, Тўмарис, Муқанна, Широқ ҳақидаги ривоятлар, адабий меросимизнинг бошқа намуналарида маънавий қадриятларимизнинг бирламчи фундаментал асослари акс этган. Мазкур манбаларда ота-боболаримизнинг энг улуғ орзу ва мақсадлари, ишонч ва умидлари муҳрланиб қолган. Зотан, халқнинг маънавий меросида машъаладек порлаб турган ғоялар биз шундай эрксевар, матонатли, меҳнаткаш ва бағрикенг халқнинг давомчи ворисларимиз деган ишончни мустаҳкамлайди.

Халқ орзу-интилишлари, ижтимоий ва маънавий идеалларини акс эттиришда қадимийлиги, ижтимоий-ғоявий аҳамияти, кенг тарқалиши, таъсирчанлиги жиҳатидан оғзаки ижод намуналари алоҳида ажралиб туради. Бу мифологияга ҳам, эртак ва достонларга ҳам, мақол ва нақлларга ҳам хос. Албатта, халқ оғзаки ижоди жанрларининг маънавий қадриятларни ифодалаш ва акс эттириш имкониятлари бир хил эмас. Лирик жанрларда (қўшиқ, лапар ва ҳоказо) кўпроқ эстетик ва баъзи бир ахлоқий қадриятлар ўз аксини топган бўлса, қаҳрамонлик эпосларида ўз замонаси қадриятларининг бутун ранг-баранглиги қамраб олинади. Чунки қаҳрамонлик эпосида эстетик қарашлар билан бир қаторда ахлоқий, ижтимоий-сиёсий, ҳуқуқий, иқтисодий, ҳарбий, этник, маиший ва бошқа турли муносабатлар, қарашлар, баҳолар, мезонлар нисбатан кенг ва батафсил ифодаланиши мумкин.

Қаҳрамонлик эпослари вужудга келиши маълум тарихий даврда уруғ ва қабилаларнинг, элатларнинг бирлашуви жараёнида ўзлигини, ўз манфаатларини англаш даражаси ўсиши ва умумий ёвга қарши курашда бирлашиши билан боғлиқ.

Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпосига мансуб «Алпомиш», «Гўрўғли», «Рустамхон», «Кунтуғмиш» каби туркум достонларнинг ҳар бири юксак даражада миллий хусусиятларга эга бўлиши билан бирга умуминсоний, жаҳон аҳамиятига эга бўлган мазмунни ифодалаши

[59] Шавкат Мирзиёев. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик – миллий ғоямиз пойдеворидир. Тошкент – 2021.25-б.

билан ҳам ажралиб туради. Мазкур достонларнинг жаҳон адабиётининг тенгсиз намуналари қаторида эътироф этилиши ҳам бежиз эмас.

Халқимизнинг маънавий ёдгорлиги бўлмиш достонларнинг ўзига хос хусусиятларидан бири уларнинг туркумларга ва турли вариантларга эга бўлишидадир. Бунинг объектив сабабларидан бири, албатта, халқ достонларининг кўпчилик жамоа орасида бахшилар томонидан асрлар давомида куйланиши, уларнинг ўз даври ва тингловчилари (халқи) талабларини, эҳтиёжларини тўлароқ акс эттиришга уриниши, жамият ва халқнинг долзарб талаблари билан боғлиқдир. Айни шу жиҳат аждодлар маънавий меросини бирлаштириб турувчи даъватлар, идеаллар, орзу-ниятларда ягона мантиқий йўналишни тақозо этарди.

Ёв устидан ғалаба қозониб, хавфни бартараф этувчи, золимлар жазосини берувчи, халқни бирлаштириб адолат ўрнатувчи, чўлларни обод қилувчи қаҳрамон, фаровон ҳаёт, обод юрт, озодлик, тенглик, адолат, мардлик, оқибатлилик, элпарварлик, жасорат тимсоли бўлган достон қаҳрамонлари не-не истилочи мустамлакачилар зулмини енгишда, ўзликни сақлаб қолишда маънавий-руҳий мадад бўлиб келган. Қанчадан-қанча аждодлар учун маънавий идеал вазифасини ўтаган.

«Гўрўғли» достонида Гўрўғли от танлаш ёки зот танлаш дилеммасига дуч келади. Агар от танласа, юртни босқинчилардан (Райхон-арабдан) озод қилиш имконига эга бўлади, аммо фарзанд кўрмайди, зоти Гўрўғлининг ўзида тугайди. Агар зот танласа, ақлли, жасур фарзандлар кўради, авлодлари машҳур кишилар бўлиб етишади. Аммо юрти, халқи қарамликда хўрланиб яшайди.

Ёв отлари маҳаллий отларга нисбатан чопқир, чўл-саҳрога чидамли эди. Истилочиларни енгиш учун уларникидан қолишмайдиган чопқир ва чидамли отлар зарур эди. Эл-юрт манфаатини ўз манфаатидан устун қўйган Гўрўғли ҳеч иккиланмасдан отни танлайди.

Гўрўғлининг онгли, эркин танлови, мардлиги, иродаси, юрт озодлиги учун курашга ўзини тўлиқ бағишлаши бугунги кунда ҳам юксак маънавий жасорат сифатида қадрлидир. Уни шубҳасиз, туронзамин халқлари маънавий илдизларидан биридир дейишга хақлимиз.

Ўзбек халқи орасида қадимги даврлардаёқ кенг тарқалган достонлардан бири «Алпомиш»дир. Илмий манбаларда мазкур достоннинг 100 дан ортиқ вариантлари борлиги қайд этилган.

«Алпомиш» достони бизга ватанпарварлик фазилатларидан сабоқ беради. Одил ва ҳақгўй бўлишга, ўз юртимизни, оиламиз қўрғонини қўриқлашга, дўсту ёримизни, ор-номусимизни, ота-боболаримизнинг муқаддас мозорларини ҳар қандай тажовуздан ҳимоя қилишга ўргатади».[60]

Алоҳида эътироф этиш жоизки, халқ оғзаки ижодига мансуб қаҳрамонлик эпослари «Гўрўғли», «Алпомиш», «Рустамхон», «Кунтуғмиш» достонларида жасур, мард, мустаҳкам иродали ўғлонлар қаторида улардан қолишмайдиган мард ва матонатли хотин-қизлар кўпчиликни ташкил этади. Шу ўринда «Алпомиш» достонида Қалдирғоч акасига танбеҳ бергани, Ҳакимбек ҳам сингил танқиди ўринли эканлигини тан олиб тўғри йўлни танлаганида Қалдирғочнинг акасини кузатиб айтган сўзларини эслайлик:

«Остингда ирғиса араби тулпор,
Бу йўлда кўрмагин, акажон, хатар,
Сенинг дуогўйинг мендай муштипар.
Эл кўчириб Олатоғдан оширдим,
Улуғланиб остонанга бош урдим,
Боргин, эмикдошим, ҳаққа топширдим». [61]

«Алпомиш» достонида Барчиннинг «Султон суягини хўрламас» деган гап бор, сенинг эсонлигингда отам қалмоқ юртида хор бўлиб қоладими, деб айтган сўзлари:

[60] Ислом Каримов. Юксак маънавият –енгилмас куч.-Тошкент: Маънавият, 2008. - 32 б.
[61] Ўша асар. -76 б.

«Муштипарман энди нима қилайин,
Бормасанг, жавоб бер, ўзим борайин,
Отамнинг ҳолидан хабар олайин,
Энди қолган умрим сарфлаб кўрайин.
Бу шоҳлик шавкатни нима қилайин,
Аёлман деб қандай қараб турайин,
Бел бойладим энди ўзим борайин.
Бормасанг, жавоб бер, давлатли хоним,
Мен қалмоқ борарман бундан, султоним».[62]

Достонларда нафақат ватанпарварлик, мардлик, шунингдек, юқорида таъкидлангани каби адолат, ахлоқ, ҳақиқат қадриятлари ҳам теран ва таъсирчан куйланади.

Халқ оғзаки ижодига мансуб эпослар қаҳрамонларининг ҳеч бирининг ҳаёт йўли силлиқ ёки роҳат фароғатда кечмайди. Улар бошига тушган мусибатлар қанчалик оғир. Баъзан ечим афсонавийликка асосланган. Аммо сўнмас ирода, эл-халқ озодлиги, ғурури, шаъни йўлида ўз жонини аямаслик асосий ечим эканлигини синчков ўқувчи англамаслиги мумкин эмас. Бу халқ қаҳрамонларининг деярли барчасига хос бўлиб, улар образига қудратли тарбиявий куч бағишлайди, маънавий идеалга айлантиради.

MUAMMOLI TA'LIM - O'QUVCHI-YOSHLAR IJODKORLIGINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Tuxtayeva Bibigul NavDPI
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi
katta o'qituvchisi

Annotatsiya: maqolada hozirgi kun ta'limiga qo'yilgan talablar, bolani mantiqiy fikrlashi, darsda muammoli savol qo'yish texnikasi haqida fikr bildirilgan.

The article discusses the requirements for modern education, the child's logical thinking, the technique of asking problematic questions in the classroom.

Bugungi kunda hukumatimiz ta'lim oldiga uyg'un kamol topgan avlodni tarbiyalash, intellectual bilim va boylikka ega bo'lgan, ma'nan sog'lom yoshlarni tarbiyalash, ta'lim berish sifatini tubdan yaxshilash vazifasini qo'ymoqda. Shu bois ham o'quvchi-talabalarda mustaqil, mantiqiy fikrlash qobiliyatini o'stirish, og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish, ularda mehnat faoliyati ko'nikmalarini shakllantirishda adabiyot fani o'ziga xos o'rin tutadi. Chunki adabiy ta'lim va barkamol shaxs tarbiyasi bir-biri bilan uzviy bog'liq jarayondir. Mazkur jarayonda mantiqiy fikrlash, tasavvur qilish, bilish faoliyatini rivojlantirish kabi jihatlar muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, farzand kamoli, uning ruhiyati va qalbini ezguliklarga yo'llashda adabiyotning o'rni alohida. Adabiyot - ko'ngilni yashnatadigan, ma'naviyatni yuksaltiradigan, katta imkoniyatlar eshigini ochadigan axloqiy tarbiya vositasi. Adabiyot muallimi oldida ana shu tarbiyani amalgam oshirishdek buyuk vazifa turibdi. "Agar adabiyot muallimi adabiyotni sevsa, bolalarning aksariyati adabiyotchi bo'lib ketadi. Yoki tarix muallimi tarixni sevsa, bolalarning ko'pchiligi tarix faniga intiladi. Shuning uchun ham bolalarning ko'ngil qulfini ochishda, kelajakda o'z yo'lini tanlab ilishda muallim muhim o'rin tutadi".(X. To'xtaboyev.)

"Chinakam adabiyot darsi-tom ma'nodagi ijod mahsuli" (V. Qodirov. Til va adabiyot ta'limi. 7-son. 9-bet.) Darsni ijod mahsuliga aylantirish uchun o'qituvchidan chuqur bilim va tajriba talab etiladi. Har bir predmet o'qituvchisi, avvalo, shu fan o'qitilishining o'ziga xos xususiyatlarini o'zlashtirmog'i lozim.

Ma'lumki, har bir inson o'z oldida ko'ndalang turgan hayotiy yoki ilmiy muammoni hal etish uchun o'ylanadi, izlanadi. Bu – ruhan sog'lom odamga xos bo'lgan tabiiy xususiyat. Hozirgi milliy pedagogikada ta'lim-tarbiya jarayoniga butunlay yangicha talablar qo'yilmoqda. O'quvchi o'z ma'naviy kamolotini ta'minlash uchun mustaqil ravishda kitob o'qish malakasini shakllantirish,

[62] Алпомиш. -Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1985. -183 б.

bilim olish yo‘lida bor imkoniyatlarini qo‘llagan holda ijodkorlik ko‘nikmalarini qaror toptirish talab qilinyapti. Ta’limga bunday yondashuv o‘quvchini taqlidchilikdan, ko‘chirmachilikdan, tayyor qoliplar asosida fikrlashdan holi qiladi.

Muammoli ta’limning afzalligi shundaki, unda o‘quvchiga nafaqat bilim berish, balki uning ma’naviyatini shakllantirish borasida muammoli savollar qo‘yib o‘quvchini chuqurroq o‘ylashga, mulohaza qilishga undaydi.

Muammoli savolni qo‘yishdan oldin muammoli vaziyat yaratish zarur. “Muammoning qo‘yilishi va uni yechish jarayoni uzilmas bir zanjirdir.muammo ko‘tarilishi bilanoq, uning yechimi ustida o‘ylanadi va bu, o‘z navbatida, yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Shu tariqa uzluksiz tarzda yangi bilimlarni o‘zlashtirish amalgam oshadi[63]”.

Muammoli ta’limda muammoni yechish jarayonida o‘qituvchi faqat alohida o‘quvchi bilan emas, sinfdagi barcha o‘quvchilarni qamrab olishi zarur. Bu sinfdagi har bir bola shaxsining individual xususiyatlarini imkon darajasida inobatga olishinini ta’minlaydi. Shunisi diqqatga sazovorki, muammoli ta’limda qo‘yilgan muammo ba’zi o‘quvchi uchun qiyin, ba’zisi uchun oson tuyilishi mumkin. muammo mohiyatiga tushunmagan o‘quvchi arosatda qoladi. Ana shunday vaqtda o‘qituvchi bolaga yordamga keladi, ya’ni, bolaga individual yondashishda mahorat katta rol o‘ynaydi. Muammo qo‘yilayotganda o‘quvchilarning yosh xususiyati albatta hisobga olinishi kerak. shu o‘rinda T.Kudryavsevning:”…o‘quvchining oldiga didaktik muammo qo‘yish, o‘quvchilar ularni yechish asnosida bilimlarini umumlashtirishi va muammoli masalalarni hal qilish tamoyillarini o‘zlashtiradi[64]”.

“Adabiy ta’lim insoniylashgan, mafkuraning bo‘g‘ovlaridan qutulgan sharoitda uni yangicha tashkil etish, ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi shaxslari o‘rtasidagi munosabatlarining pedagogik me’yorlarini belgilash, uni sog‘lom insoniy asoslarga qo‘yish o‘ta dolzarb ilmiy-metodik vazifalardandir”, deydi taniqli metodist olim Q. Yo‘ldoshev. (Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T. “O‘qituvchi” 1996. 5-bet.) Badiiy adabiyot tarbiyalanuvchilarga adabiyot bo‘yicha qandaydir bilimlar majmuini singdirish uchun o‘qitilmasli, balki jozibali badiiy so‘z vositasida o‘quvchilarning hissiyotlariga ta’sir qilish orqali ularning ma’naviy qiyofasini shakllantirish yo‘li bilan bolalarni komil inson bo‘lish sari yetaklash maqsad qilib olingan.

Maktab amaliyotida badiiy asarlarni o‘rganish darslariga nazar tashlaganda, bor-yo‘g‘i ikki-uch mashg‘ulot qolipi borligiga guvoh bo‘lamiz. Ayni paytda adabiyot darslarini to‘g‘ri tashkil etish muammosiga alohida ahamiyat beriladi. Har qanday darsda o‘qituvchi- o‘quvchilar, o‘qituvchi- alohida o‘quvchi, o‘quvchilar –alohida o‘quvchi shaklidagi munosabatlar tashkil etilganini kuzatish mumkin.

Yoshlarga har tomonlama puxta ta’lim-tarbiya berishga qaratilgan milliy modelimiz konsepsiyasining mazmuni milliy turmush tarzimiz, xalqimizning qadimdan amal qilib kelayotgan urf-odatlari,ma’naviy axloqiy an’analarimiz bilan uzviy bog‘lanib ketgan. muammoli ta’lim o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini o‘stirish bilan birga ularda shaxslik sifatlarining shakllanishiga, ma’naviyatining boyishiga ham imkon beradi. bunday ta’lim o‘quvchi faoliyatida bilimlarni o‘zlashtirish va muammoli vaziyatni tahlil qilish yo‘li bilan hal qiluvchi faoliyat turlarida, muammoli vaziyatlar tashkil qilish va ulardan chiqishda o‘z takliflari,asoslari,isbotlari,farazlarini ilgari surish bilan bog‘liq bo‘lgan alohida tizim. Bu aqliy faoliyat bilimlarni, yangi tushunchalarni o‘qituvchining rahbarligida,ongli ravishda o‘zlashtirishga, tafakkur mustaqilligini ta’minlash va faollashtirishga, shaxs shakllantirishga xizmat qiladi. Adabiyot darslarida adabiy asarning o‘quvchi shaxsiga qanday ta’sir etishiga e’tiborqaratilishi zarur. O‘quvchi o‘qigan asaridan estetik zavq olishi bilan birga, ijtimoiy-axloqiy jihatdan ham ma’lum tushuncha, tarbiya olishi kerak. Badiiy asarning kuchi bolani mahliyo qilishi yoki qattiq o‘ylovga tushirishi mumkin. ba’zi qahramonlarga o‘xshashga xohish paydo bo‘lsa, ba’zisidan nafratlanish hissi ustivor bo‘lishi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchilarda har bir asar qahramoniga tirik inson sifatida qarashni shakllantirishi lozim.

[63] Husanboyeva Q. Adabiyot – ma’naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. A.Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009, 131-b.
[64] Kudryavsev T. Vnedreniye prinsipa problemnosti v obuchenii. M. 1986. 17-s.

Haqiqatdan ham,sharqona nuqtai nazardan qaralsa, ma’rifatlilik- bu kishining faqat bilim va malakaga egaligini bildirish bilan cheklanmaydi. Ma’rifatlilik ayni paytda boy ma’naviyat va go‘zal axloq sohibi bo‘lish hamdir.

Bu ta’lim tizimi Vataniga,xalqiga, millatiga fidokor, mustaqilfikrlaydigan, biron bir masalani ongli ravishda, mas’uliyat bilan hal qilinadigan,izlanuvchi,yangilikka intiluvchi intellektual kadrlarni yetkazib berishda xizmat qiladi.

Umuman, bugungi kun o‘qituvchisi o‘z ustida uzluksiz ishlashi, kasbiy mahoratini, pedagogik va ijodiy qobiliyatlarini oshirib borishi lozim. Shuningdek, bolalarni faniga qiziqtirsa, kitobga oshno qilsa, o‘qigan har bir kitobidan ma’naviy va tarbiyaviy ozuqa olishga o‘rgatsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

“SHOHNOMA” – VATANNI ULUG‘LASH, XALQ QUDRATINI KO‘Z-KO‘Z QILISH TIMSOLIDIR

Muborak Sattorova
Nav.DPI O‘zbek tili vaadabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada fors-tojik tilidagi adabiyot X-XV asrlarda O‘rta yer dengizidan tortib Hindistonga qadar bo‘lgan juda katta hududni qamrab oldi. Tojik, eron, ozarbayjon, hind, afg‘on, o‘zbek va boshqa xalqlar bu adabiyot ravnaqiga o‘z hissasini qo‘shgani yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Jahon madaniyati, aniqlik, izchillik, qoraxoniylar, xamsachilik, umumjahon, turkiy xalq, serqirra, ta’sirchan, san’at.

Аннотация В этой статье литература на персидско-таджикском языке охватывает огромную территорию от Средиземного моря до Индии в X-XV веках. Будет освещено, что таджикский, иранский, азербайджанский, индийский, афганский, узбекский и другие народы внесли свой вклад в развитие этой литературы.

Ключевые слова: Мировая культура, точность, последовательность, Караханиды, общность, универсальность, тюркский народ, плодовитый, влиятельный, искусство.

Annotation. In this article, the literature of the Perso-Tajik language covered a fairly large territory, ranging from the Mediterranean Sea to India in the 10th-15th centuries. Tajik, Iranian, Azerbaijani, Indian, Afghan, Uzbek and other peoples contribute to the prosperity of this literature

Keywords: World culture, accuracy, consistency, karakhanids, khamsatik, universal, Turkic people, lush, impressive, art.

San’at turlari orasida adabiyot alohida o‘rin tutadi. Badiiy adabiyotda hayot boshqa san’at turlariga qaraganda to‘laqonliroq aks ettiriladi. Shuningdek, badiiy adabiyotda aks ettirilgan hayot serqirra va ta’sirchan bo‘ladi. Badiiy adabiyot juda boy va rang-barangdir. U jahon madaniyati xazinasiga bebaho durdonalar qo‘shdi. Ro‘dakiy va Firdavsiy, Nosir Xisrav va Umar Xayyom, Xoqoniy va Nizomiy, Sa’diy va Hofiz, Xisrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy kabi ulkan so‘z san’atkorlari yetishtirdi.

Fors-tojik tilidagi adabiyot X-XV asrlarda O‘rtayer dengizidan tortib Hindistonga qadar bo‘lgan juda katta hududni qamrab oldi. Tojik, eron, ozarbayjon, hind, afg‘on, o‘zbek va boshqa xalqlar bu adabiyot ravnaqiga o‘z hissasini qo‘shdi.

Buxorolik Daqiqiy qahramonlik eposi – «Shohnoma» yozishga kirishdi, Tuslik Abulqosim Firdavsiy uning boshlagan ishini oxiriga yetkazib, o‘lmas «Shohnoma»sini yozdi. Ulug‘ ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy xamsachilikka asos solib, besh bebaho doston yozdi. Xamsachilik an’anasi hind shoiri Xisrav Dehlaviy, tojik shoiri Abdurahmon Jomiy va o‘zbek mumtoz shoiri Navoiy tomonidan katta muvaffaqiyat bilan davom ettirilib, rivojlantirildi; natijada xamsalar vujudga keldi.

Ro‘dakiy, Daqiqiy, Nosir Xisrav, Umar Xayyom, Kamol Xo‘jandiy, Abdurahmon Jomiy (Movarounnahr, Xuroson va Xorazm), Sa’diy Sheroziy (Eron), Nizomiy Ganjaviy (Ozarbayjon), Xisrav Dehlaviy, Hasan Dehlaviy (Hindiston) va boshqalardan har biri ma’lum bir xalqning mumtoz

shoiri bo‘lishi bilan birga, ayni zamonda fors-tojik adabiyotini vujudga keltirgan boshqa xalqlarning ham klassiklari qatoridan o‘rin olib, ularga manzur bo‘ldi, fors-tojik adabiyoti buyuk san’atkori sifatida yuksak baholandi

Badiiy adabiyotning yirik namoyandalaridan biri Abulqosim Firdavsiydir. Uning nomi jahonga mashhur. Uning Yevropa kitobxonlari qalbini maftun etganiga ham ikki asrdan oshdi. Sharqda esa u ming yildan beri kishilar zavqi-shavqini qo‘zg‘ab, fikru o‘yi, orzu umidlariga madad berib kelmoqda. Shoirga boqiy umr, nomiga bezavollik baxsh etgan asar uning «Shohnoma»sidir. «Shohnoma» dunyodagi ko‘pgina tillarga to‘liq yoki qisman tarjima qilindi. Uning dostonlari asosida musiqa asarlari, drama va librettolar yozildi, kinofilmlar qo‘yildi, tasviriy san’at asarlari yaratildi.

«Shohnoma» qariyb to‘rt ming yilni tashkil qiluvchi juda katta tarixiy davrni o‘z ichiga oladi. So‘nggi bo‘limda ifodalangan 500-700 yillik tarixiy voqealar g‘oyat katta aniqlik va izchillik bilan tasvirlanadi.

Firdavsiy o‘zining bu ajoyib asarini yozib tamomlagan vaqtda, o‘z ichki qarama-qarshiliklari natijasida zaiflashgan somoniylar davlati qoraxoniylar va g‘aznaviylar hujumiga bardosh berolmay yemirilgan edi. Qarib qolgan shoir umrining eng yaxshi davrini sarf qilib yozgan bu asarini tortiq qilish uchun munosib kishi qidirib yigirma yilcha kutganini ko‘rsatib:

Poyonsiz chekib ranj bisyor yil,
Bu ishni tugatgan hamon shod dil.
Vale baxsh etarga munosib odam,
Topilmay,dilimni bosib qayg‘u g‘am.
Yigirma zimiston, yigirma bahor,
Qidirdim bu ganjga loyiq tojdor,-

deydi va ortiqcha kutishga toqati qolmagan paytda G‘aznada Mahmud shohning taxtga o‘tirganini yozadi. Rivoyatlarda aytilishicha, ulug‘ shoir butun umrini sarflab yozgan shoh asarining qadriga yetmagan Mahmud shoh, go‘yo, va’da qilingan oltinlar o‘rniga kumush tangalar bergan emish.

Jahon adabiyotining shoh asari bo‘lgan «Shohnoma» mana ming yildan beri sevilib o‘qilmoqda. Bunday muvaffaqiyatga sabab – uning xalqchilligida, unda xalq orzu-umidlari tarannum etilganligidadir.

«Shohnoma»dagi odil shohlar obrazi, yorlariga haqiqiy do‘st, vatanlariga sodiq fidoyi xotinlar obrazi va shunga o‘xshash dostonlardagi ajoyib xislatlar bu kitobni chinakam xalq mulkiga aylantirib yuborgan.

“Shohnoma”da ellik podsholik tasvir etiladi va dostonning kompozitsion qurilishi shu bilan belgilanadi. Bunda ba’zi shohliklar bir necha yil davom etgan bo‘lsa, ba’zilari necha yuz yillab davom etadi. Ba’zilariga shoir 10-20 bayt bag‘ishlasa, ayrimlariga minglab baytlardan iborat dostonlar bag‘ishlaydi. Masalan, Suhrob haqidagi ming baytdan ortiq doston, Siyovush haqidagi uch ming baytdan ortiq doston, Kaykovus shohligi davridagi voqealarni o‘z ichiga olsa, bir necha ming baytdan iborat bo‘lgan Isfandiyor haqidagi doston Gushtasp shohligi davrining bir qisminigina tasvirlaydi. Har bir shohlik davrining tavsifi ham, har bir doston ham «Shohnoma» uchun qonunlashtirilgan uslubda yozilgan bo‘lib, ularning har biri debocha, asosiy qism va xotimadan iborat. Barcha o‘rta asr adabiyotida bo‘lganidek, «Shohnoma»da ham qissa muallif tilidan olib boradi.

«Shohnoma» qadim qabilalar to‘qigan afsonalar, qahramonlik dostonlarini va Eron, Markaziy Osiyoning Iskandar Zulqarnayn davridan tortib to arablar bostirib kelguncha, oxirgi sosoniylar shohi Yazgird 111ning o‘limigacha (651 yil) bo‘lgan tarixini o‘z ichiga oladi. «Shohnoma»ning o‘zida ko‘rsatilgan tarixga qaraganda ham u to‘rt ming yilga yaqin voqealarni aks ettirgan ulkan solnoma.

«Shohnoma»ning bosh g‘oyasi – vatanni ulug‘lash, xalq qudratini ko‘z-ko‘z qilishdir, xalq bahodirlarini vasf etishdir.

Firdavsiy badiiy ijodi shuhratining siri nimada? Buning siri ularda shoir kishi qalbini, uning nazokatini, hayot mantig‘ini, inson qalbi bilan real hayot o‘rtasidagi munosabatni ajoyib obrazlarda juda yorqin tasvirlab bera bilganidadir. Shuning uchun ham uning ijodi umumbashariyat badiiyot bog‘ining so‘lmas chechaklaridan biri bo‘lib qoldi.

VIRTUAL IJTIMOIY TARMOQ XULQINING SOTSIOPRAGMATIK RIVOJLANISHI

Shahlo Shuxratovna XASANOVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti
Ingliz tili o‘qituvchisi
Email: xasanovash_1991@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada ingliz tilini o‘rganuvchilarga o‘z so‘zlari kontekstini tushunish, o‘z tinglovchilari bilan aniq muloqot qilish va nutq uslubi, pozitsiyasi va chastotasini o‘rganish yoritib berilgan. Ushbu pragmatik kompetensiyani rivojlantirish va ijtimoiy tarmoqlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lish uchun o‘quv kursiga qabul qilingan ingliz tili fanlari mutaxassisliklarini o‘rganish maqsadida so‘rovnoma olib borilgan. Instagram va Telegram pragmatikani takomillashtirish uchun eng mashhur ijtimoiy tarmoqlar hisoblandi. Ijtimoiy tarmoqlarda esa eng keng tarqalgan pragmatik bilim nutq harakatlari, mehribonlik va so‘zlashuv ta’siriga tegishli .

Kalit so‘zlar: pragmatik kompetentsiya, ijtimoiy tarmoqlar, ingliz tili talabalari, tilshunoslik, semantika.

Аннотация: Статья учит изучающих английский язык тому, как понимать контекст своих слов, четко общаться со своей аудиторией, а также узнавать стиль, позицию и частоту речи. Для развития этой прагматической компетенции и взаимодействия с социальными сетями был проведен опрос среди изучающих английский язык специальностей, поступивших на курс обучения. Instagram и Telegram считались самыми популярными социальными сетями для улучшения прагматики. В социальных сетях наиболее распространены прагматические знания, касающиеся речевых действий, доброты и разговорных эффектов.

Ключевые слова: прагматическая компетентность, социальные сети, изучающие английский язык, лингвистика, семантика.

Abstract: The article teaches English language learners how to understand the context of their words, communicate clearly with their audience, and recognize style, position, and frequency of speech. To develop this pragmatic competence and interaction with social networks, a survey was conducted among English language majors enrolled in the course. Instagram and Telegram were considered the most popular social networks for improving pragmatics. In social media, the most common pragmatic knowledge concerns speech acts, kindness, and conversational effects.

Keywords: pragmatic competence, social networks, English language learners, linguistics, semantics.

So‘nggi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarning o‘sishi dunyoning hamma joylarida odamlarning hayotiga katta foyda keltirdi. Muallif Friedmanning so‘zlariga ko‘ra, “Dunyo tekis” davrida ijtimoiy tarmoqlarning afzalliklarini hamma ko‘rishi mumkin [3,2009]. Ijtimoiy tarmoqlar a’zolari foydalanadigan ko‘plab afzalliklarga qo‘shimcha ravishda, ma’lumotlarga tezkor kirish va doimiy yangilanadigan kontentning boyligi, ko‘ngilochar imkoniyatlarning keng doirasi mavjud. Bog‘lanish kuchi odamlar, jamoalar va millatlarning bir-biriga munosabatini tubdan o‘zgartiradigan qo‘shimcha muhim jihatdir. Natijada, ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarning muloqot qilishlari, almashishlari va ma’lumotlar olishlarini osonlashtiradigan ko‘plab funktsiyalari tufayli mashhurlikka erishdi. Bundan tashqari, talabalar uchun ijtimoiy tarmoqlarning afzalliklari va qo‘llanilishini o‘rganish hozirgi sanoat inqilobi 4-avlod davrida, ayniqsa, yoshlarning ta’lim va tarbiyasini yaxshilash bo‘yicha chuqur takliflar berishi mumkin. Bir qator mahalliy nashrlar, xususan, ijtimoiy tarmoqlarning tez rivojlanishi va tilshunoslik va inglizshunoslik yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarga umuman ingliz tilini, xususan, pragmatikani egallashga yordam berishdagi funksiyasini ta’kidlab o‘tadi.

Nguyen [6,2006] talabalarga berilgan ma’lumotnomada, internetdagi tegishli qidiruv sahifalari va uzoq muddatli o‘rganish usullari kabi amaliy manbalar bilan ta’minlash orqali oliy ta’lim sifatiga ustuvor ahamiyat berish muhimligini ta’kidladi. Dao Xuan Phuong Trang va Nguyen Minh Tri [2,2001]ning fikriga ko‘ra, loyihalar orqali chet tillarini o‘rganishni baholash uchun

ijtimoiy tarmoqlarni integratsiyalash jarayoni o‘quvchilarning qobiliyatlarini oshiradi va ularning o‘rganish va tanqidiy fikrlash qobiliyatini, shuningdek, o‘z-o‘zini anglash ruhini oshiradi va chet tillarini o‘rganish va o‘rgatishga qiziqishni kuchaytiradi. Bleyk ta’kidlaganidek, “texnologiya o‘quvchilarning turli xil haqiqiy materiallarga elektron ta’sirini kuchaytirish orqali tilni o‘zlashtirishni rivojlantirishda muhim rol o‘ynashi mumkin” [1,1998 pp. 209-237].

Pragmatika– til kabi semiotik tizimning tuzilishi va uning kontekstda qo‘llanilishi o‘rtasidagi munosabatni o‘rganuvchi fan. U semantika bilan bir qatorda ma’no nazariyasining bir qismidir. Pragmatika taxminiy va taxmin qilingan kontekstlarga nisbatan yashirin ma’no, xulosa va til tuzilishini tekshiradi. Pragmatika umumiy tilshunoslik nazariyasining muhim jihati bo‘lib, uning o‘ziga xos predmeti, boshqa til hodisalari uchun potentsial tushuntirishlar va hozirgi grammatik nazariyaning haddan tashqari idealizatsiyasiga munosabati tufayli. Pragmatika falsafa, tilshunoslik, psixologiya va til sotsiologiyasi g‘oyalariga tayangan holda ko‘p tarmoqli e’tiborni qozondi. Zamonaviy semiotika “pragmatika” atamasini C.S.Pirs va R.Karnaplarning falsafiy ishlariga nisbatan ishlatadi. Bu C.Morrisning [5, 1938] ishora tizimlarini, jumladan sintaksis, semantika va pragmatikani o‘rganuvchi semiotikaning uchta bo‘limida o‘z aksini topgan.

Navoiy innovatsiya universiteti 135 ta ingliz talabalari o‘ratasida o‘tkazilgan so‘rovnoma o‘tkazilganda, o‘zlarining pragmatik bilimlarini oshirish uchun ijtimoiy tarmoqlardan qay darajada foydalanishlari tadqiq qilindi. Umumiy statistik ma’lumotlarni olib qaraganda, ijtimoiy tarmoqlarda pragmatik o‘rganish uchun bir soat vaqt o‘tkazgan talabalar umumiy ko‘rsatkichning 56 foizini, ikki soat davomida o‘qiganlar esa 24 foizni tashkil etgan. Bundan tashqari, o‘quvchilarning 10 foizi uch soat davomida o‘qigan. Biroq, talabalarning atigi 6 foizi ijtimoiy tarmoqlarda pragmatikani o‘rganish uchun 3 soatdan ko‘proq vaqt sarflagan. Talabalar ijtimoiy tarmoqlarda pragmatikani o‘rganish uchun bir soatdan uch soatgacha vaqt sarflashadi, bu esa o‘rganish uchun qimmatli davr bo‘lishi mumkin.

1-jadval: Talabalar odatda pragmatikani o‘rganish uchun foydalanadigan manbalar

Talabalar foydalanadigan ijtimoiy tarmoqlar	**Talabalarning soni**	**Foiz (%)**
Instagram	57	43.1
Telegram	36	27.2
Youtube	18	13.6
Facebook	9	6.8
Tiktok	3	2.2
Twitter	3	2.2
Snapchat	0	0
Boshqalar	9	6.8

1-jadvalda talabalar tomonidan pragmatikani o‘rganish uchun foydalaniladigan odatiy manbalar tasvirlangan. Ushbu ko‘rsatkich talabalarning 43.1 foizi pragmatika bo‘yicha asosiy ma’lumot manbai sifatida “Instagram”ga tayanadi. Undan keyingi o‘rinda 27.2 foizni tashkil etgan “Telegram” joylashgan. Youtube va Facebook kamroq ommalashgan, farqli ravishda 13.6 va 6.8 foiz. Bundan tashqari, o‘quvchilarning 2.2 foizi ma’lumot qidirish uchun “Twitter” va “Tiktok” dan foydalanadi, bu umumiy ko‘rsatkichning kichik foizini tashkil qiladi. Shuningdek, talabalar o‘rtasida pragmatikani o‘rganish uchun ommalashmagan “Snapchat” dan foydalanilmagan, 6.8 foizi esa “gazetalar” va “ilovalar” kabi boshqa manbalardan o‘rganadilar.

Ba’zi odamlar pragmatik o‘rganish uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish samarasiz va vaqtni behuda sarflashiga ishonishadi. Biroq, odamlarning ozgina qismi bunga ishonishadi. Ijtimoiy tarmoqlar pragmatik o‘rganishni kuchaytirishda muhim rol o‘ynashda davom etmoqda. Ishtirokchilar ijtimoiy tarmoqlar orqali pragmatik bilimlarga ega bo‘lishdi, jumladan, “Presupozisiya”, “Suhbat implikaturasi”, “Nutq harakatlari”, “Baxtlilik holati”, “Ijro va

konstativlik”, “Odoblilik” va “Direktivlik”, “Odoblilik”, “Nutq aktlari” va “Suhbat implikaturasi” eng yuqori foizga ega.

Zamonaviy texnologiyalar talabalarning ijtimoiy tarmoqlar orqali pragmatikani o‘rganishi va tushunishini oshiradi. Ijtimoiy media platformalari har doim ham ishonchli ma’lumot manbalari emas, shuning uchun talabalar o‘qishlarini to‘ldirish uchun ishonchli manbalar yoki veb-saytlarni izlashlari kerak. Tadqiqotchilarning fikricha, maktablar va ta’lim muassasalari ijtimoiy tarmoqlardan ko‘ra ishonchli ta’lim beruvchilardir. O‘qituvchilar pragmatikaning ma’nolari, funktsiyalari va ta’riflarini o‘quvchilarga aniq yetkazish uchun zamonaviy o‘qitish usullaridan foydalanadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Blake, R. (1998). The role of technology in second language learning. In H. Byrnes (Ed.), Learning foreign and second languages: Perspectives in research and scholarship (pp. 209-237). New York: Modern Language Association.
2. Đào Xuân Phương Trang, Nguyễn Minh Trí (2021). Ứng dụng mạng xã hội trong đánh giá việc học ngoại ngữ https://www.researchgate.net/publication/348304629_USING_SOCIAL_NETWORKING_AS_AN_ASSESSMENT_TOOL_IN_EFL_CLASSROOM
3. Friedman, T. L. (2009). The World Is Flat: A Brief History of the Twenty-First Century. Distributed by Paw Prints/Baker & Taylor
4. Hoffman, E. S. (2009). Evaluating social networking tools for distance learning. Proceedings of the 2009 Technology, Colleges, and Community (TOC) Conference. Retrieved from http://etec.hawaii.edu/proceedings/2009/hoffman.pdf
5. Morris, C. (1938). Foundations of the theory of signs. Chicago: Oxford University Press. Nguyễn Thị Tâm (2006): http://enews.agu.edu.vn/index.php?option=com_content&view=article&id=1879&Itemid=117
6. Nguyễn Thị Tâm (2006): http://enews.agu.edu.vn/index.php?option=com_content&view=article&id=1879&Itemid=117

O‘RTA ZARAFSHON VOHASI ZIYORATGOHLARIDAGI EPIGRAFIK MANBALAR “IMOM BAHRA OTA” MAQBARASI MISOLIDA

Savriyev Jasur Faxriddinovich
Navoiy Innovatsiyalar Universiteti o‘qituvchisi
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)v/b.dots.
+99890 647 20 26 savriyevjasur71@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada DobusqaL’a arxeologik yodgorligi va uning janubi-g‘arbiy qismida joylashgan XVI-XVII asrlarga oid “Imom Bahra ota” maqbarasi va uning atrofidagi qabrtoshlardagi bitiklar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: DobusqaL’a, Ark, yodgorlik, ziyoratgoh, maqbara, qabrtosh, “Imom Bahra ota”, suls xati, marmartosh.

Аннотация: В статье описаны археологический памятник Добускала и мавзолей Имама Бахра оты XVI-XVII веков, расположенный в его юго-западной части, и надписи на окружающих надгробъях.

So‘zlardagi mazmuniy bog‘lanishlarining turlari, so‘zlarning ma’nolari orasidagi aloqalar, so‘zlarni birlashtirish tizimiga ko‘ra tezauruslar uchta guruhga ajraladi:

a) Ideografik tezauruslar.
b) Analogik tezaurus
c) Assotsiativ tezaurus.

Biz asosan Ideografik tezauruslar haqida gaplashamiz, ularni quyidagicha bo‘lgan asosiy ko‘rinishlariga ajratib olamiz:

1. Shaxsiy ideografik tezaurus lug‘atlari;
2. Tematik tezaurus lug‘tlari;
3. Sistematik tezaurus lug‘atlari;
4. Tematik-sistematik tezaurus lug‘atlari, bu lug‘atni I.Burxanov shunday nomlagan.

Shaxsiy ideografik tezauruslar – ideografik turdagi lug‘atlarning alohida ko‘rinishi bo‘lib, uning katta strukturasi tilning leksik tarkibiga bog‘langanligiga mos ko‘rinishda shakllangan. Shaxsiy ideografik tezauruslar boshqa ideografik lug‘atlardan farqli o‘laroq qat‘iy tartibli darajalanish tuzilmasi bilan ifodalanadi shuningdek, ilmiy taksonomiya asosida ishlab chiqiladi.

Tematik tezaurus – ideografik tezaurusning alohida ko‘rinishi bo‘lib, makrostrukturaning asosiy birligi, leksemalarning denotatlari darajalanishi asosida birlashtirilgan va ma’lum mavzuga mos ravishdagi nuqtayi nazardan kelib chiqib muhokama qilinuvchi leksemalarni o‘z ichiga oladigan majmuadir.

Tematik tezaurus lug‘atlar boshqa tilda so‘zlashuvchilar ehtiyojini qondirish maqsadida ishlab chiqiladi, sinoptik kartaning mavjudligi ixtiyoriydir. Bunday lug‘atlardagi mavzular foydalanuvchilarning muloqot kengligidagi qiymati darajasiga ko‘ra belgilanadi.

Sistematik tezaurus – bunday lug‘atlar ideografik tezauruslarni o‘ziga xos ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, ularni guruhiy tuzilmasi tilning leksik birliklari orasida mavjud bo‘la oladigan haqiqiy ma’noviy munosabatlarni ko‘rsatishga mo‘ljallangan. Darajalash qatori o‘z ma’nosiga ko‘ra vokabulyarni leksik-grammatik darajalanishini aks ettiradi, umuman olganda, darajalanishning bo‘ysunish nuqtayi nazaridan aks ettirilgan paradigmatik tuzilmasini ko‘rsatdi.

Tematik-sistematik tezaurus –sistematik va tematik lug‘atlarning birikishidan hosil bo‘ladigan idiografik lug‘atlarning alohida ko‘rinishidir.

Analogik tezaurus – bu o‘xshatishga asoslangan tezaurus lug‘at bo‘lib uni ikki turga bo‘lib olamiz.

1.Shaxsiy analogik tezaurusli lug‘atlar;

2. Antonimlar / sinonimlar / lug‘ati.

Leksik-semantik guruhlarning cheklanishini o‘sha guruhlarning ayrim qiymatlari bo‘yicha yoki guruhdagi so‘zning butun ma’noviy hajmi bo‘yicha amalga oshirilish mumkin. Bir xildagi ma’nolarni ifodalovchi yoki bir xil ma’noviy munosabatda bo‘ladigan so‘zlar, hajmi jihatidan leksik-semantik guruhlardan ko‘ra kichikroq bo‘ladigan sinonimik guruhchalarni tashkil etadi.

Demak, leksemalarning birgina sinonimik-antonimik munosabatlarinigina ko‘rsatuvchi lug‘atni analogik tezaurus ya’ni, sinonimlar, antonimlar lug‘atining bir ko‘rinishi, deyish mumkin. Olim Y.N.Karaulovning fikrlariga tayanib, assotsiativ tezauruslarning o‘zini ham yana kichik guruhlarga ajratish mumkin:

a) Bir ko‘rinishli assotsiativ lug‘atlar.
b) Shaxsiy assotsiativ tezaurus.

Bunday bir ko‘rinishli assotsiativ lug‘atlarning boshqa tezaurus-assotsiativ lug‘atlardan quyidagicha farqlari bo‘lishi mumkin.

1. assotsiativ lug‘atlarda rag‘batlantiruvchi omillar 100-200 ga yaqin; assotsiativ tezauruslarda esa 1000 ta atrofida bo‘lishi mumkin.

2. oddiy assotsiativ lug‘atlar rag‘batlantiruvchi omillarni bir marta aks ettiradi;

Tezaurusda so‘zlar o‘rtasidagi semantik-ma’no bog‘lanishlar, antonimlar, sinonimlar, giponimlar, giperonimlar, guruhlar orqali ifodalanadi:

Sinonimlar–yozilishi har xil, ma’nosi bir-biriga yaqin so‘zlar (so‘z birikmalari): masalan: *ishchan-chaqqon*.

Antonimlar – qarama-qarshi ma’noli so‘zlar: *yaxshi-yomon*.

Giponim – boshqa umumiy tushunchaning xususiy hodisasi bo‘lgan atama.
Vaxshiy-giponim (*mahbus*); *inson*-giperonim (*mahbus*).

Giperonim – boshqa qator shaxsiy tushunchalar uchun umumiy bo‘lgan atama. Giponim (*ovqatni shirin pishiradi*)-giponim (*uyini toza tutadi*), giponim (*tikishni biladi*)-bu xususiyatlar umumlashtirganda *yaxshi uy bekasi* giperonimi ostida birlashadi.

Davlat standartlariga javob beradigan, ko‘pgina davlatlarda qo‘llanadigan “Bir tildagi axborot-qidiruv tezaurusi”da bog‘lanishlarning quyidagi ko‘rinishlari belgilangan:

–jins-tur: *turar joy inshootlari-uy, chodir,* o‘tov*;* bu misollarda, zot sifatida *turar joy inshoatlari* olinsa, uning turlari sifatida-*uy, chodir,* o‘tov va b. olinadi;

– qism-butun: tana *so‘zi* butun sifatida olinsa, *qo‘l, oyoq, yuz* uning qismlarini ifodalaydi;

– sabab-oqibat: *ko‘p siqildi – xafaqonga chalindi* gapida *ko‘p siqildi* sabab bo‘lsa, *xafaqonga chalindi* uning oqibati sifatida yuzaga chiqadi;

– xomashyo – mahsulot: *kumush soat*, ya’ni *kumushdan tayyorlangan soat*;

– ma’muriy iyerarxiya: *hokim – o‘rinbosar – xodim*;

– jarayon – subyekt: *tahsil olmoq– talaba*;

– jarayon – obyekt: *tahsil olmoq – kurs, bosqich*;

– xususiyat – xususiyat tashuvchisi: *yorituvchi – oy*;

– antonimiya – *yaxshi – yomon*;

– sinonimiya – *odobli, aqilli;*

Uyushgan munosabatlar boshqa, iyerarxik munosabatlarga yoki sinonimik (ya’ni, so‘zlar orasidagi bog‘lanishlarning har qanday ko‘rinishlari, faqatgina ma’lum bir fan sohasida mavjud bo‘ladigan) munosabatlarga kirmaydigan tizim umumlashmasidir.

Tezaurus o‘ziga xos juda murakkab lug‘at sanaladi. Shunday ekan bir ikki kishigina uni amalga oshira olmaydi. Tezaurus tuzish uchun o‘nlab, balki undan ham ko‘proq mutaxasislarning ishtiroki talab qilinadi. Buning uchun tilshunoslar, mantiq ilmi mutaxassislari, hamda lug‘atshunos olimlardan iborat ijodiy guruh tashkil etilishi lozim. Shundagina zamon talablariga javob bera oladigan o‘zbek tilining mukammal tezaurusi yaratiladi.

Demak, hozirgi o‘zbek adabiy tilining asosiy muammolaridan biri bu o‘zbek tilidagi tezaurusli lug‘atlarni yaratish ekan. Bizningcha bunday lug‘atlardan biri bu, o‘zbek tilidagi fe’l-atvor leksemalarining tezaurusli lug‘atini yaratishdir. Bunday lug‘atni tuzishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

Fe’l-atvor leksemalarini o‘rganib chiqish;

Fe’l-atvor leksemalarining mavzuviy guruhlarini aniqlashtirish;

Fe’l-atvor leksemalarining ma’noviy xususiyatlarini aniqlash;

Fe’l-atvor leksemalarining giponimiyasini yoritish;

Fe’l-atvor leksemalarining sinonimiyasini o‘rganish;

Fe’l- atvor leksemalarining tezaurusini tuzishning tamoyillarini ishlab chiqish.

Chunki, bunday leksemalarni atroflicha o‘rganish tilimiz, xususan, leksikamiz sir- asrorlarining yangi-yangi qirralarini ochish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1.A.Hojiyev Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. –T.:

2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – B.154.

3.S.N.Yusupov Tezaurus i zakonodatelstvo (K sozdaniyu obshepravovogo tezaurusa) // Gosudarstvo i pravo. – 1978. – №5. – S.115.

4.Осокина Светлана Анатольевна “ОСНОВАНИЯ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ТЕОРИИ ТЕЗАУРУСА” Барнаул – 2015

5.Н.В.Лукашевич “Тезаурус в задачах информационного поиска” Москва - 2010.

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI OTNING MORFOLOGIK KATEGORIYALARI FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARINI QIYOSIY TAHLILI

Furkatova Maxliyo To‘lqin qizi,
SamDu doktoranti, 978913371,
furkatovamaxliyo@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda turkiy va roman-german tilshunosligini, xususan o‘zbek va ingliz tillari miqyosida qiyoslash va ular asosida yangi tushunchalarni hosil qilish, o‘sha tillarni o‘rganishda vujudga keladigan grammatik muammolarni hal qilish borasida ilmiy ish olib borilgan.

Kalit so‘zlar: morfologiya, oppozitsiya, transformatsion birlik, kategoriya, suffikslar

Ma’lumki, har ikki tilda shaxslarning nomi, narsa-buyum atamasi bo‘lgan so‘zlar turkumi ot deyiladi. Ammo quyida har ikki tildagi ot so‘z turkumi haqida kengroq to‘xtalib o‘tamiz va ular o‘rtasidagi ko‘plab farqli va o‘xshash jihatlarni ko‘ramiz. Buni otning asosiy belgilari, ya’ni ot so‘z turkumini boshqa so‘z turkumlaridan yaqqol ajratib ko‘rsatadigan tashqi struktur, leksik-grammatik kabi belgilaridan boshlaymiz. Bunga ko‘ra ingliz tilida asosiy uchta – morfologik belgilar, sintaktik belgilar va leksik-grammatik belgilarga ajratamiz.

1. Morfologik belgilar o‘z nomidan ma’lum otning Grammatik kategoriya shakllarini yasovchi morfema va morfema variantlaridan tashkil topadi. Son kategoriyasida ko‘plik yasovchi –s, - en (books, phones, pencils, oxen) va boshqa qo‘shimchalar (-es, a, -ies), kelishik kategoriyasidan egalik kelishigini yasovchi apostrofli –‘s ni (Malika’s, father’s, cat’s) misol sifatida ko‘rsatishimiz mumkin. Xuddi shu holat o‘zbek tilida ham mavjud bo‘lib, bunda ko‘plik qo‘shimchasi – lar va kelishik kategoriyasidagi qaratqich kelishigi formasi -ning faqat ot so‘z turkumiga emas, predmetlik ma’nosini bildiruvchi boshqa so‘z turkumlariga ham otlashganda ot vazifasida kelganda ishlatiladi: *Birinchilardan, qizillarga, uxlamaganlar uchun, ularning, ikkinchimning.*
2. Sintaktik belgilari otlar boshqa so‘z turkumidagi so‘zlar bilan munosabatga kirishgada yaqqol namoyon bo‘ladi. Ingliz tilida bu belgilarga artikl (a,an, the book), sifat (a big, small pen), sifatdosh (a bored boy), son (2, 3,5 people), ko‘rsatish (this, these, those, that boy), gumon (some, any, no pen), egalik (my, his, her, their, our, your book) va boshqa turdagi olmoshlar kiradi. O‘zbek tilida artikldan tashqari yuqoridagilarning barchasi mos keladi. Misol uchun, katta bayram (sifat), o‘qigan bola (sifatdosh), 4ta qizlar (son), mana bu bola (ko‘rsatish olmoshi), mening kitobim (kishilik olmoshiga qaratqich kelishigi qo‘shilganda), bir qancha kitoblar (faqat buyerda ingliz tilidagidek gumon olmoshi emas ravish so‘z turkumi sifatida kelayapdi).
3. Asosan ot yasovchi qo‘shimchalar leksik-grammatik belgilariga kiradi. Unda ot yasovchi suffikslarni ko‘rishimiz mumkin. Ingliz tilida:

Writer – er	assistant – ant	robbery – ry
Alteration – tion	denial – al	friendship – ship
Development – ment	preference – ence	darkness – ness

O‘zbek tilida ham otlar affiksatsiya yo‘li bilan yasaladi. Ammo ingliz tilidagi suffikslardan bir farqi ot yasovchi qolipning aksariyati ko‘p ma’noli bo‘lishidadir [R.Sayfullayeva va boshqalar., 2009. – S.221.].

- Sportchi – chi – kasb, mutaxassislik bilan shug‘ullanuvchi shaxs ma’nosida;
- Xabarchi – chi – asosda anglashilgan ish bilan shug‘ullanuvchi shaxs oti ma’nosida;

- Respublikachi – chi – biror maslak oqim tarafdori ma’nosida va boshqalar.

Boshqa ko‘plab qo‘shimchalarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

Tajavuzkor – kor	zambilkash – kash	kitobxon – xon
Qayg‘udosh – dosh	otalik – lik	olmazor – zor
O‘tloq – loq	namgarchilik –chilik	savdogar – gar

Hozirgi ingliz tilida otlarni semantik jihatdan ajratganimizda ularni jonli, jonsizlik, yakkalik va umumiylik kabi turlarga bo‘lishimiz mumki. O‘zbek tilida esa otlar ma’no jihatidan atoqli otlar va turdosh otlarga bo‘linadi, ammo jonli jonsizlik tamoyili bu tilda mavjud emas [N.Turniyozov va boshqalar., 2006. – S.71]. Bunda quyidagi semantik xususiyatlar inobatga olingan holda otlar klassifikatsiyalanadi:

a). Bir turdagi predmetlardan birining nomini yoki shu turdagi predmetlarning umumiy nomini bildirishiga ko‘ra;

b). Kim yoki nima so‘zlariga bo‘lgan munosabatiga ko‘ra;

d). Sanalaish yoki sanalmasligiga ko‘ra.

O‘zbek tilidagi turdosh va atoqli otlarni ingliz tilidagi yakkalik va umumiylik tamoyiliga moslashimiz mumkin. Bunda ingliz tilida yakkalik va umumiylik jihatidan turdosh otlar (common nouns) va atoqli otlar (proper nouns)ga bo‘linadi. Buranovning “Ingliz tili grammatikasi” o‘quv qo‘llanmasida turdosh va atoqli otlarga quyidagicha ta’rif berilgan: “Inson, hayvonot, umuman tirik mavjudot va boshqa aniq yoki mavhum tushunchalarning umumlashtiruvchi nomlari turdosh ot sanaladi. Ularga book, pen, tree, grass, class, phone kabi so‘zlarni misol keltirishimiz mumkin. Atoqli otlar esa yakka predmet, ma’lum shaxs, maxsus joy yoki hodisa nomlarini anglatadi: Makhliyo, Grand Sultan, Russia, United Nations” [J. Bo‘ranov va boshqalar., 1974. – S.11.]. Ularning asosiy leksik-grammatik ko‘rsatkichlariga artikllar, ko‘plik qo‘shimchasi kabilar kiradi. Misol uchun atoqli otlar ko‘plik qo‘shimchasi bilan kelmaydi, turdosh otlarda qo‘shiladi va ko‘plik ma’nosini beradi. Atoqli otga ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shilganda ham u turdosh otlarga o‘zgarishi mumkin. Misol uchun *Furkatova (shaxsning familyasi) – the Furkatovas (turdosh ot – Furkatovalar oilasi ma’nosida).* O‘z navbatida turdosh ot hma atoqli otga aylanishi mumkin. Bunda ko‘pincha oddiy so‘zlar mehmonxona, kinoteatr, jurnal, gazeta nomi, futbol komandalarining nomi bo‘lib kelganda yuzaga chiqadi: *times (marta ma’nosida) – Times (gazeta nomi).* O‘zbek tilidagi atoqli otlar barcha narsa va shaxslarni nomlariga nisbatan ishlatiladi. Bir turdagi narsa yoki hodisalarning birini ajratib ko‘rsatish bu kabi otlarga xosdir. Ingliz tilidan farqli ravishda atoqli otlar tub va yasama turlarga ham bo‘linadi. Misol uchun, *Maxliyo, Firuz, Kumush* tub atoqli otlar bo‘lsa, *Shohimardon, Oqtepa, Tepalik* kabilar yasama atoqli otlardir. Yana bir farqli jihati, o‘zbek tilidagi atoqli otlarning asosiy qismi turdosh otlardan olinadi va yana ba’zilari ot so‘z turkumidan tashqari boshqa so‘z turkumlari doirasidan ham kelib chiqadi. Masalan: *Keldiyor – fe’ldan, Asal – sifatdan, Oltmishboy – sondan* hosil bo‘lgan atoqli otlardir. Bu kabi so‘zlar o‘zining asl ma’nosidan cheklangan holda ma’lum bir joy yoki shaxs nomi sifatida qaraladi: *Uchquduq* – o‘sha joyda 3ta quduq yo‘q, shunchaki joy nomidir [N.Turniyozov va boshqalar., 2006. – S.70]. Bundan tashqari, atoqli otlar ko‘plik qo‘shimchasi bo‘lmish – lar ni olmaydi, ammo qo‘shilib kelsa ham jamlanish, guruh va hurmat ma’nolarini anglatib keladi. *Firuzlar keldi* (jamlanish, guruh ma’nosida, Firuz va uning oila a’zolari).

Ingliz tilidagi turdosh ot aniq (Concrete nouns) va mavhum (Abstract nouns)ga bo‘linadi. Aniq otning o‘zi yana 1) yakka otlar (Class nouns), 2) jamlovchi otlar (Collective nouns), 3) modda va sanalmaydigan narsalarni bildiruvchi otlar (Nouns of Materials or Mass nouns). Ulardan yakka otlar biror bir guruhning namunasi sifatida donalab sanalish xususiyati bilan ajralib turadi va ularga quyidagilar kiradi: *orange – apelsin* (mevalar guruhidan namuna sifatida keltirilyapdi), *rose – atirgul* (gullar guruhidan namuna), *table – stol* (uy-ashyolari guruhidan namuna). Jamlovchi otlar

barcha narsa va shaxslarni to‘dasini, guruhini va galasini ifodalaydi. *Family – oila, team – jamoa, people – xalq* va boshqalar. Modda yoki sanalmaydigan otlarga esa suyuqliklar, juda mayda moddalardan tashkil topgan narsalar, ma’lum bir shaklga ega bo‘lmagan otlar kiradi. Masalan: *water – suv, rice – guruch, silver – kumush, cereal – dukkaklik boshoq, tea – choy.*

Mavhum otlar esa belgi, xususiyat, holat va harakat nomlarini o‘z ichiga olib, donalab sanalmaslik xususiyati bilan yaqqol ajralib turadi. Buni oddiy usul bilan qo‘limiz bilan ushlab bo‘lmaydigan, ko‘zimiz bilan ko‘rib bo‘lmaydigan umuman borliqda buyum holatida bo‘lmagan, ammo his qilsa bo‘ladigan ot deb ta’riflasak bo‘ladi. Ularga *love – sevgi, confidence – ishonch, sadness – xafalik, hesitation – ikkilanish, peace – tinchlik, happiness – baxt, fame and fortune –* mashhurlik va boylik kabilar kiradi [J. Bo‘ranov va boshqalar., 1974. – S.12.].

O‘zbek tilida ham turdosh otlar narsa yoki hodisalarning umumiy nomi sifatida ta’riflanib, atoqli, mavhum, jamlovchi va yakka, sanaladigan va sanalmaydigan otlarga bo‘linadi. Misollari va ta’riflari yuqorida keltirilgan so‘zlar bilan bir xil, ammo turlarga bo‘lish jarayoni farq qilib turadi. Ingliz tilida yakka, jamlovchi va sanalmaydigan otlar aniq otlarning qismiga kiritilgan bo‘lsa, mavhum otlar alohida bir tur sifatida ko‘rildi.

Semantik jihatdan tashqari otning funksional formalari ham bor. Bunga ko‘ra otlar o‘zbek tilida yasalish jihatdan 3 turga: sintetik, analitik, juft va takroriy formalarga bo‘linadi. Ularning har biri ham o‘z navbatida bir necha turlarga ajratiladi. Xususan, sintetik funksional formasiga kichraytirish, erkalash, hurmat, qarashlilik, o‘rin belgisi, chegara o‘xshatish kabi shakllar kiradi [Sh.Shoabdurahmonov va boshqalar., 1980. – S.242.]. Ularda kichraytirsh formasi o‘zbek tilida – cha, -choq (hovuzcha, toychoq) affikslari bilan kelsa, ingliz tilida ko‘pincha – ie va – ette (doggie, statuette) kabi qo‘simchalari bilan keladi [ma’lumot internetdan olindi – Collin definitiondan]. Erkalash formasiga o‘zbek tilida – jon, - xon, - oy (Maxliyoxon, Firuzjon) kabi affikslar bilan, ingliz tilida esa maxsus erkalash formalari mavjud emas. Hurmat ma’nosini o‘zbek tilida – lar qo‘shimchasi orqali ko‘rsak (ayamlarga salom ayting), ingliz tilida qo‘shimchalar yordamida emas, balki ma’lum bir so‘z va so‘z birikmalari yordamida (dear – aziz, hurmatli, mr, mrs – janob, xonim, your highness – janobi oliyalari) ifodalanadi. Qarashlilik esa – niki qo‘shimchasi bilan o‘zbek tilida, egalik ot olmoshi bilan (mine – meniki, yours – seniki, sizniki, sizlarniki, his, hers, its – uniki, buniki, ours – bizlarniki, theirs – ularniki) ingliz tilida hosil qilinadi. O‘rin belgisi o‘zbek tilida – dagi affiksi bilan, ingliz tilida bu belgi maxsus predloglar orqali (in, on, at – in the cinema - kinoteatrdagi) hosil qilinsa, chegara formasi o‘zbek tilida – gacha (- kacha, qacha) yordamida, ingliz tilida until, by so‘zlari bilan ifodalanadi. O‘xshtatish formasi – dek (-day) qo‘shimchasi bilan o‘zbek tilida, like, as, as if so‘zlari bilan ingliz tilida yoritiladi. Yuqoridagilardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, ingliz tili affikslarga boy emas va ko‘p belgilar, ma’nolar oddiy so‘zlar yordamida ifodalanadi. O‘zbek tilida qo‘shimchalar ancha murakkab va ko‘pchilik allomorfli bo‘lib (-gacha, -kacha, -qacha), barcha belgilarni ifodalashda faol qatnashyapdi [Sh.Shoabdurahmonov va boshqalar., 1980. – S.240.].

Otning analitik formasi o‘zbek tilida ko‘makchilar yodamida ifodalanadi va makon, vaqt, sabab, maqsad kabi ma’nolarini beradi: *qalam bilan, borgan sari, dadasi uchun, uy tomon.* Ingliz tilida bu hodisa predlog va shu tarjimalarni beruvchi so‘zlar orqali amalga oshiriladi va huddi shu ma’nolarni beradi: *with pencil, as something becomes, for father, toward the house.*

O‘zbek tilida juft forma umumlashtirish, jamlik (qovun – tarvuz, qozon – tovoq) ma’nolarini yetqazishda, takroriy forma esa asosan ko‘plik (ombor – ombor, qatra – qatra) ma’nosini ifodalaydi. Ingliz tilida esa maxsus juft va takroriy otlar mavjud emas. Ammo reduplikatsiya usulida hosil bo‘lgan so‘zlar qisman takroriy va juft so‘zlarga o‘xshaydi, biroq bunday so‘zlar ingliz tilida chegaralangan bo‘lib deyarli ot so‘z turkumida kuzatilmaydi: girly – girly (sifat), speak – speak (fe’l), mur – mur (taqlid so‘z), zig – zag (ot) [J. Bo‘ranov., 1973. – S.139.].

O‘zbek tilida otlar uch xil grammatik kategoriyalardan iborat. Ular son, egalik va kelishik kategoriyalari bo‘lib egalik kategoriyasidan tashqari doim ot bilan birga qo‘llaniladi. Misol uchun, o‘qituvchi so‘zi hech qanday grammatik aloqaga kirishmagan holatda ham birlik, bosh kelishikdagi ot hisoblanadi. Hozirgi ingliz tilida esa ot so‘z turkumida asosan ikkita grammatik kategoriya mavjud bo‘lib, ular son va kelishik kategoriyasidir. Egalik kategoriyasi har xil so‘z turkumlari, asosan, egalik kelishigi yordamida yoritiladi. Rod kategoriyasi ham ingliz tili nutqida he – o‘g‘il bolalar uchun she – qiz bolalar uchun it – jonsiz narsalar uchun kabi olmoshlar va ayrim suffikslardan (-ess, -ine, -trix, -ette ayollar uchun, -er, -or erkaklar uchun) tashqari keng tarqalmagani bois alohida kategoriya sifatida olinmagan. Ingliz tilida ham otning oddiy nol shakli birlik va bosh kelishik kabi grammatik kategoriyalarga ega va ular o‘z ichidagi boshqa grammatik kategoriyalar bilan qarama-qarshi qo‘yiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, o‘zbek va ingliz tillaridagi otlar semantik va funksional jihatdan bir-biridan ko‘p farq qilmaydi. Faqat ingliz tilidagi ba’zi bir ma’nolar o‘zbek tilida boshqa bir grammatik ot kategoriyasi orqali ifodalanar ekan. Buni anglash va tatbiq etish orqali o‘zbek tiliga qiziqayotgan va o‘rganmoqchi bo‘lgan, ikkinchi tili ingliz tili bo‘lgan barcha talabalarga qo‘l keladi degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova. Hozirgi O‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – T., “Fan va texnologiya”, 2009. – 416 b.
2. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Xojiyev, I.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi O‘zbek adabiy tili I qism. – T., “O‘qituvchi”, 1980. – 443 b.
3. N.Turniyozov, A. Rahimov, O‘zbek tili. O‘quv – uslubiy qo‘llanma. - Samarqand. 2006. – 147 b
4. J. Buranov, U. Hashimov, H.Ismatullayev, Ingliz tili grammatikasi. O‘quv qo‘llanma. – T., “O‘qituvchi nashriyoti”, 1974. – 351 b
5. J. Bo‘ronov. Ingliz va O‘zbek tillari qiyosiy grammatikasi. O‘quv qo‘llanma. – T., “O‘qituvchi nashriyoti”, 1973. – 279 b

O‘ZBEK TILI FAOL LEKSIKASINING YANGI O‘ZLASHMALARNI MILLIYLASHTIRISHDA TUTGAN O‘RNI

Xamrayev Fozilbek Yuldoshevich
Qarshi davlat universiteti doktoranti
Tel: +99891 5635788
e-mail: Xamrayev-fozil@mail.ru

ANNOTATSIYA Ushbu maqola o‘zbek tilidagi yangi o‘zlashma so‘zlarni milliylashtirish masalasiga bag‘ishlangan. Unda, avvalo, hozirgi o‘zbek tilining faol leksikasi, shuningdek, qardosh turkiy tillar tajribasi va o‘zbek tilida faol qo‘llanuvchi forscha va arabcha so‘zlar yangi milliy nomlar yaratish uchun eng muhim manba bo‘lib xizmat qilishi asoslab berilgan.

АННОТАЦИЯ Данная статья посвящена вопросу национализации новых заимствованных слов в узбекском языке. Прежде всего обосновано, что активная лексика нынешнего узбекского языка, а также опыт родственных тюркских языков и персидских и арабских слов, активно используемых в узбекском языке, служат важнейшим источником для создания новых национальных названий.

ANNOTATION This article is devoted to the issue of nationalization of new borrowed words in the Uzbek language. First of all, it is justified that the active lexicon of the current Uzbek language, as well as the experience of related Turkic languages and Persian and Arabic words

actively used in the Uzbek language serve as the most important source for creating new national names.

Kalit so‘zlar: yangi o‘zlashmalar, faol so‘zlar, ichki manba, umumturkiy so‘zlar, milliylashtirish, atamalar

Ключевые слова: новые заимствованные слова, активные слова, внутренний источник, общие турецкие слова, национализация, термины

Key words: new acquired words, active words, internal source, general Turkish words, nationalization, terms

Ma’lumki, leksik sath tilda kechayotgan evrilishlarning markazida turadi. Bu sathni maxsus qonun-qoidalar asosida me’yorlashtirish juda mushkul. Xususan, tilda paydo bo‘lgan biror tushunchani qanday atash yoki biror xorijiy so‘zni qanday qabul qilish masalasi har bir tilda doimo munozaralarga sabab bo‘lib kelgan. Tilning keng iste’moldagi faol so‘zlari va so‘z yasash qoliplari ushbu masalaning yechimiga xizmat qiluvchi birlamchi manba hisoblanadi.

O‘zbek tilida bir necha yuz, hatto ming yillardan buyon faol qo‘llanib kelayotgan ko‘plab so‘zlar mavjud. Bunday so‘zlarga yangi semalar yuklash, ular asosida yangi so‘zlar yasash tildagi yangi nomlarga bo‘lgan ehtiyojning katta qismini to‘ldira oladi. Shuningdek, yangi o‘zlashmalarni milliylashtirishda ham faol leksikaning ahamiyati katta.

Hozirgi o‘zbek tilida *tizim* so‘zidan bir qancha sohalarda (siyosiy, ijtimoiy, ilmiy, yuridik va boshqa) keng foydalaniladi. Dastlabki “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (O‘TIL; 1981)da *tizim* so‘zining birgina ma’nosi keltirilgan: “Ip, sim va shu kabilarga terilgan narsa; shoda. *Bir tizim marvarid. Bir tizim pomidor qoqi”*.[ЎТИЛ, 1981. – S. 171.]

Ushbu so‘zning “Devonu lug‘ati-t-turk” asarida ham ayni ma’noda qayd etib o‘tilgani [Koshg‘ariy M., 2017. – S. 159.] uning xalq tilida ming yillar davomida faol qo‘llanib kelganidan darak beradi. Mustaqillikdan so‘ng jamiyat hayotidagi kuchli ijtimoiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlar tufayli mazkur so‘zga bir qancha qo‘shimcha ma’nolar yuklandi, aniqrog‘i, *tizim* so‘zi sobiq sho‘ro davrida rus tili orqali o‘zlashgan *sistema* so‘ziga muqobil sifatida tanlangach, *sistema* so‘zining ma’nolari *tizim* so‘zi orqali ifodalana boshladi. O‘TILning keyingi nashrlarida *tizim* so‘zining ma’nolari beshtaga yetganini ko‘rish mumkin:

1) Ip, sim va shu kabilarga terilgan narsa; shoda. *Bir tizim qalampir.*

2) Bir soha, muassasa va sh.k. ga oid yo‘nalish, ish-faoliyat kabilar majmuyi. *Bank tizimi, Xalq ta’limi tizimi.*

3) O‘zaro bog‘liq va uzviy tartibda bo‘lgan narsa, hodisalar birligi majmuyi. *Barcha bo‘g‘indagi davlat idoralari faoliyatining huquqiy asosi bo‘lib xizmat qiladigan qonunlar tizimini barpo etish lozim.*

4) O‘zaro bog‘liq qismlardan tashkil topgan tuzilma, ijtimoiy, siyosiy va boshqa jihatdan tuzilish shakli. *Ular, bizga ma’lum sabablarga ko‘ra, “Markaz” deb ataluvchi eski tizimdan nihoyatda bezillab qolishgan*.

5) Biror ish-faoliyatni tashkil etish, amalga oshirishning shakl va tartib-qoidalari majmuyi. *Baholashning reyting tizimiga o‘tildi.* [O‘TIL, 2022. – S.308.]

Bundan tashqari, *tizim* so‘zi so‘z yasashga asos qism vazifasini bajarib, keyingi paytlarda undan *tizimli, tizimlashtirmoq* kabi sifat va fe’l turkumiga oid yangi so‘zlar hosil qilindi. Hozirgi kunda mazkur so‘zlarning deyarli barcha sohalarda faol iste’molda ekanligi milliylashtirish yo‘lida ulardan o‘z o‘rnida va oqilona foydalanilganini ko‘rsatadi.

Yuklamoq so‘zi *yuk* va *-la* qismlaridan tarkib topib, 1) “yukni biror yuk tashish vositasiga ortmoq, joylamoq”; 2) “vazifa topshirmoq” ma’nolarida faol qo‘llanib keladi. [Hojiyev A., 2001. – S.299.] Kompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanishi ma’lumotlarni elektron usulda yaratish, saqlash va uzatish ishlarining yanada qulaylashuviga imkon berdi. Shu jarayonda inglizchada *download*, ruschada *скачать* so‘zlari orqali ifodalanuvchi “elektron ma’lumotlarni boshqa qurilmalardan o‘tkazib / ko‘chirib olish” tushunchasi o‘zbek tilida *yuklamoq* so‘ziga yuklatildi va aytish mumkinki, *yuklamoq* so‘zining genetik ma’nosi mazkur yangi tushunchani unga oson singdirish imkonini bergan, shuningdek, ushbu so‘zning avvaldan faol iste’molda bo‘lgani va barchaga tushunarli ekanligi uning jamiyat tomonidan oson qabul qilinishini ta’minladi.

Yuklamoq so‘zining mazkur yangi ma’nosi hozircha O‘TILda o‘z ifodasini topmagan. Shu va shu kabi so‘zlarning ma’no taraqqiyotini tahlil qilish, ularni dastlab sohaviy lug‘atlar, keyinchalik umumiy izohli lug‘atlarda muntazam aks ettirib borish soha mutaassislarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Albatta, tillar aralashuvi yanada tezlashgan hozirgi davrda keng miqyosda kirib kelayotgan xorijiy so‘zlarni milliylashtirish uchun o‘zbek tilining faqat o‘z ichki imkoniyatlaridan foydalanish yetarli bo‘lmasligi mumkin. Shunga ko‘ra, zarur o‘rinlarda mazkur masala yuzasidan qardosh turkiy tillar tajribalariga murojaat etish foydadan xoli bo‘lmaydi. Buni bir nechta faktlar bilan asoslash mumkin.

Birinchidan, turkiy tillar turli ijtimoiy-siyosiy sabablarga ko‘ra hududiy jihatdan bir-biridan ajralgan bo‘lsa-da, ularni lingvistik jihatdan bir-biriga bog‘laydigan mushtarakliklar ko‘p. Shunga ko‘ra, o‘zbek tiliga butunlay begona bo‘lgan, fonetik va grafik jihatdan murakkab bo‘lgan so‘zlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qilgandan ko‘ra, imkon qadar o‘zbek tiliga yaqin, ya’ni qarindosh bo‘lgan tillardan so‘z olgan ma’qulroq.

Ikkinchidan, professor E.Begmatov hozirda o‘zbek tilida mavjud bo‘lmagan umumturkiy so‘zlarni tashqi manba emas, balki ichki manba sifatida baholash lozimligini ta’kidlaydi. [Бегматов Э., 1985. –S.90.]

Uchinchidan, hozirda yer yuzida mavjud 30 ga yaqin turkiy tillarning ayrimlari yo‘qolib ketish xavfi ostida qolgan, aksariyati milliylashtirish bilan bog‘liq jiddiy muammolar bilan yuzlashib turgan bir paytda ularning o‘zaro yaqin aloqada bo‘lishi, “oldi-berdi” qilishi har bir turkiy til uchun, shu bilan birga, ularning umumiy istiqboli uchun g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek tilidagi *doska* so‘zi rus tilidan to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qilingan. Bu so‘z boshqa turkiy tillar, xususan, qirg‘izchada *макта,* qozoqchada *мақта,* turkmanchada *tagta,* turkchada *yazi* (yozuv) *taktasi*, ozarbayjonchada *yazi lovhesi* deb ataladi. Ozarbayjon tilini hisobga olmaganda, bu so‘zning keltirilgan barcha turkiy tillar uchun umumiy bo‘lgan *taxta* so‘zi bilan ifodalanganini ko‘rish mumkin. *Taxta* so‘zi o‘zbek tilida ham hozirgacha faol qo‘llanib keladi, faqat boshqa ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Aslida, rus tilidan *doska* so‘zi o‘zlashgunga qadar o‘zbek tilida ham shu vazifada *taxta* so‘zidan foydalanib kelingan. Hozirgi paytda kelib o‘zbek tilida *taxta* so‘zining “doska” ma’nosi arxaiklashgan.

Ko‘rinadiki, o‘zbek tilida *doska* so‘zining umumturkiy muqobili unutilgan, lekin bir qancha boshqa turkiy tillarda u hamon saqlanib qolgan.

Bozorga oid atamalardan biri bo‘lgan *monopoliya* so‘zi (yunoncha *mono* – tanho, *poleo* – sotaman: iqtisodiyotning muayyan sohasida yakka hukmronlik qilish) turk tilida *tekel* deb nomlanadi. *Tekel* so‘zi *tek* (tanho, yolg‘iz, bitta) va *el* (qo‘l) so‘zlarini qo‘shish orqali hosil qilingan, ya’ni “yolg‘iz qo‘l”, “bir qo‘l” demakdir.

Dron so‘zi (ingl. drone – g‘o‘ng‘illash; erkak ari) o‘zbek tilidagi texnologiya sohasiga mansub neologizmlardan biri hisoblanib, “vazifasiga ko‘ra turli maqsadlarda foydalanishga mo‘ljallangan, avtomatik yoki masofadan boshqariladigan, kichik hajmdagi uchuvchisiz uchish apparati” ma’nosini bildiradi. [Shukurov O., 2022. – S.18.] Bu so‘z o‘zbek tiliga rus tili orqali o‘zlashgan bo‘lsa, ba’zi turkiy tillarda uni milliylashtirishga harakat qilishgan. Xususan tatar tilida *пилотсыз* (uchuvchisiz), turkman tilida *pilotsyz uçar* (uchuvchisiz samolyot), turk tilida *uçan göz* (uchar ko‘z) tarzida nomlangan.

Mazkur misollarga asoslanib aytish mumkinki, o‘zbek tiliga, asosan, ingliz va rus tillaridan kirib kelayotgan yangi so‘zlarni milliylashtirishda zarur o‘rinlarda qardosh turkiy xalqlar tajribalaridan unumli foydalanish o‘zining ijobiy samarasini berishi mumkin. Lekin bunda muayyan bir yangi so‘zni turkiy tillarning birortasidan to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chirib olish kerak, degan xulosa kelib chiqmaydi. Boshqa turkiy tillarda milliylashtirilgan birorta yangi tushunchani o‘zbek tilining leksik, so‘z yasash tizimiga, shuningdek, fonetik va grafik xususiyatlariga mosligini e’tiborga olib nomlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xullas, o‘zbek tiliga xorijiy tillar ta’siri ortib borar ekan, yangi o‘zlashmalarning muayyan qismini milliylashtirish o‘zbek tilining barqaror rivojlanishini kafolatlovchi asosiy tayanch kuch vazifasini bajaradi. Bunda, avvalo, jonli xalq tilida keng iste’molda bo‘lgan o‘z qatlam so‘zlarini

ishga solish, qolaversa, o‘rni bilan qardosh turkiy xalqlar tajribalariga murojaat etish eng maqbul yo‘l hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилдли. II жилд. – Москва: Русский язык, 1981. – Б. 171.
2. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғати-т-турк.– Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – Б. 159.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli. V jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – B. 308.
4. Hojiyev A., Nurmonov A., Zaynobiddinov S. va boshq. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 299.
5. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Тошкент: Фан, 1985. –Б. 90.
6. Shukurov O. Mustaqillik davri o‘zlashmalarining qisqacha izohli lug‘ati. – Qarshi: Intellekt, 2022. – B. 18.

“O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATI”DAGI O‘G‘UZ LAHJASIGA OID AYRIM DIALEKTIZMLAR TAHLILI

Bobotayev Mirjalol Ibodulla o‘g‘li
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi.
bobotoyev91@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi o‘g‘uz lahjasiga oid ayrim dialektizmlarning ma’noviy xususiyatlari va o‘zbek adabiy tilidan farqali xususiyatlari tahlil qilingan.

Abstract: In this article, the semantic features of some dialectisms related to the Oghuz dialect in the "Explanatory Dictionary of the Uzbek Language" and their different features from the Uzbek literary language are analyzed.

Аннотация: В данной статье анализируются духовные особенности некоторых диалектизмов огузского диалекта в «Аннотированном словаре узбекского языка» и их отличия от узбекского литературного языка.

Kalit so‘zlar: “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, til, sheva, dialekt, lahja, o‘g‘uz lahjasi, adabiy til, Xorazm.

Key words: “Annotated dictionary of the Uzbek language”, language, dialect, Oghuz dialect, literary language, Khorezm.

Ключевые слова: “Аннотированный словарь узбекского языка”, язык, диалект, говор, говор, огузский диалект, литературный язык, Хорезм.

Shevalarda xalqning asrlar davomida shakllangan juda qadimiy turmush tarzi, urf-odatlari, moddiy va ma’naviy madaniyati aks etadi. Shu nuqtayi nazardan har bir til doirasidagi lahja va shevalarning fonetikasi, fonologiyasi, morfologiyasi, sintaksisi va leksikasini to‘la va sistem tarzda o‘rganish soha taraqqiyotini ta’minlaydigan muhim omillardan hisoblanadi. Dunyodagi barcha tillarda shevalar adabiy tilning poydevori va o‘zagi sanaladi. Shevalardan yozib olingan dialektal materiallar faqatgina lingvistik material bo‘libgina qolmay, ayni paytda mazkur xalqlarning tarixi, madaniyati, mental xususiyatlarini o‘zida aks ettirgan boy manba hamdir. Ayniqsa, bugungi globallashuv sharoitida ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar tilga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymaydi. Shu maqsadda ham shevalarni o‘z vaqtida yozib olish va ular to‘g‘risida muayyan xulosalarga kelish, ilmiy asoslarda o‘rganish har doimgidan ham dolzarblik kasb etmoqda.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, turkiy xalqlarning, shu jumladan, o‘zbek xalqining qabila va urug‘larga bo‘linishi to‘g‘risidagi eng dastlabki ma’lumotlar berilishida buyuk ajdodlarimizning hissalari benihoya katta bo‘lganligini bilamiz. Shuningdek, ular qodirgan moddiy va ma’naviy meroslar hozirgi kunga qadar har sohada dastur-ul amal vazifasini bajarib kelmoqda.

Buyuk qomusiy olimlarimizdan biri Abu Rayhon Beruniy “Saydana” asarida dorivor giyoh, minerallarning nomlarini bir necha tillarda izohlash bilan birgalikda ularning turli shevalardagi atash ma’nolariga ham e’tibor berib, sheva vakillariga oson bo‘lishi uchun o‘sha hududda iste’molda bo‘lgan dialektal so‘zlar orqali izohlashga harakat qilgan. Tilshunos olim A.Nurmonov “O‘zbek tilshunosligi tarixi” kitobida bu haqda to‘xtalib asarda turli tillarda keluvchi mevalarning (*idjas (g‘aynoli), o‘rik, zardoli kabi*) nomini tahlil qilib ko‘rsatgan. Shuningdek, dialektlar haqidagi ma’lumotlar Turk dunyosida eng mashhur bo‘lgan Maxmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida berilganini aytib o‘tish joiz. Devonning qimmatli jihati shundaki, Koshg‘ariy urug‘ va qabilalarni ularning tillari bilan farqlarini hamda o‘ziga xos tomonlarini alohida ko‘rsatib o‘tadi. Mahmud Koshg‘ariyning o‘zi tilda va lahjalarda bo‘lgan farqlar xususida to‘xtalib quyidagilarni bayon qiladi: “Tub so‘zlarda o‘zgarishlar kam bo‘ladi. So‘zlardagi o‘zgarish harflarda, ba’zi harflarning almashinuvida, tushunuvidadir. Masalan, *-k* bilan boshlangan ot va fe’llarning bosh harfini o‘g‘uz ham qipchoqlar alifga yoki *–ch*ga aylantirishini ko‘rsatib o‘tadi.” Bu jihatlarni bir qancha *jelkin-musofi, jilig‘ suv-iliqsuv, jinju-dur, marvarid* kabi misollarni keltirib ularning o‘g‘uz va qipchoq lahjalaridagi farqli xususiyatlarini ochib beradi. Shuningdek, lahjalardagi fonetik o‘zgarishlarni ko‘rsatib so‘z boshida *–m* harfi bilan boshlanuvchi so‘zlarni o‘g‘uz, qipchoq, suvorinlar *–b* ga aylantirib aytishini ko‘rsatib buni *men bardim-ben bardum, mo‘n-bo‘n (sho‘rva)* kabi misollar orqali ifodalaganini ko‘rishimiz mumkin. Qolaversa, qomusiy olim turkiy tillar va shevalarini o‘rganar ekan quyidagi jihatlarni alohida ta’kidlaydi: “Men turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar, qirg‘izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko‘p yillar kezib chiqdim, lug‘atlarini to‘pladim, turli xil so‘z xususiyatlarini o‘rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni aniqlash uchun qildim… Ularga shuncha diqqat qildimki, turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar va qirg‘iz qabilalarining tillari butunlay dilimga jo bo‘ldi. Ularni har tomonlama puxta bir asosda tartibga soldim”. [3-44] Quyida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da uchraydigan o‘g‘uz lahjasiga oid dialektizmlarning qisqacha tahliliga nazar qaratamiz.

- gävgüm- *shv.* G‘ira-shira, qosh qoraygan payt. *Rustam aytdi: erta-mertan jo‘nab qolsam, govgun yotarlarda kelib qolarman.* «Murodxon». [5-490]
- gäšïr- *shv.* Sabzi. (o‘g‘uz) *Mana, Shavkatga gashir to‘g‘ratamiz.* S. Siyoyev, Yorug‘lik. [5-490]
- gommä- *shv.(o‘g‘uz)* Ichiga go‘sht yoki ba’zi sabzavotlar solinib, yog‘da pishiriladigan somsaning bir turi. *Olloquliboy ko‘k choyni ichib, yana go‘mmani tushira ketdi.* J. Sharipov, Xorazm. [5-531] Shoabduraxmonov Sh., Ishayev A., Nosirov Sh., Uzoqov H., D. Abdurahmonovlarning 1971-yil nashr qilgan “O‘zbek xalq shevalari” lug‘atida *Go‘mma* (Xorazm) *somsa, varaqi somsa* ma’nolarida iste’molda ekanligi ko‘rsatilgan. [7-69]
- güppï- I *shv.* Hovliqma, shoshma-shoshar. *Ochil Kuch guppiroq odam, gapga tez uchadi.* M.M.Do‘st, Galatepaga qaytish. *Guppi* II *shv. (o‘g‘uz)* Qalin paxtali chopon, to‘n. *Adolat onasi keltirgan qora duxoba guppisini kiyib, boshiga kattagina shol ro‘mol solib olgan edi.* S. Zunnunova, Gulxan. *Guppi chopon kiygan, patak soqolli g‘o‘labir kishi egardan yonboshlab tushdi-da, Avaz bilan qo‘shqo‘llab ko‘rishdi.* S. Siyoyev, Avaz. [5-527]
- güzär- *[f.*- o‘tish joyi; kucha, mahalla] **1** Qishloq yoki mahallalarning chorrahalarida joylashgan, choyxonalari, qassoblik, baqqollik kabi do‘konlari bo‘lgan obod, gavjum joy. *Bu mahallada unga [Yo‘lchiga] ma’qul bo‘lgan ikki kishi bor edi. Biri - guzarda tasachilik-temirchilik qiladigan Qoratoy, ikkinchisi - Shokir ota nomli mahsido‘z chol.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Kuz havosining suyaklarni zirqiratuvchi sovug‘iga qaramay, guzarda choyxo‘r ko‘p edi.* M. Ismoiliy, Farg‘ona t.o. ***2*** *folk.* Yo‘l. *Qalmoqlar yurtiga guzarim tushdi.* «Alpomish». *Guzarimiz tushsa, izlab kelarmiz. Sulton bo‘lgan, jonim do‘stim, xush endi.* «Murodxon». *Kuloh kiyib, bo‘ldim men bir qalandar, Nogahon guzarim tushdi bu shahar.* «Shirin bilan Shakar». 3 *shv.(o‘g‘uz)* Daryodan, soydan qayiklar o‘tadigan joy; kechik. 4 *tar.* Buxoro xonligida: mahalla. [5-516] Shoabduraxmonov Sh., Ishayev A., Nosirov Sh., Uzoqov H., D. Abdurahmonovlarning 1971-yil nashr qilgan “O‘zbek xalq

shevalari” lug‘atida *guzar* (Xorazm, Qashqadaryo) kechik, daryodan o‘tadigan joy. 2. Guzar (Qashqadaryo) mahalla. 3. Guzar (Qirq) yo‘l ma’nolarini ifodalashi ko‘rsatilgan. [7-70]

- davača- *shv.* (Urganch, Xazorasm, Xiva) Tumor. [5-536]
- davšan- *shv.* (o‘g‘uz) (Xiva) Quyon. [5-543]
- dajav- *shv. (o‘g‘uz)* **1** Qayiqni boshqarib borishga xizmat qiluvchi tayoq; eshkak. *Qayiqning orqa tomonida dayov ushlagan darg‘a uni to‘g‘ri yo‘ldan olib bormoqda.* J. Sharipov, Xorazm. [5-516] Shoabduraxmonov Sh., Ishayev A., Nosirov Sh., Uzoqov H., D. Abdurahmonovlarning 1971-yil nashr qilgan “O‘zbek xalq shevalari” lug‘atida Dayav 1 (Urganch, Xiva, Xazorasp, Xonqa) kema tayog‘i. Dayav 2 (Xorazm) ishchan, chayir (odam) ma’nolarini ifodalashi ko‘rsatilgan. [7-76]
- dal- *shv.* **I** Xuddi o‘ziga, to‘ppa-to‘g‘ri. *Dal otmoq. Ovchida! Dal ko‘zlab otar, Qayrilar qanot.* Mirtemir, Asarlar. Dal - **II** *shv.* Tut bargi. [5-547]
- dasmal- *[*forscha qo‘l artadigan mato] **1** Qo‘l artadigan ro‘molcha, dastro‘mol; cho‘ntak ro‘molcha. **2** *shv.* Qozon sochiq. Shoabduraxmonov Sh., Ishayev A., Nosirov Sh., Uzoqov H., D. Abdurahmonovlarning 1971-yil nashr qilgan “O‘zbek xalq shevalari” lug‘atida dasmal (Urganch, Xiva, Xonqa, Xazorasp) //*dasmol* (Qashqadaryo, Jizzax) qozon sochiq ma’nolarini ifodalashi ko‘rsatilgan. [7-78]
- dalan- *shv. q.* dolon. *Bostirmali keng dalonda oti chiqarilgan izvosh.* S.Ahmad, Hukm. *Katta darvoza dalonida yomg‘irdan qochgan shalabbo tovuqlar qunushgancha g‘uj bo‘lib turishibdi.* S. Ahmad, O‘n ikkidan ikkinchisi. Shoabduraxmonov Sh., Ishayev A., Nosirov Sh., Uzoqov H., D. Abdurahmonovlarning 1971-yil nashr qilgan “O‘zbek xalq shevalari” lug‘atida *dalan* (Xorazm) // *dolon* (Buxoro) //*do‘lon* (Samarqand) yo‘lak, karidor. Uzun-uzundalanla dada nishtiq) ma’nolarini ifodalashi ko‘rsatilgan (Xonqa). [7-78]
- dagiš- *shv.(o‘g‘uz)* Daryo qirg‘okdarining o‘pirilishi; o‘pirilma joy. *O‘rkach-o‘rkach to‘lqinlar sohilga sapchib, dambaga tinmay urilardi, tuproqni o‘z qa’riga yutardi. Buni Xorazmda "dagish" deb atashadi.* Gazetadan. Shoabduraxmonov Sh., Ishayev A., Nosirov Sh., Uzoqov H., D. Abdurahmonovlarning 1971-yil nashr qilgan “O‘zbek xalq shevalari” lug‘atida dagish (Gurlan) o‘pirilish ma’nolarini ifodalashi ko‘rsatilgan. [7-79]
- dï:m- **I 1** Shamolsiz, shabadasiz va nafasni qaytaradigan darajada issiq. *Havo shu qadar issiq, dim ediki, ertalab o‘rilgan pichan kechgacha shaqirlab qurib qoldi. S.* Anorboyev, Oqsoy. *Jazirama issiqdan hammayoq dim bo‘lib ketgan.* N. Safarov, Olovli izlar. **2** Havosi yetishmaydigan, havosi buzilgan; og‘ir, bo‘g‘iq. *O‘tov dim bo‘lgani uchun Yusufjon ancha vaqtgacha uxlay olmaydi.* T.Obidov, Yusufjon qiziq. *Hammomdagiday gup etib, yuzimga dim havo urildi.* H.Nazir, Yonar daryo. *Dim xonada qasqonga tushgandek a’zoyi badanimdan ter quyiladi.* «Guldasta».**3** Ichi havo bilan to‘lib qolgan, ichiga havo yig‘ilgan. *Oshnam, toshdek og‘ir, puflangan meshdek dimsan. Bir kun paqqa yorilib, o‘ligingga ega bo‘lmasalar, shu.* A. Qodiriy, Obid ketmon.

Dim - **II 1** *ayn.* jim. *Pismiq dim o‘tirar.* Maqol. *[Mullaro‘zi Mullado‘stga:] Dim! Og‘zingizni parishon qilmay, sabr qilib tursangiz, shu hafta ichida bo‘ladi-qoladi.* Hamza, Maysaraning ishi. *Shuncha shovqin bartaraf bo‘lib, dim bo‘ldi.* Usmon baxshi Mamat o‘g‘li, Bo‘tako‘z.

2 Ovoz chiqarmay, gapirmay jim o‘tirish o‘yini. *Dim o‘ynamoq. [Ummatali] Ishga sho‘ng‘ib, hamma bilan dim o‘ynaydi.* Shuxrat, Jannat qidirganlar.

Dim - **III** *shv.* **1** Sira, aslo. *Ichkari kir, yota bergin joyingga, Dim ularga qaray ko‘rma, chirog‘im.* «Ravshan». *Podshosin ushlab olinglar, Bejoy xo‘rliklar ko‘rsatib, Dim indamasday qilinglar.* «Gulnorpari». **2** ***shv.*** *ayn* juda, juda ham. *-Avaz og‘a, sizga dim jabr bo‘ldi, — dedi [Sheroziy].* J. Sharipov, Xorazm. *Azizim, Sizni dim sog‘indim.. tushlarimda ko‘rib chiqaman.* J. Sharipov, Xorazm. **3** ***shv.*** Hech ham, hech bir, tamoman, umuman. *Molining dim soni yo‘q.. qirq yigit aslo sarishta qilolmaydi.* E. Jumanbulbul o‘g‘li, Bulbul taronalari. *-Men sendan juda qo‘rqardim, Oydonajon, senda or-nomus, uyat, sharm-hayo degan so‘z dim yo‘q ekan, - dedi Sedana.* “Xushkeldi”. Shoabduraxmonov Sh., Ishayev A., Nosirov Sh., Uzoqov H., D.

Abdurahmonovlarning 1971-yil nashr qilgan “O‘zbek xalq shevalari” lug‘atida *dim 1* (Namangan) //dï:m (Janubiy Xorazm) dim. Hāvā bügün dï:m bölïb düriptï (Xonqa). dï:m 2 (Namangan) to‘g‘on ma’nosida ifodalangan. [7-86]. *Dim* (Qorakissa, Xorazm) 1. Juda. *Dï:m ïstadïm qora gözzï:m gelmadï:* (Xiva). 2. Mutlaqo, hech. *Aql dejän nä:ssädan dï:m bermäptï:sänä* (Urganch). [7-87]

- dü:tkaš- *[*forscha tutun tortuvchi] *shv.* **1** *ayn.* dudburon **1, 2. 2** Ashaddiy kashanda, ha deb sigaret tutatishni yaxshi ko‘ruvchi (kishi). “O‘zbek xalq shevalari” (1971) lug‘atida dü:dkaš **1** (Urganch, Xiva, Xonqa) Mo‘ri. dü:dkaš **2** (Janubiy Xorazm) dam. dü:dkaš **3** (Xorazm) O‘ta ketgan chekuvchi [7-93].
- dölanmoq- *shv.* Qayrilmoq, bukilmoq, burilib aylanib o‘tmoq. *Kirdi yo‘lga do‘lanib, Singlisi bunda qoldi.* «Murodxon». “O‘zbek xalq shevalari” (1971) lug‘atida *do‘lanmoq* (Urganch, Xiva, Xonqa) *qayrilmoq***.** *Salam bä:rdïm dal čïvïqdaj dölanïp, salamï:mni almäj gettï ajlanïp.* (Xonqa). [7-88].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da berilgan o‘g‘uz lahjasiga oid ayrim dialektizmlarning adabiy tildan farqli va o‘xshash jihatlariga qisqacha to‘xtaldik. Aynan bu borada olib boriladigan tadqiqotlar salmog‘i jihatidan tilshunosligimizda yetakchi o‘rinlarda turadi. Shunday ekan bu sohadagi ilmiy izlanishlarni ko‘paytirish zarur.

ADABIYOTLAR/ REFERENCES

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent: “Nodirabegim”, 2021.- B.47-48.
2. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. –Тошкент: Фанлар академияси нашриёти, 1961. 270-бет.
3. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк.-Тошкент: Фан, 1960.-498 бет.
4. Самайлович А.Н. Матешриалы по среднеазиатско-турецкой литературы. ИВ.Чагатайский поэт XВ в. Атаи.-ЗКВ, 1927, Т.2. Вып.2.С.262.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. Тузатилган 2-нашри. –Тошкен: “Ўзбекистон нашриёти” Давлат унитар корхонаси, 2020.-680 бет.
6. Тўйчиев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси: Олий укув юртлари учун дарслик. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. 105-б.
7. Шоабдурахмонов Ш.,Ишаев А., Носиров Ш., Узоқов Ҳ., Абдураҳмонов Д. Ўзбек халқ шевалари луғати. –Тошкент: Фан, 1971.- 407 бет.
8. Bobotayev M.I. Lexemes related to some oghuz dialect and their linguistic features in the "Annotated dictionary of the uzbek language" 2023. B7. https://inlibrary.uz/index.php/eijmrms/article/view/22666
9. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Тошкент: “Ўзбекистон”, 2002.- B.230.

TOG‘AY MUROD BADIIY NUTQIDAGI AYRIM MAQOL VA MATALLARNING LINGVOMADANIY TAHLILI

Navoiy davlat pedagogika instituti
10.00.01 – O‘zbek tili tayanch doktoranti
Jo‘rayeva Gulhayo Xakim qizi
gjorayeva109@gmail.com/998883008595

Annotatsiya XX asrning 90-yillarida tilshunoslikda paydo bo‘lgan yangi lingvokulturologiya yo‘nalishining o‘rganish predmeti bo‘lgan lingvokulturemalar (maqol, matal, ibora, metafora, o‘xshatish, realiya, urf-odat va h.k) til va madaniyatni aks ettirishi bilan millat uchun muhim mavzuga aylandi. Ushbu maqola o‘zbek yozuvchisi Tog‘ay Murod qissalaridagi madaniyatni aks ettiruvchi til birliklaridan bo‘lgan ayrim maqol va matallarning lingvokulturologik tadqiqiga bag‘ishlanadi.

Kalit so‘zlar: paremiologiya, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, struktur-semantik tilshunoslik, obraz, idioma, maqol, matal, antroposentrik paradigma, nutq madaniyati, madaniyat tarixi, mubolag‘a, assotsatsiya.

Mavzuning dolzarbligi

Jahon tilshunosligida XX asr oxiri XXI asr boshlarida antroposentrik paradigmaning shakllanishi til egasi – so‘zlovchi shaxs omilini tadqiq etish bilan bog‘liq bo‘lib, tilshunoslikda antroposentrik burilishning yuzaga kelishi tilni tadqiq etishning “o‘zida va o‘zi uchun” tamoyilini chetga surib, asosiy e’tiborini shaxs omiliga qaratdi. “Inson koinot markazidir” degan g‘oyani ilgari suruvchi qarashga nisbatan qo‘llangan bo‘lib, bu g‘oya, ayniqsa, O‘rta asrlarda Yevropada keng tarqaldi. Xuddi shu davrda jahon tilshunosligida inson va tabiat o‘rasidagi ko‘p qirrali munosabatlarning integrativ xususiyatlarini o‘rganishga e’tibor kuchaydi. Lingvistika bilan boshqa fanlar oralig‘ida psixolingvistika, etnolingvistika, neyrolingvistika, kompyuter lingvistikasi, matematik lingvistika, biolingvistika singari oraliq fanlar paydo bo‘ldi. Ular qatorida shakllangan va qisqa fursatda o‘z ichiga minglab so‘z va tushunchalarni qamrab olgan shunday fanlardan birini lingvokulturologiya tashkil etadi.

Dunyo tilshunosligining yangi yo‘nalishi sifatida lingvokulturologiya o‘zining tadqiqot obyekti va predmetiga ega bo‘ldi, kishilar ongida lingvokulturologik tushunchalar, lingvokulturologiyaga oid bilimlar va lingvokulturologik lug‘aviy qatlam sifatida u tilda o‘z o‘rni va nufuzini topdi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, o‘zbek madaniyatining tilimizda aks etishi, yoki tilimizning madaniyatimizda aks etishi bu xalqimizning azaliy qadriyatlari va tilimiz jozibadorligini namoyon etuvchi qudratdir. Aynan lingvokulturologik tadqiqotlarning millatning o‘zligini tanishida, milliyligini asrab qolishida, qadriyatlarining qadr topishida, tilning e’zozlanishi va boyitilishida ahamiyati katta. Millat madaniyati xalq jonli nutqida, milliy asarlarda o‘z aksini topadi. Milliy yozuvchimiz Tog‘ay Murodning barcha qissalari ana shunday adabiyotlardandir. Ushbu mavzuga murojaat qilishning zaruriyati shundaki, lingvokulturologik tadqiq qilish orqali til va madaniyat boyliklari kashf etiladi.

Muammoning o‘rganilish darajasi va metodologik asosi

tilning boshqa sathlarida bo‘lgani singari voqelikdan, boshlanib, mohiyat chuqurligi tomon siljiy boradi. Biz buni fe’l markazli nutqiy gaplardan (jumla, so‘zlamlardan - voqeliklardan) ularning mazmuniy-shakliy qoliplari (umumiylik) tomon yo‘nalishdagi ilmiy talqinlari rivojida ko‘ramiz. So‘nggi paytlarda vujudga kelgan gapning markazi va periferiyasi, ustki hamda ichki strukturalar, transformatsiya, lisoniy birliklarga xos bo‘lgan bog‘lashuv yoki valentlik haqidagi tushunchalar an’anaviy gap bo‘laklari tushunchalarini yanada aniqlashtirish, ularga yangicha nuqtai nazarlardan qarash imkoniyatlarini beradi va xatto ularni so‘z valentligi va gap valentligi yoki valentlikning o‘ziga xos zaruriy va nozaruriy valentliklari sifatida talqin qilinishiga asos bo‘la oladi. Ayniqsa, eng kichik sodda gap qolipining aniqlanishi gap bo‘laklariga yangicha yondashish zaruriyatini keltirib chiqardi.

(WRm) asosida bo‘laklarni talqin etish an’anaviy ikki a’zoli, ya’ni keng ma’nodagi izohlovchi izohlanmish/izohlanmish - izohlovchi tarzida (ega - kesim, to‘ldiruvchi-to‘ldirilmish, aniqlovchi-aniqlamish kabi) nisbiy mustaqil holatlarda olib qaraladigan formal-grammatik oppozitsiyalar tadqiqidan farq qiladi. (WRm)ga bog‘liq bo‘laklar tahlilida birinchi o‘ringa gap tarkibidagi bo‘laklarning sodda gap qurilishi asosi (WRm) va so‘z-markazlar (W) ta’siridagi semantik-sintaktik kengayish munosabatlari qo‘yiladi. Demak, bunda gap bo‘laklari kengayish tizimining tashkil etuvchilari sifatida talqin etilib, bu taqlin usuli an’anaviy usuldagi ikki bo‘lakning o‘zaro bog‘lanishi bo‘yicha hosil bo‘ladigan vazifalar talqinidan o‘zining nuqtai nazari va munosabat turiga ko‘ra tamoman farqlanadi. Demak, "kengayish" tahlili gap bo‘laklarining an’anaviy binar, formal-funksional tahlillari natijalarini yo‘qqa chiqarmaydi, balki ularni fe’l asosli shakllangan sintaktik imkoniyat, munosabat turlari va tizimlari nuqtai nazaridan boyitadi.

Tilshunosliqdagi ko‘plab tadqiqotlarda «sezgi fe’llari» tushunchasi ostida keng ma’nodagi predmetlarning bir nuqtadan ikkinchi nuqtagacha bo‘lgan harakati tushunilgan. Aniqki, harakat fe’llarini bunday tavsiflash nisbatan cheklangan xarakterga ega. Negaki, bunda borliqdagi boshqa harakatlar o‘z aksini topmaydi, harakatning xususiy ko‘rinishlari umumiylikka birlashmaydi. Shunga ko‘ra, sezish bilan bog‘liq «harakat fe’llari» maydoniga dastavval borliqdagi faol (dinamik) harakatlarni ifodalovchi fe’llarni kiritish zarur. «Harakat» ma’nosiga umumiylik (invariant) sifatida yondoshib, uning namoyon bo‘luvchi turli xususiyliklarini (variantlarini) hisobga olgan holda mazkur semantik maydondagi fe’llarni tasnif qilish to‘la maqsadga muvofiq. Demak, harakat fe’llari borliqdagi jamiki jonli (ayrim vaziyatlarda jonsiz) mavjudotlarning turli yo‘nalishlarda va usullarda amalga oshirgan harakatlarini ifodalaydi. Ular nafaqat bir nuqtadan ikkinchi nuqtagacha bo‘lgan siljish, ko‘chishni, balki hayotiy zaruriyat bo‘lgan barcha harakatlarni - obyyektlarni qurish, kesish, qirqish, ulash, shaklini o‘zgartirish, yaratish, buzish, jismoniy ta’sir etish kabi «cheksiz» ko‘rinishlar va mohiyatlarga ega bo‘lgan harakatlarni ham anglatadi.

Harakat fe’llarining semantikasini o‘rganishda, asosan, differensial-semantik tahlil qilish usuli - komponentli tahlil usulidan foydalaniladi.

Ta’kidlash zarurki, so‘z ma’nosini tarkibiy qismlarga bo‘lib o‘rganish usuli ma’noning tarkibini, tuzilishini, aniqlashda eng asosiy va qulay usullardan biridir. Chunki bunda leksikaning sistem tuzilishiga asoslaniladi. Unda semantik mezon asosida ajratiladigan alohida leksik tizim (semantik maydonlar) tadqiqot uchun tanlab olinadi. Mazkur semantik maydonlarni komponent tahlil usuli orqali tekshirish natijalari asosida turli tillarning leksik-semantik sistemasini yaratish, shu orqali tillarning semantik xususiyatlarini aniqlash va ularni qiyosiy-tipologik tahlil qilish imkoniyati vujudga keladi.

O‘zbek tilidagi harakat fe’llarini komponentli tahlil qilish natijasida ularning umumiy va xususiy jihatlari aniqlanadi.

Fe’llarda faol harakat ma’nosining vujudga kelishida orttirma nisbat qo‘shimchasining ta’siri katta. Bu ko‘shimcha ko‘p hollarda holat semali fe’llarda harakat semasini vujudga keltiradi: *eshitmoq* (holat fe’li) - *eshittirmoq* (harakat fe’li); Bu tilshunoslikda sezgi fe’llariga xos kauzativlikni yuzaga keltiradi.

Harakat fe’llarining obyekt valentligi holat fe’llarining obyekt valentligidan tubdan farq qiladi. Chunki holat fe’llarining obyekt aktanti asosida obyekt valentligi va kauzativlik yuzaga keladi, harakat fe’llarida esa bunday emas.

Obyektli harakat fe’llari obyekt valentli mustaqil gapda deyarli vositali to‘ldiruvchi vazifasida keladi. Obyekt aktanti obyektli munosabatni yuzaga keltiradi, aniqrog‘i, obyektli fe’l grammatik ma’no qurilmasida qatnashadi, ya’ni obyyektli fe’l harakatning vositasiz to‘ldiruvchi ifodalaydigan obyyektga yo‘nalishini bildiradi. Obyyektli harakat fe’llari uchun obyyekt valentligi nozaruriy valentlik bo‘lib, uning ifodalovchilari ma’nosidagi semalar muhim ahamiyatga egadir.

Harakat fe’llarining «ijro ifodalovchi» birlashtiruvchi semali fe’llarda obyekt valentligi nozaruriy valentlikdir. Zero, fe’l sememada ifodalangan harakat natijasida predmet-obyyektlar yaratiladi, barpo etiladi, obyyektlar bir-biriga biriktiriladi, bog‘lanadi yoki aksincha, bir-biridan ajratiladi, ularning holati, shakli, sathi, joylashuviga o‘zgartirish kiritiladi. Shunga ko‘ra harakat bevosita o‘tayotgan, ya’ni agensning ta’sirida o‘zgartirilayotgan obyektning gap qurilmasida qatnashishi oldindan belgilangan bo‘lgani uchun nozaruriy ahamiyat kasb etadi. Natijali ijroni ifodalovchi fe’llarning obyyekt valentligini ularni farqlovchi semalari belgilaydi. Ya’ni ular aynan farqlovchi semalariga ko‘ra valentlikka ega bo‘ladi.

Ma’lumki fe’llar asosan o‘timli hisoblanadi. Ammo bu hamma vaqt ham shunday degani emas. Kauzativ bo‘lmagan o‘timli fe’llarda o‘timlilik obyyekt bilan bog‘lanib, holatning obyyektga o‘tishi bilan tugallansa, kauzativli fe’l holatli obьektning subyekt ta’sirida boshqa bir holat kasb etishi orqali reallashadi. Masalan: *isidi – isitdi* kabi.

Ma’lumki, paradigmatik munosabatdagi so‘zlar orasida o‘zaro oppozitsiya mavjuddir. Harakat fe’llari leksik-semantik guruhlarining ichki semantikasidagi fe’l sememalar paradigmatik munosabatida ham oppozitsiya (ziddiyat) kuzatiladi. Harakat a)teng qiymatli (ekvipolent): ye*moq - ichmoq, chimdimoq - bo‘shatmoq, yalamoq - yutmoq.*

b)darajali (gradual): *shimimoq-so‘rmoq-yutmoq; ho‘plamoq - ichmoq -simirmoq - sipqarmoq va h. k.*

Bu esa o‘zbek tilidagi sezgi harakati bilan bog‘langan fe’llar orasidagi semantik graduonimiya va ular ma’nosining kuchayib borishiga ko‘ra joylashtirish orqali talqin etilishini ham ko‘rsatadi. Graduonimik munosabat ular orasidagi ma’noviy jarayon bilan uzviy bog‘liq. Fe’llarning bu kabi ma’noviy xususiyatlari qatorida uning nutqiy ifodasi, mazmuniy qo‘llanishi, boshqacha aytganda, pragmatik, stilistik xarakteri ham muhim rol o‘ynaydi. Bu fe’llar, shu jumladan, biz tahlil qilishga uringan tana sezgisi bilan bog‘liq fe’llarda ma’lum darajada uchrashi, shubhasiz. Bu kichik umumlashma tavsifdan shunday xulosa chiqarish mumkinki, borliqdagi yuz beradigan turli harakatlar, holatlar, sezish va ta’sirlanish hodisalari nihoyatda turli tuman, murakkab va «mayda»dir. Bunday hodisalarning deyarli ko‘pchiligi tilda fe’l shakllari orqali ifoda etiladi. Bas shunday ekan, ularning leksik-semantik guruhlarini aniqlash, xillarga ajratish ham o‘z-o‘zidan katta qiyinchiliklarga olib keladi va xilma-xilliklarni keltirib chiqaradi. Bu esa o‘zbek tilidagi sezgi harakati bilan bog‘langan fe’llar orasidagi semantik graduonimiya va ular ma’nosining kuchayib borishiga ko‘ra joylashtirish orqali talqin etilishini ham ko‘rsatadi. Graduonimik munosabat ular orasidagi ma’noviy jarayon bilan uzviy bog‘liq. Kengayish hodisasining gap qolipi modda ma’nosiga(predikativ markazga) va leksemaga(valentlik imkoniyatlariga) oidligi, bir tomondan, kengayish asoslarining nisbiy mustaqil lisoniy birliklar ekanligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, har ikkalasining nutqda turli mavqelardagi(so‘z va gap kengaytiruvchiligi) markazlar vazifasida chiqib, uyg‘unlashib, asosiy va qo‘shimcha xabarlarni (tushunchalarni) o‘zaro hamkorlikda ifodalanayotganliklarini anglatadi. Ushbu uyg‘unlashish jarayonida so‘z va gap kengaytiruvchilari o‘zaro yaqinlashishlari, birlashishlari va natijada so‘z va gap kegaytiruvchilarining xususiyatlarini o‘zida namoyon etuvchi oraliq uchinchi holatlarni vujudga keltirishlari mumkin.

Gap kengayish tizimidagi darajalanish hodisasi talqini fe’l, xususan sezgi fe’llari valent imkoniyatlariga muhim tuzatishlar kiritadi. Tadqiqot natijalari fe’llar semantikasining valent imkoniyatlari keng ekanligidan, bu esa o‘z navbatida, ularning so‘z valentligi va gap valentligi mavqelarida bo‘lib, ularda o‘zaro bog‘lanish, o‘tish, aylanishlar dialektikasi borligidan darak beradi.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Акрамов Ш.Т. Ўзбек тилининг гап қурилишида тўлдирувчи ва ҳол([WPm] валентлик аспектида).НД.Тошкент. 1997 й.

2. Р.Расулов. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облегатор валентликлари. Тошкент: Фан, 1989.
3. Сайфуллаева Р. ва бошқалар. Ҳозирги Ўзбек адабий тили. Синтаксис (ўқув қўлланма) Т: Университет, 2006 104- бет
4. Маҳмудов Н., Нурмонов А Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. Т. Ўқитувчи. 1995. 232- б.
5.Менглиев Б. Ўзбек тилининг структур синтаксиси (қўлланма) Қарши, Насаф. 2003.
6.Набиева Д. Ўзбек тилининг турли сатҳларида умумийлик-хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши. Т. Шарқ. 2005.
7. Нурмонов А. Гап ҳақида синтактик назариялар (махсус курс). Т. ТДПИ. 1988. 100- бет.

SHARWASHÍLÍQ LEKSIKASÍNDA JASQA BAYLANÍSLÍ SÓZLERDIŃ LINGVOKULTUROLOGIYALÍQ ÓZGESHELIKLERI

Karasayev Azizbek Sabit ulı
Nawayı mámleketlik pedagogika institutı oqıtıwshısı
Tel: +99897-500-76-48
Email: azizbekkarasaev@gmail.com

Annotaciya Maqalada Nawayı wálayatında jasawshı qaraqalpaqlar sóylew tilinde kásiplik leksikanı lingvokulturologiyalıq aspektte izertlewdiń áhmiyeti kórsetilgen. Bunday izertlew jumısları qaraqalpaq til biliminde lingvokulturologiya tarawınıń rawajlanıwına járdem beredi.

Tayanısh sózler: kásiplik leksika, lingvomádeniy aspekt, qaraqalpaq tili.

Аннотация В статье показана важность лингвокультурологического изучения профессиональной лексики в разговорном языке каракалпаков, проживающих в Навоийской области. Подобные исследования способствуют развитию области лингвокультурологии в каракалпакском языкознании.

Ключевые слова: профессиональная лексика, лингвокультурологи-ческий аспект, каракалпакский язык.

Annotation The article shows the importance of linguistic-cultural study of the professional lexicon in the colloquial language of the Karakalpaks living in the Navoi region. Such research helps the development of the field of linguo-cultural studies in Karakalpak linguistics.

Key words: professional lexicon, linguocultural aspect, Karakalpak language.

Tariyxtan kóshpeli, yarım kóshpeli xalıqlar turmısında sharwashılıq kásibiniń áhmiyeti oǵada joqarı bolǵan. Sharwashılıq erteden Orta Aziyada jasawshı kópshilik túrkiy xalıqlardıń tiykarǵı kásipleriniń biri. Kúndelikli turmıs zárúrligi hám diniy isenimler xalıqtıń sharwa menen jaqınlasıwına sebep bolǵan.

Túrkiy xalıqlar sharwashılıq kásibinen óz mútájliklerin qanaatlandırıp kelgen. Sonıń menen birge ayırım qásiyetke, joqarı ústinlikke iye bolǵan haywanlardıń ózgesheliklerin óz boyında bolıwın qálegen. Máselen, *qasqır, arıslan, qaplan, ógiz, ayıw, túye* sıyaqlı kúshli haywanlar, *búrkit, qırǵıy, lashın* sıyaqlı ushqır quslar túrkiy xalıqlar turmısında joqarı qádir-qımbatqa iye bolǵan hám ayrıqsha bahalanǵan.

Qaraqalpaq xalqı da túrkiy xalıqlardıń biri sıpatında erteden sharwashılıq penen shuǵıllanıp kelmekte. Sonlıqtan qaraqalpaq tiliniń sózlik quramında bul tarawǵa tiyisli sózler belgili orındı tutıwı sózsiz. Bunday leksemalar sharwashılıqqa baylanıslı anıq bir túsiniklerdi ańlatıwı menen birge jergilikli xalıqtıń mádeniy belgilerin ózinde jámleydi. Tyurkologiyada sharwashılıq leksikası qaraqalpaq til biliminde [Пахратдинов Қ, 1992], qazaq til biliminde [Жакипов А.1983] hám túrkmen til biliminde [Ходжагельдиев Б. 1991] arnawlı izertlew obyekti boldı.

Sharwashılıq leksikasında jasqa baylanıslı leksemalar ayrıqsha topar retinde ajıralıp turadı. Olardıń kópshiligi burınnan tilde qollanılıp, atalıwında xalıqtıń mádeniy miyrasına tiyislilik seziledi. Túyeshilik kásibinde qollanılatuǵın jasqa baylanıslı leksemalarǵa mınalar kiredi:

Bota (botalaq) – túyeniń tuwılǵannan bir jasqa deyingi balası. Negizinen bul sóz eski túrkiy tilinde “bala tuw” mánisin bildiriwshi *bot* feyilinen kelip shıqqan. Al bota sózi dáslep hárqanday

haywannıń balasına qarata qollanılsa, keyin mánisi tarayıp, tek túyeniń balasın bildirgen [Раҳматуллаев Ш., 2000. – Б.79]. Bul leksema jergilikli aymaq tilinde bir neshe mánilerde jumsaladı. Máselen, usı sóz tiykarında dóregen *botalaq* sózi shańaraqtaǵı eń kishi balalardı erkeletiw maqsetinde qollanıladı. Qaraqalpaq tiliniń arqa dialektinde hám Nawayı qaraqalpaqları tilinde *botaday bozlaw* turaqlı sóz dizbegi jumsaladı. Bul adamnıń hádden tıs baqırıp jılawı menen botanıń óz anasın joytıp bozlawın uqsatıw, salıstırıw arqalı júzege kelgen.

Taylaq – túyeniń bir jastan eki jasqa shekemgi balası. Nawayı qaraqalpaqları sóylew tilinde onıń ayır taylaq, arwana taylaq, qospaq taylaq, nar taylaq, sút taylaq sıyaqlı túrleri de bar.

Buwra – násil jaratıwshı erkek túye. Leksemanıń *boyra* forması Nawayı qaraqalpaqları tilinde ushıraspaydı. Buwra leksemasınıń kelip shıǵıwın ayırım ilimpazlar Altay dáwirinde keń taralǵan shamanizm dini menen baylanıstıradı. Bul dáwirde Altay qáwimleri arasında qurbanlıqqa shalıw maqsetinde tayarlanǵan jılqı buwra delingen. Ádette, bunday jılqılar buwıp óltirilgen. Bunnan buwra sózi túrkiyshe buw sózinen kelip shıqqanlıǵı kórinedi. Altaylılar arasında buwra muqaddes ruwxlardıń hám qudaylardıń mingen atları sıpatında qádirlengen. Olardıń diniy iseniminde táńri (Kók tańri) buwranı shamanlarǵa járdemshi retinde jibergen.

Nawayı qaraqalpaqları sóylew tilinde jılqınıń jasına baylanıslı qollanılatuǵın sózler de ushırasadı. Máselen, qunan – eki jastan úsh jasqa deyingi jılqı, dónen – úsh jastan tórt jasqa shekemgi jılqı, besti – bes jasqa shıqqan urǵashı yaki erkek jılqı, baytal – ulıwma urǵashı jılqı, biye – qulını bar jılqı h.t.b. Bunday jılqıshılıq kásibine baylanıslı leksemalarda da xalıqtıń ruwxıy dúnyası, psixologiyası, dúnyatanımı sıyaqlı hár qıylı mádeniy belgileri kórinedi.

Qulın – biyeniń tuwılǵannan altı ayǵa shekemgi balası. Bul sóz Maxmud Qashǵariy miynetinde *qulun* formasında ushırasadı [М.Кошғарий, 1967. – Б.376]. Bul leksema jergilikli aymaq tilinde er balalardı erkeletiw, olardı shaqırıw maqsetinde de jumsaladı. Mısalı: *qulınım, qulınshaǵım.* Qulınshaq sózi de qulın sózine atlıqtıń kishireytiwshi – shaq affiksiniń jalǵanıwı arqalı jasalǵan.

Tay – bir jastan eki jasqa deyingi jılqınıń balası. Eski túrkiy tilinde de usı mánide jumsalǵan. Usı sóz tiykarında dóregen *tayınshaq* sózi de qollanıladı. Bul sóz tay sózine atlıqtıń kishireytiwshi –shaq affiksiniń tuwrıdan-tuwrı qosıla almawınan ortada qaraqalpaq tilinde interfiks xızmetinde jumsalatuǵın -ın affiksiniń jalǵanıwınan payda bolǵan. Nawayı qaraqalpaqları sóylew tilinde bul leksemadan ata-ana óz perzentlerin erkeletiw maqsetinde awıspalı mánide paydalanadı.

Ayǵır – pishilmegen erkek jılqı, úyirdiń iyesi. Bul sóz túrkiyshe ay (biytaqat bol) sózine -ǵır affiksiniń qosılıwınan jasalǵan. Dáslep ulıwmalıq biytaqat, shıdamsız mánilerde jumsalıp, keyinirek usı sıpattaǵı jılqıǵa qarata qollanılǵan [М.Кошғарий, 1960. – Б.25]. Ayǵır sózine baylanıslı Nawayı wálayatında jasawshı sharwalar arasında dástúrler oǵada kóp. Sebebi, ayǵır atqa erteden-aq xalıq joqarı baha berip, ayrıqsha húrmet kórsetken. Máselen, *ayǵırdan shıǵıw* – biyeniń buwaz bolıwı, *ayǵırdı úyirge salıw* – ayǵırdı úyirge qosıw, *ayǵırdı tórkinletiw* – óziniń úyrenisken úyirine aparıw.

Qara malǵa baylanıslı sózler de Nawayı qaraqalpaqlarınıń sóylew tilinde jiyi qollanılatuǵın sózler qatarına kiredi. Biraq sharwashılıqtıń basqa túrlerine salıstırǵanda bunday sózler kóp emes. Bul jaǵdayǵa xalıqtıń qara mal baǵıw menen shuǵıllanıwı sońǵı waqıtlarǵa tuwra keliwi sebep retinde kórsetiledi. Máselen, baspaq – altı aydan bir jasqa deyingi buzaw, buzaw – sıyırdıń tuwılǵannan altı ayǵa shekemgi balası, qashar – bir jastan eki jasqa deyingi urǵashı qaramal, sıyır – baspaǵı bar qaramal h.t.b.

Ógiz – sıyırdıń erkegi. Xalıq onnan gósh ushın yaki awır jumıslardı atqarıwshı kólik retinde paydalanǵan. Maxmud Qashǵariy miynetinde bul leksema өкӱз túrinde ushırasadı [М.Кошғарий, 1960. – Б.91]. Nawayı qaraqalpaqlarınıń sóylew tilinde usı mánide jumsalıwı menen birge qosımsha xızmetlerdi de atqaradı. Máselen, jası úlken adamlarǵa qarata qollanılıp, kóbinese adamnıń jası úlkenligin, kúshi kópligin bildiriw ushın qollanıladı. Negizinen bul leksema dáslep erkek qaramaldıń barlıǵına qarata jumsalsa, keyinen tek pishtirilgen qaramaldı ańlata baslaǵan [М.Кошғарий, 1960. – Б.597].

Nawayı qaraqalpaqları sóylew tilinde qoy-eshkilerge baylanıslı leksika da ayrıqsha orınǵa iye. Olar sanı jaǵınan basqalarına qaraǵanda anaǵurlım kóp. Máselen, shırbaz – eki aydan altı ayǵa

deyingi, toqtı – altı aydan on eki ayǵa deyingi qoy, tusaq – bir tuwǵanǵa deyingi qoydıń túri, qoy – ulıwma ataması, isek – on eki aydan on bes ayǵa deyingi erkek zat, qoshqar – eń úlken erkek qoy, qunan – úsh jıllıq qoshqar, dónen – tórt jıllıq qoshqar, axta – pishtirilgen qoshqardıń túri, ılaq – tuwılǵannan segiz aylıqqa deyin, shibish – bir yarım jıllıq eshki, eshki – ulıwmalıq ataması, teke (taka) – eshkiniń erkegi, serke (sarka) – pishtirilgen qoy.

Qozı – tuwılǵannan altı ayǵa deyingi qoydıń balası. Eski túrkiy tilinde de usı formada qollanılǵan. Nawayı qaraqalpaqlarınıń sóylew tilinde qozı, qozıshaq leksemaları teńdey jumsala beredi. Kishkene balalardı erkeletiw maqsetinde bul leksemadan paydalanıladı. Ayırım jaǵdaylarda antroponim sıpatında da keliwi múmkin.

Qoshqar – násil kóbeytiwde paydalanılatuǵın erkek qoy. Qoshqar sóziniń etimologiyası boyınsha bir neshe variant bar. Máselen, qoshqar sózi eki sóz (qos hám qarı) diń qosılıwınan jasalıp, qos múyizli degen mánini ańlatadı. Bul sózdiń kelip shıǵıwı boyınsha Maxmud Qashǵariy sózliginde oǵuzsha қач – qoshqar mánisin bildirip, negizi bul sóz *қочиӈар* formasında ekenligi haqqında maǵlıwmat beriledi [М.Кошғарий, 1960. – Б.311].

Nawayı qaraqalpaqları sóylew tilinde qoshqar sózi awıspalı mánide kúshli, batır mánilerin ańlatıw ushın jumsaladı. Házir de xalıq jaratqannan qoshqarday ul beriwin soraydı. Bul dástúr qaraqalpaq xalıq awızeki ádebiyatı úlgileriniń biri «Yaramazan»da saqlanıp qalǵan.

Juwmaqlap aytqanda, Nawayı qaraqalpaqları sóylew tilinde sharwashılıq leksikasına baylanıslı leksemalar kóp ushırasadı. Ásirese, jasqa baylanıslı qollanılatuǵın túrleri sóylew tilinde birde tuwra mánide jumsalsa, birde xalıqtıń dúnyatanımınan ǵárezli awıspalı mánide de qollanıladı. Olarda tek jergilikli aymaqqa tiyisli xalıqlıq mádeniy belgiler kórinedi. Bular Nawayı qaraqalpaqları tilindegi sharwashılıq leksikasın lingvokulturologiyalıq aspektte úyreniwge tiykar jaratadı.

PAYDALANÍLǴAN ÁDEBIYATLAR

1. Жакипов А. Термины верблюдоводство в казахском языке. АКД. Алма-Ата, 1983.
2. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I том. – Тошкент: «Фан», 1960.
3. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. IV том. Индекс. – Тошкент: «Фан», 1967.
4. Пахратдинов Қ. Животноводческая лексика в каракалпакском языке. АКД. Нукус, 1992
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). I жилд – Тошкент: «Университет», 2000.
6. Ходжагельдиев Б. Верблюдоводческая лексика в туркменском языке. АКД. Ашхабад, 1991.

“LISON UT-TAYR” DOSTONIDA QO‘LLANGAN PAREMALARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Xo‘jamova Mu’tabar Sanaqul qizi
NavDPI o‘zbek tili kafedrasi o‘qituvchisi
+998934399070 ***xojamovamotabar@gmail.com***

Annotatsiya: “Lison ut-tayr” asari O‘rta Osiyolik mashhur shoir Alisher Navoiy tomonidan yozilgan. U majoziy asar. Qushlar ta’riflangan bo‘lsa-da, asar Alloh visoliga yetishish haqidadir. Asarda uchragan maqol, matal, hikmatli so‘zlar semantik tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: ramz, majoz, maqol, hikmatli so‘z, erkin birikma

Annotation: The Language of the Birds was written by one of Central Asia’s most prominent poet, Alisher Navai. This is figurative work. Although the birds are described, the work is about the vision Allah. Proverbs, aphorisms and wise words found in the work were analyzed semantically

Key words: symbol, trope, proverb, aphorism, free compound

Аннотация: «Лисон ут-Таир» написал Алишер Навои, известный среднеазиатский поэт. Это фигуративное произведение. Хотя описаны птицы, речь идет о достижении воли

Божией. Пословицы, поговорки, мудрые слова, встречающиеся в произведении, были проанализированы семантически.

Ключевые слова: символ, метафора, пословица, мудрое слово, свободное сочетание.

Biz o‘zbek adabiyotini buyuk shoir Alisher Navoiy va uning boy merosisiz tasavvur eta olmaymiz. Navoiyning butun ijodini o‘rganish uchun yillar ketadi, hatto bir inson umri kamlik qiladi. Alisher Navoiy shu qadar serqirra ijodkorki yozgan asarlaridan har qanday mavzuni uchratish mumkin. Jumladan, “Lison ut-tayr” “Mantiq ut-tayr” dostoniga javoban yozilgan asardir. Ushbu asar Navoiyning so‘nggi asarlaridan biri. Navoiy ushbu asarida dunyo va borliq haqidagi qarashlarini yakunlaydi. “Lison ut- tayr” murakkab falsafiy dostondir. Ushbu maqolada dostondagi paremalarning semantik xususiyatlarini tahlil qilamiz.

Maqol, matal, aforizm xarakteridagi paremalarni semantik xususiyatiga ko‘ra klassifikatsiya qilishda ulardagi ma’noning qanday ifodalanishi – ko‘chma ma’noga ega bo‘lish-bo‘lmasligi asos qilib olinadi. Bu xususiyatiga ko‘ra o‘zbek tilidagi paremalarni quyidagi uch guruhga bo‘lish mumkin:

1. Faqat ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan paremalar: Sichqon sig‘mas iniga, g‘alvir bog‘lar dumiga kabi. Faqat ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan paremalar sintaktik jihatdan gap bo‘laklariga ajratib tahlil qilinmaydi. Agar gap bo‘laklariga ajratilsa, ularning ko‘chma ma’nosi yo‘qolib, oddiy gapga – erkin birikmaga aylanib qoladi, natijada “bir qaynovi ichida” gaplar hosil bo‘ladi.

2. Ham o‘z ma’nosida, ham ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan paremalar: Shamol bo‘lmasa daraxtning boshi (uchi) qimirlamaydi. Qo‘li qimirlaganning og‘zi qimirlar. Arg‘amchiga qil quvvat. Ignachining ming urgani, temirchining bir urgani kabilar. Bunday paremalar o‘z ma’nosida qo‘llanganda, oddiy gaplardek – erkin birikmalardek tahlil qilinadi, lekin ko‘chma ma’noda qo‘llanganda, gap bo‘laklariga ajratilmaydi.

3. Faqat o‘z ma’nosida qo‘llanadigan paremalar: Ilmni mehnatsiz egallab bo‘lmas. So‘raganning aybi yo‘q. Aql bozorda sotilmas. Bunday paremalarning grammatik jihatdan erkin birikmalardan farqi yo‘q. [4.19-б]

Ham o‘z ma’nosida, ham ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan maqol va matallar o‘z ma’nosida qo‘llanganda, oddiy gaplardek – erkin birikmalardek tahlil qilinadi, lekin ko‘chma ma’noda qo‘llanganda, gap bo‘laklariga ajratilmaydi.

Uchinchi tip maqollar esa grammatik jihatdan erkin birikmalardan umuman farq qilmaydi va bemalol komponentlarini tahlil qilish mumkin bo‘ladi.

“Lison ut-tayr” dostonining muqaddimaviy boblarida ham paremalar qo‘llangan bo‘lib, ularga alohida to‘xtalib o‘tamiz va semantik jihatdan tahlil qilamiz.

“...Onchakim bo‘lg‘ay badan qaydida ruh,
Qil anga ro‘zi shuhudingdin futuh.
Chu bu qushqa rixlat og‘oz o‘lg‘usi,
Gulshani aslig‘a parvoz o‘lg‘usi.
Qush tavajjuh aylasa uchmoq sari,
Tufroq etsa mayl ham tufroq sari”. [1.10-bet]

“Garchi ruh badan ichra tutqun bo‘lsa ham, uni mushohada etiladigan
kun qo‘yib yubor. Toki bu qush safarga moyil bo‘lib, asl gulshan tomon parvoz qila olsin. Chunki qush uchmoq sari intilgani, tuproq esa tuproqqa qorishgani ma’qul”.[2.3-bet]

Paremadagi “qush”, “uchmoq” va “tufroq” so‘zlari ikki ma’noda qo‘llangan. “Qush” ham qanotli jonzot, ham ruh ma’nosida, “uchmoq” ham parvoz etmoq, ham jannat ma’nosida, “tufroq” esa ham yer unsuri, ham inson tanasi ma’nosida qo‘llangan. Ajratilgan baytni undan oldin kelgan baytlardan kelib chiqib “ruh jannat sari, tana esa tuproqda qolgani yaxshi”, deb tushunish mumkin, yoki “qush uchgani ma’qul, tuproq esa tuproqqa qo‘shilishi kerak” degan leksik ma’no kelib chiqadi. Bu holatda so‘zlar semantik jihatdan o‘z ma’nosida qo‘llangan.

Paremalarda asosan ot, sifat, son va fe’l so‘z turkumlari qo‘llanadi. Albatta, bular orasida ot so‘z turkumi paremaning semantik tuzilishida yetakchilik qiladi. Chunki fikrni ixcham ifodalash maqsadida ot so‘z turkumining imkoniyati boshqa turkumlar imkoniyatidan ancha ortiq. Asosan, shaxs otlari va somatik a’zolar, o‘simlik, hayvon, maishiy-ro‘zg‘or buyumlari paremalar

strukturasini shakllantirishga xizmat qilgan. Paremalarda son, olmosh, ravishlarning qo‘llanishi ancha cheklangan.

Dostonning muqaddima qismidan Alisher Navoiyning Shayx Farididdin Attorga madh-u sanosi:

“...Lek haq tavfiq bersa, men gado
Shayxning ruhiga aylab iqtido.
O‘yla qushlar nutqini izhor etay,
Bulbul-u to‘ti kibi guftor etay.
Kim xaloyiq chun tarannum aylagay,
Qush tili birla takallum aylagay.
Lek surmak nuktani to‘ti misol,
Budur insof o‘lsa, ey farxunda fol.
Kim bu to‘ti to‘masi bo‘lg‘oy shakar,
Ul shakar fikr aylasang bo‘lg‘ay magar”. [1.29-bet.]

“...Ammo haq madad bersa, mendek bir gado ham Shayx ruhidan yordam olib, qushlar nutqini izhor qilmoqchiman, huddi bulbul yoki to‘tiga o‘xshab so‘zlmoqchiman. Shu tariqa xaloyiqqa qo‘shiq kuylab, qush tili bilan so‘zlamoqchiman. Ayrim xalq maqollari qiyos, chog‘ishtirish munosabatini ifodalaganda, qo‘shma gap ko‘rinishida shakllangan maqolning birinchi komponenti tarkibida shaxs otlari ishtirok etadi, ikkinchi qismida esa hayvon nomlari qatnashadi. Ushbu paremada ham xuddi shunday xususiyatni ko‘rishimiz mumkin.

Hayvon nomlari ishtirokida tuzilgan paremalar hikmatlar xazinasining juda katta qismini tashkil etadi. Buni xalqimizning fikrini oshkora ifodalamay, ishora-yu ramzlar vositasida etkazish, o‘zgalar ko‘nglini ehtiyotlash kabi ulug‘ samimiyati bilan izohlash mumkin. Ayni shunday ifoda imkoniyatiga paremalar vositasida erishish mumkinligini dono xalqimiz juda yaxshi bilgan. Shundan bo‘lsa kerak, zoonimlar markaziy element sifatida yaratilgan paremalar o‘zida emotsional-ekspressiv xususiyatlarni namoyon etadi.

Mazkur strukturadagi maqollar bir qator semantik xususiyatlarga ega bo‘lib, ulardan ayrimlari ko‘chma ma’noga asoslanadi, ya’ni “shaxsga xos” ma’no reallashadi, ayrimlarida esa “hayvon” ma’nosi saqlanadi.

Lekin ma’noni to‘ti misol shirin-shakar qilib aytish, albatta, har kimning qo‘lidan kelavermaydi. Chunki to‘tining yemishi shakar bo‘lib, bu shakarni quruq xayol qilish bilangina hosil qilib bo‘lmaydi”. [2.9-bet.]

Navoiy “qush tili” bilan so‘zlamoqchi ekani va so‘zni to‘ti misol shirin guftor ila ifodalamoqchi ekanining sababi sifatida “to‘tining yemishi shakar” ekani va “shakar yeyish shunchaki o‘y-xayol qilish bilan amalga oshmasligi” ni hayotiy misol kelrirish va sabab ko‘rsatish orqali dalillaydi. Buni ham o‘z ham ko‘chma ma’noda qo‘llangan paremaga misol qilib olsak xato bo‘lmaydi. Ya’ni bugungi kundagi “holva degan bilan og‘iz chuchimaydi” maqoliga semantik jihatdan mos keladi.

Dostondagi hikoyatlarda ham paremalar juda ko‘p uchraydi. Masalan, Ishq va Talab vodiylari bayonida bir necha marta qo‘llangan.

Masalan, Hudhudning Tazarv (tustovuq) uzriga javob tarzida aytilgan Muqbil va Mudbir haqidagi hikoyatni paremaning ma’nosi yaxshi tushunilishi uchun keltirib o‘tamiz:

Ulardan biri yo‘lsiz, ikkinchisi esa tariqat bilimdoni edi. Biri nuqsonli, ikkinchisi esa komil edi, birining oti Mudbir, ikkinchisining oti Muqbil edi. Bir yo‘l aro ikkisi ketib borar edi. Mudbir yo‘l azobidan nolisa, Muqbilga shukronalik yo‘ldosh edi. Kunlarning birida ular qarshisidan go‘zal bir shahar chiqibdi. Hamrohlar bir-birlaridan ajralishibdi. Muqbil faqrlar turadigan ko‘chaga, Mudbir esa axloqsizlar tomon yuzlanibdi. Mamlakal shohi Muqbilga yuz hurmat ehtirom ko‘rsatib, uni ko‘rgani kelibdi. Shoh u bilan suhbatlaahib turgan paytda yomon xulqli Mudbirni bir guruh odamlar sudrab kelishibdi. Aytishlaricha, bezorilar ichib aysh-u ishrat qurgach ulardan biri Mudbirga “Sen badbasharasan” degan ekan, shu so‘zi uchun bu ablah o‘sha odamga xanjar urib, halok qilibdi. Shoh buni eshitgach odillik ko‘rsatib, Mudbirdan qasos olish haqida hukm chiqaribdi.

Hikoyat quyidagicha hikmat keltirilib yakunlanadi:

“...Xudshikanga yetti ul oliy maqom,
Xudnamo topti bu yanglig‘ intiqom.
Uchqun o‘ldi ozimi charxi barin,
Qoldi quzurot uza inshar chibin”. [1.77-bet.]

Mazmuni: “...Kamtar kishi (Muqbil) shu tarzda shoh suhbatiga musharraf bo‘lib, oliy martabaga erishdi. Xudbin (Mudbir) esa shu yanglig‘ jazosini oldi. Uchqun yuksak osmon sari ko‘tariladi, yaltiroq chivin bo‘lsa axlat ustida qoladi”. [2.24-bet] Paremada kontekstual antonim qo‘llangan. “Uchqun” va “chivin” so‘zi matndan tashqarida hech qanday antonimlik hosil qilmaydi, lekin baytda bular o‘zaro zid tushunchadir. Qiyos mazmunidagi ushbu paremada jonsiz narsa otlari, hasharot nomlari shaxs oti uchun o‘xshatish vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Maqolni ko‘chma ma’noda olsak ham, o‘z ma’nosida olsak ham bo‘ladi. Ya’ni “harakat qilgan odam o‘z maqsadiga erishadi”, “qimirlagan qir oshar” kabi maqollarga variantdosh qilsak, semantik jihatdan mos keladi.

Bir qancha olimlarning fikricha, paremalarda eng ko‘p uchraydigan vositalardan biri antonimlik hodisasi hisoblanadi. Buning asosiy sabablaridan biri, unda paremada aks etgan voqeaning tabiatidagi ziddiyatni aks ettirish orqali tomonlardan biri yo tasdiqlanadi, yo inkor etiladi. Odatda paremalardagi antonimlik usulida voqelikning turli-tuman xossalari: hajmi, rangi, bo‘yi, uzunligi, masofa kabi jihatlar qarama – qarshi qo‘yiladi.

Qushlar Hudhuddan o‘zlarining Simurg‘ga bo‘lgan nisbatlarini so‘raydilar: “Qatraning dengizga nisbati ne bo‘ladi?”. Hudhud qushlarga javob beradi, Simurg‘ zuhuridan xitob qiladi. Simurg‘ning bir oliyjanob shahanshoh ekanini, uning butun olam go‘zalligini o‘zida saqlovchi zoti avval maxfiy bo‘lganini aytadi. U o‘zining ko‘rinishini tamanno qilib, asta-sekin jilvalana boshladi. Bu jilvalanishda juda ham ko‘p soyalar oshkor bo‘la boshlaydi. Demakki, qushlar bilan Simurg‘ o‘rtasidagi nisbat ham shunda edi. Buni anglaganlar esa sir saqlashlari lozim. Chunki bu sir kimga ma’lum bo‘lsa, u haqqa cho‘madi, u bilan bir butunga aylanadi, qorishib ketadi. Hudhud aytmoqchiki, qushlarning barchasi soyalardir. Agar Simurg‘ o‘z soyasini istab, jilva etmaganda soya egasi bo‘lmasdi.

“...O‘zni Simurg‘ istasa erdi nihon,
Soyasi bo‘lmas edi hargiz ayon.
Soyaafkanning vujudidin dalil,
Soya zohir bo‘lgmog‘in tahqiq bil ”.[1.97-bet]

Ya’ni bordi-yu Simurg‘ o‘zini yashirin tutishni xohlasa, uning soyasi hech qachon ayon bo‘lmasdi. Soyaning oshkor bo‘lmog‘i soya beruvchining vujudi haqida dalil bo‘la oladi. Go‘zal tasvir, inkor qilib bo‘lmas dalil misol keltirilgan. Haqiqatdan ham, soya bormi, demak, albatta, qayerdadir soya egasi bo‘ladi. Shoir Hudhud tilidan aytmoqchi bo‘lgan muddaosi ham shundan iborat, biz Oliy Zotning soyasimiz.

Keyingi baytga to‘xtalamiz:

“Ko‘zgu ravshanroq necha qilsa zuhur,
Zohir o‘lg‘ay aks onda bequsur”.[1.99-bet.]

Mazmuni: Ko‘zgu qanchalik ravshan bo‘lsa, aks ham shunchalik benuqson bo‘ladi.[2.32-bet] Paremada qanchalik va shunchalik leksemalari ta’kid va kuchaytirishga xizmat qilgan.

“Sen bu ko‘zguni ko‘lgil deb xayol qil”, – deydi Hudhud: “Unda o‘sha jamol o‘z aksini ko‘rsatadi”. Qasrni inson tanasi, undagi ko‘zguni ko‘ngil deb ta’riflaydi muallif. Bu ko‘zguda shoh husniga nazar tashlash lozimligini uqtiradi. Buning uchun, avvalo, ko‘zguga jilo berish kerak. Paremani semantik jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak, to‘lig‘icha ko‘chma ma’noga ega.

Xulosa qilib aytganda, “Lison ut-tayr” dostonida qo‘llangan paremalarda sifat so‘z turkumi asosan ot so‘z turkumi bilan kelib uni aniqlab keladi. Fe’l so‘z turkumi paremaning grammatik asosini tashkil qiladi va kesim vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. XII tom. Lison ut-tayr. Fan. – Toshkent, 1996
2. A.Navoiy. Lison ut-tayr. Nasriy bayoni www.ziyouz.com kutubxonasi
3. A. Navoiy. Lison ut-tayr. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2019.

4. Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. – Т.,:Ўқитувчи. 1984.

GULXANIYNING “ZARBULMASAL” ASARIDAGI “ODOB VA TARBIYA” GA OID MAQOLLARNING LINGVISTIK TAHLILI

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОСЛОВИЙ, КАСАЮЩИХСЯ "МАНЕРОВ И ОБРАЗОВАНИЯ" В "ЗАРБУЛМАСАЛЕ" ГУЛХАНИ

LINGUISTIC ANALYSIS OF PROVERBS RELATING TO "MANNERS AND EDUCATION" IN GULKHANI'S

To‘ymurodov Dilshodjon Dilmurodovich
BuxDU O‘zek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi
1-bosqich tayanch doktaranti
Tel: 90-613-78-74 elektron manzil:
d.d.toymurodov@buxdu.uz

Annotatsiya: Xalqimiz azal-azaldan farzandlarning ta’lim-tarbiyasiga e’tibor qoratishgan. Tahlillarimizdan kelib chiqqan holda “Zarbulmasal” asaridagi xalq maqollarini o‘rganish orqali uning “Odob va tarbiya” mavzusiga oid maqollarni bir guruhga jamladik. Maqollarni lingvistik tadqiq etishimiz natijasida uning etimologik, sitilistik o‘ziga xosliklari aniqlandi.

Аннотация: Наш народ с незапамятных времен уделял внимание образованию детей. На основе нашего анализа, изучая народные пословицы в произведении «Зарбулмасал», мы собрали пословицы, относящиеся к теме «Этикет и воспитание», в одну группу. В результате лингвистического исследования пословиц были определены ее этимологические и стилистические особенности.

Abstract: Our people have been paying attention to the education of children since time immemorial. Based on our analysis, by studying the folk proverbs in the work "Zarbulmasal", we gathered the proverbs related to the theme "Etiquette and Education" into one group. As a result of our linguistic research of proverbs, its etymological and stylistic peculiarities were determined.

Kalit so‘zlar: Maqol, leksikologiya, yog‘och, kelin, tilshunoslik, ajdodlar.
Ключевые слова: Пословица, лексикология, лес, невеста, языкознание, предки
Key words: Proverb, lexicology, wood, bride, linguistics, ancestors.

Xalqimiz azal-azaldan farzandlarning axloq-odobi, ta’lim-tarbiyasi, yurish-turishiga e’tibor qoratishgan. Bunda xalqimizning chuqur ma’naviy ildizlari, ajdodlarning ilm-fanda erishgan yutuqlari tamal toshi bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek adabiyotining turli janrlar orasida didaktik adabiyotning kengroq rivojlanishini yuqoridagi fikrlarimizning isboti o‘laroq ko‘rishimiz mumkin. Chunonchi, o‘rta asrlardagi shoir va yozuvchilar ijodiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ular asosan insonning o‘zini anglashi, atrofdagilar bilan yaxshi muomalada bo‘lishi, kamtarlik, saxiylik, birovni haqqini yemaslik kabi ezgu g‘oyalarni targ‘ib qilish birinchi planga olib chiqilgan. Bunda ijodkorlar turli xil rivoyatlar va hikoyatlarni yoki tarixiy voqealarni keltirish orqali o‘z asarlarini boyitishga harakat qilganlar.

Bu borada Muhammad Sharif Gulxaniyning didaktik “Zarbulmasal” asari o‘ziga xoslik kasb etadi. Gulxaniyning ijodiy yutug‘i shundaki, u o‘z asarida rivoyat-u hikoyatlarni keltirish bilan birga xalq og‘zaki ijodidan mohirona foygalandi. O‘zbek xalq maqollarini asar qahramonlari tilidan keltirib, “Zarbulmasal” ning xalqchilligiga, keng omma, kitobxonlar o‘qiydigan yengil, tez yetib boradigan asarga aylantirdi.

O‘zbek tilshunosligi rivojlanar ekan tilimizning har bir birliklarini tadqiq etish dolzarblik kasb etmoqda. Shu jumladan o‘zbek xalq maqollarini o‘rganish, uning o‘ziga xos jihatlarini aniqlash bugunda dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Muhammad Sharif Gulxayning “Zarbulmasal” asarida 400dan ortiq maqol va matallar mavjud bo‘lib, hozirgacha matnshunos olimlar F.Is’hoqov hamda akademik M.Qo‘shjonov va X. Nazarovalarning “Zarbulmasal” ning badiiy xususiyatlari, tili va uslubini, Gulxaniyning hayoti va ijodini o‘rganishga doir ishlari muhim ahamiyatga ega. “Zarbulmasal” asaridagi maqollardan foydalangan holda Kodirova Saodat Abdiraximovnaning “ “Zarbulmasal” maqollari: semantik-struktural va tadrijiy takomilning qiyosiy tahlili” haqidagi ilmiy ishi amalga oshirilgan bo‘lib, haligacha “Zarbulmasal” asaridagi maqollarning lingvistik tahlili, ularning mavzuviy guruhlanishi kabi qator masalalar mavjud. Biz quyida “Zarbulmasal” asaridagi “Odob va tarbiya” ga oid maqollarni tahlil qilishga harakat qilamiz.

Aldatsang ham yoshqa aldat

Hayotda hamma ham ma’lum vaziyatda birovni aldashga majbur bo‘ladi. Shunday bo‘lsa-da, har bir kishining yoshiga qarab aldash kerak. Xususan, yosh bolaga aytiladigan gaplarga katta yoshdagilar ishonmaydilar. Bu maqolni kinoya ma’nosida ham qabul qilish mumkin. Ya’ni aldanayotgan inson aldovlarga ishonmasligini shu maqol bilan ham ifodalashi mumkin.Ya’nikim, “Qo‘ysang-chi, sening bu gaplaringga ishonmayman. Men yosh bola emasman-ku”. degan fikrni ifodalashga xizmat qiladi.

Ebi bilan (kulganni) qurboni bo‘l

Maqolda har ishning sir-asrorini, amalga oshirish yo‘lini bilib, ehtiyotkorlik bilan bajarib, foyda keltiradigan insonlarning har bir xatti-harakatiga tasanno aytib, shunday insonlar bilan hamroh bo‘lish kerakligi aks ettirilgan. Har narsaning o‘z me’yori bor. Shu me’yorni biladigan, kulgini ham o‘z joyida ishlatadigan, odob bilan kuluvchi, farosatli insonlarga sadqa bo‘lsang arziydi, deyilmoqda. Har narsaning me’yorini bilib ish tutuvchilar esa oqil kishilardir.

Erman yag‘ochini egilgani – singani, er yigitni uyolgani – o‘lgani

Erman hozirgi kunda “eman” shakliga kelib qolgan. Eman – yog‘ochi oqish va juda qattiq, keng yaproqli jigarrang uzunchoq mevali daraxt. Bu maqol bugungi kunda quyidagi ko‘rinishda uchraydi: “Eman daraxtining egilgani – singani, Er yigitning uyalgan – o‘lgani". Bundan ko‘rinib turibdiki, maqolda ikki so‘z o‘zgarishga uchragan. Ammo maqolning birinchi ko‘rinishidagi yag‘och so‘zi ham daraxt ma’nosini anglatadi. “Uyat – o‘limdan qattiq” deganlaridek, azal-azaldan yigitlar uchun or-nomus, uyat, obro‘ birinchi o‘rinda bo‘lib kelgan. Odamlar orasida uyatda qolib, izza bo‘lish sharmandali hol sanalgan. Shu sababli ham har bir yosh yigit uyalib qolmaslikka, o‘z kuch-quvvatini ,jasurligini namoyish etib, har qanday ishda oldingi safda turib mehnat qilishni o‘zi uchun ham farz ham qarz hisoblagan. Mard, jasur yigitlar uyatda qolishdan ko‘ra o‘limni afzal bilganlar. Uyatning har narsadan ustunligi, uning inson ko‘rki ekanligi izohlanayotgan maqolning quyidagi sinonim va variantlarida ham aksini topgan. “Oqar suvning to‘xtagani–tingani, Er yigitning uyalgani–o‘gani”; “Er yigitning bosh solgani–o‘lgani”; “Qizil yuzli yigitning–o‘lgani”; “Er yigitga ikki nomus–bir o‘lim”; “Quyonni qamish o‘ldirar, Erni–nomus”; “Nomus–yarim o‘lim”; “Nomus–o‘limdan yomon”; “Nomus–balodur, O‘tga suvga solodir”; “Odamni ochlik emas, or o‘ldirar”; ”Yigitni or o‘ldirar, Tuyani–sarvar”(sarvar–og‘ir yuk); “Mayna bo‘lmoq– tirik o‘lmoq”; “O‘limdan ham uyat yomon”; “Ne yomon–or-nomus yomon”; “Izza–bir qozon jizza”; “Uyat yuzda bo‘ladi, Mehr ko‘zda”; “Ko‘z-ko‘zga tushsa, yuz uyalar”; “Yuz-yuzga tushar, Uyat–ichga”; “Yuz qizili ketar, Yuz xijili ketmas”; ”Uyat yo‘q o‘g‘il yomon, Qilig‘i buzuq qiz yomon”.

Otolmagan sopqon ham boshqa tegat, ham (ketga)

Maqolning variantlari: “Otolmaganning sopqoni ham betga tegar, ham ketga”; “Otolmaganning o‘qi olti qulochdan oshmas” Inson biror ishga qo‘l urishga va’da berdimi, albatta, uni bajarishi

kerak. Agar u uddalay bilmasa, ham o‘ziga ham yaqinlariga ozor berishi mumkin. Bu maqol qo‘lidan biror ish kelmasa ham garillovchi, va’daboz insonlarga qarata aytiladi. Qo‘lidan ish kelmaydiganlar foyda kelirmaydilar va, aksincha, ikki baravar ziyon olib keladilar. Shunday holatlarni ifodalab va ayni damda bunday kishilarni biroz epchilroq bo‘lishga chorlab ham shu maqolni qo‘llaydilar.

“Qizim, sanga aytaman, kelinim san eshit”

Ba’zan shunday bo‘ladiki, bir gapni tegishli odamning yuziga bevosita aytmaydilar-da, uning ishtirokida boshqa birovga aytadilar. Tegishli odam ziyrak bo‘lsa, bu gap uning o‘ziga tegishli ekanini darhol fahmlab oladi va shunga ko‘ra ish tutadi. Yuqoridagi maqol bilan ana shunday holni ifoda etadilar. Bu maqolning qo‘llanilish sabablaridan yana biri bizning o‘zbek xalqimiz nihoyatda odobli, farosatli, boshqalarning betiga yugurmaydigan xalq. O‘zbeklar o‘zgalar kamchiligini hammaning oldida aytib, birovni kamsitmaydilar, o‘z farzandlariga tanbeh bersalar ham, boshqalarning jigarbandiga ozor berishni xohlamaydilar. Shuning uchun ham shu maqol qabilida ish tutganlar.

Sungan bo‘yinni qilich kesmas

Kishi takabburlik qilmasdan, o‘zini o‘zgalardan baland tutmasdan, kamtarin bo‘lsa hech ham ziyon ko‘rmaydi. Aksincha boshini egib, tavozelik bilan birovning aytganiga ko‘nsa, barcha mushkul vaziyatlardan eson-omon qutilib chiqadi. Kamtar inson hech qachon kamchilik ko‘rmaydi. Inson biror xatolikka yo‘l qo‘yganda ham o‘z aybini tan olinib, qilgan xatolaridan tonmay, ochiq-oydin aybiga iqror bo‘lsa, o‘zgalar uni kechirib, yana bir bor imkon beradilar. Aksincha, buning aksini qilsalar boshqalarning ko‘nglini o‘zlaridan sovitadilar. Mana shunday qilgan gunohini tushinib, uni to‘g‘rilashga uringan kishilarga, ularning xatti-harkatlariga nisbatan ham bu maqol ishlatiladi.

Cho‘bni xor tutsang- ko‘zinga tushar

Bu maqol majoziy ma’noda insonlarga befarq qaratilgan, ularga bepisand qaraydiganlarga qaratib aytilgan. Agar ular shu avfolda davom etsalar, bir kun holiga voy bo‘lishi mumkin. Bu maqol orqali har bil narsani qadrli va qadrsiz bo‘lishidan qat’iy nazar xor, isrof qilmaslik kerakligi uqtirilmoqda, bir narsani avaylash kerakki, vaqti kelganda uning foydasi tegadi, Aksincha, xor-zor qilingan har bir narsa bir zamoni kelib o‘zing uchun zarar keltirishi hech gap emas. Hattoki, oddiy cho‘pni ham xor qilmaslik kerakki, ko‘zinga tushub senga ziyon keltirmasin. Maqoldagi cho‘b so‘zida fonetik o‘zgarish yuzaga kelib, bugungi kunda cho‘p shaklida qo‘llanadi.

Yuqoridagi tahlillarimizdan kelib chiqqan holda “Zarbulmasal” asaridagi xalq maqollarini o‘rganish orqali uning semantik guruhlaridan bir bo‘lmish “Odob va tarbiya” mavzusiga oid maqollarni bir guruhga jamladik. Bu guruhdagi maqollarni o‘rganishdan maqsad shuki, xalqimizning ananalari, urf-odatlarini bus-butunligicha saqlagan holda kelajak avlodga yetkazish. Maqollarni lingvistik tadqiq etishimiz natijasida uning fonetik, leksik, etimologik, sitilistik, lingvokulturologik o‘ziga xosliklari aniqlandi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Qayumov P. Qo‘qon adabiy muhuti.-Toshkent, 1961, 156-bet.
2. Муҳаммад Шариф Гулханий. Зарбулмасал.-Тошкент, 1974. (17,27,29,32,35).
3. ЎМЭ. Тошкент, 2016. (9-10,26-27,80,185,193,478,860).

FIZIK TERMINLARNING STRUKTUR TADQIQI

Ezoza Xolpo‘lat qizi QILICHOVA,
NavDPI tayanch doktoranti
ms.qilichova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola turli atamalar va tushunchalar oʻrtasidagi murakkab munosabatlar va aloqalarga e'tibor qaratib, fizika sohasidagi atamalarni tizimli oʻrganishni oʻrganadi. Ushbu atamalarning asosiy tuzilishini tahlil qilish orqali tadqiqotchilar fizika qonunlarini tartibga soluvchi asosiy tamoyillarni chuqurroq tushunishga intiladi. Maqolada ushbu tizimli tahlil murakkab nazariyalar va modellarni aniqlashtirishda, shuningdek, ushbu sohadagi yangi tushunchalar va istiqbollarni ochishda qanday yordam berishi mumkinligi muhokama qilinadi. Umuman olganda, tadqiqot tabiiy dunyoni tushunishimizni yaxshilash uchun fizikadagi atamalarning tarkibiy tuzilishini oʻrganish muhimligini ta'kidlaydi.

Abstract: This article explores the structural study of terms in the field of physics, focusing on the intricate relationships and connections between various terms and concepts. By analyzing the underlying structure of these terms, researchers aim to gain a deeper understanding of the fundamental principles that govern the laws of physics. The article discusses how this structural analysis can help in clarifying complex theories and models, as well as in uncovering new insights and perspectives in the field. Overall, the study highlights the importance of examining the structural organization of terms in physics to enhance our comprehension of the natural world.

Аннотация. В этой статье исследуется структурное исследование терминов в области физики, уделяя особое внимание сложным отношениям и связям между различными терминами и понятиями. Анализируя основную структуру этих терминов, исследователи стремятся получить более глубокое понимание фундаментальных принципов, управляющих законами физики. В статье обсуждается, как этот структурный анализ может помочь в прояснении сложных теорий и моделей, а также в раскрытии новых идей и перспектив в этой области. В целом, исследование подчеркивает важность изучения структурной организации физических терминов для улучшения нашего понимания мира природы.

Kalit soʻzlar:strukturaviy tadqiq, ilmiy-texnikaviy matnlar, va texnik matnlar, nutq birliklari, korpus, tizimli modellari ekstralingvistik omil.

Keywords: structural research, scientific and technical texts, and technical texts, speech units, corpus, systematic models, extralinguistic factor.

Ключевые слова: структурные исследования, научно-технические и технические тексты, речевые единицы, корпус, систематические модели, экстралингвистический фактор.

Fizika sohasi murakkab va xilma-xil fan boʻlib, u tabiiy dunyoni boshqaradigan asosiy tamoyillarni oʻrganadi. Fizikaning asosiy jihatlaridan biri bu sohaning asosini tashkil etuvchi atama va tushunchalar tuzilishini oʻrganishdir. Ushbu maqolada biz fizikadagi asosiy atamalarni strukturaviy oʻrganishni koʻrib chiqamiz, bu atamalarning fizikaning turli sohalarida qanday aniqlanishi, oʻzaro bogʻliqligi va qoʻllanilishini oʻrganamiz. Fizika terminologiyasining asosiy tuzilishini oʻrganish orqali biz fizik olamni oʻrganishga asos boʻlgan til va tushunchalarni chuqurroq tushunishni maqsad qilganmiz. Biz fizika sohasini belgilaydigan murakkab atamalar tarmogʻini ochib, ushbu sayohatga qoʻshiling. Kuzatish va eksperimentlar orqali tabiiy dunyoni tushunishga intiladigan fundamental fan sifatida fizika uning nazariyalari va qonunlarining asosini tashkil etuvchi koʻplab atama va tushunchalar bilan toʻldirilgan. Ushbu atamalarni tizimli oʻrganish fizikaning turli boʻlimlarining oʻzaro bogʻliqligini va ular bizning koinotni tushunishimizga qanday hissa qoʻshishini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Fizikada atamalarni tizimli oʻrganish fanning turli boʻlimlarining oʻzaro bogʻliqligini va ular birgalikda tabiat dunyosini tushunishimizga qanday hissa qoʻshishini ochib beradi. Fizika asosini tashkil etuvchi asosiy tushunchalar va tamoyillarni oʻrganib, biz yashayotgan olamning goʻzalligi va murakkabligini chuqurroq anglab yetamiz.

Y.I.Butenko, N.S.Nikolaeva , T.D.Margaryan "Ilmiy va texnik matnlar korpusini belgilash uchun terminologik iboralarning strukturaviy modellari" haqida maqola chop qilgan. Maqolada ilmiy va texnik matnlar korpusini belgilashning avtomatlashtirilgan vositalarini yaratish uchun asos sifatida "Payvandlash" fanidan terminologik iboralarning tarkibiy modellari keltirilgan. Korpus tilshunosligida ilmiy-texnikaviy matnlar korpusining oʻrni va ular asosida keyingi ilmiy tadqiqotlar istiqbollari koʻrsatilgan. Tadqiqotning dolzarbligi umuman ilmiy va texnik matnlar korpusini va

6. Usmon Azim. Tanlangan asarlar. // K.Mullaxo‘jaeva. Yuraknining a’moli. – Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2016. J. 1. – B. 15.
7. Usmon Azim. Yurak. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2003. – B. 28.
8. Yo‘ldoshev N. Cho‘lpon she’riyatida peyzaj. – Toshkent: NDA, 1994. – B. 35.

TOHIR MALIK ASARLARIDAGI LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLAR TAHLILI

Davronova Surayyo Mardon qizi
Navoiy davlat pagogika instituti
ikkinchi kurs magistranti
+998907448086
davronovasurayyo@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tohir Malikning “Kelinlar daftariga” nomli kitobidan foydalanilib , undagi maqol, turg‘un birikma va boshqa turdagi lingvokulturologik birliklar chuqur tahlil qilingan. Lingvokulturologik birliklarning asliyatiga katta e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: lingvokulturologiya, lingvomadaniyat, lingvokulturologik birlik, maqol, frazema, turg‘un birikma, madaniyat.

ANALYSIS OF LINGUOCULTURAL UNITS IN TAHIR MALIK'S WORKS

Annotation: This article uses Tahir Malik's book "Kelinlar daftariga" and analyzes proverbs, fixed conjunctions and other types of linguistic and cultural units in depth. Great attention is paid to the originality of linguistic and cultural units.

Key words: linguo-culturalism, linguo-culture, linguo-cultural unit, proverb, phrase, fixed combination, culture.

АНАЛИЗ ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫХ ЕДИНИЦ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ТАХИРА МАЛИКА

Аннотация: В этой статье используется книга Тахира Малика «Келинлар дафтарига» и углубленно анализируются пословицы, устойчивые союзы и другие типы языковых и культурных единиц. Большое внимание уделяется своеобразию лингвокультурных единиц.

Ключевые слова: лингвокультурализм, лингвокультура, лингвокультурная единица, пословица, словосочетание, устойчивое сочетание, культура.

124 Alisher Navoiy. Devoni Foniy. MAT. 20 tomlik. –Toshkent, Fan. 2003. –B. 348.

Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o‘zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o‘ziga xos ko‘rinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o‘rtasidagi alohida spetsifik yo‘nalishi va predmetiga ega bo‘lgan yangi soha - lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Lingvokulturologiya fanning maxsus tarmog‘i sifatida XX asrning 90-yillarida vujudga keladi. Lingvokulturologiyaning rivojlanish davri ikki turga bo‘lingan: birinchi davr bu V.Gumboldt, A.A.Potebnya, E.Sepir va boshqa olimlar ishlarning rivojlanish davri, ikkinchi davr esa lingvokulturologiyani mustaqil o‘rganish tarmog‘i sifatida shakllanishidir. Fanning rivojlanish dinamikasi yana bir davr, ya’ni uchinchi davrni kuzatishni taqazo etadi, bu lingvokulturologiyani fundamental fan sifatida paydo bo‘lishidir. Tadqiqotchilarning qayd qilishicha, “lingvokulturologiya”(lot.lingua “til”;cultus “hurmat qilish, ta’zim qilish”;yunon. “ilm, fan”) V.N.Teliya rahbarligida Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan izlanishlar bilan bog‘liq ravishda paydo bo‘lgan[125].

Lingvokulturologiya til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganadigan yangi soha hisoblanadi. U til va madaniyat kesishgan nuqtada vujudga kelgan . Lingvokulturologiya til va madaniyatning o‘zaro ta’sirini, aloqasini tilda o‘zining aksini topgan xalq madaniyatining ko‘rinishlarini o‘rganuvchi soha hisoblanadi. Lingvokulturologiyaning asosiy predmeti lingvokulturologik birliklar sanaladi va ularga maqol, matal , frazeologizmlar, nutqiy muomala , o‘xshatishlar , nutq etiketi va hokazolar kiradi. Ushbu maqolamizda ham Tohir Malik asaridagi lingvokulturologik birliklarni tahlil qilamiz.

Tohir Malikning “Kelinlar daftariga” nomli kitobidan quyidagi lingvomadaniy birliklarni tanladik va ularni tahlil qildik.

“Er – xotinning urushi –doka ro‘molning qurishi” (birinchi suhbat 11-bet)

Bu maqolning boshqacha variantlari : “er-xotinning urishi – yoz kunining yog‘ishi”, “er-xotinning urishi-jo‘ja xo‘roz urishi”[126]. Yoz yomg‘iri yo‘g‘ishi bilan darrov to‘xtaydi va quriydi, jo‘ja xo‘rozlar cho‘qishib urushsa ham darrov apoq –chapoq bo‘lib ketadi. Doka harir, yupqa ip gazlama bo‘lganligi uchun darrov quriydi. Aksariyat hollarda er – xotinlarning urishib darrov yarashib ketishi, yuqoridagi tez yuz berib tugaydigan hodisaga o‘xshatilgan. Ushbu maqolda lingvokuturologik birlik sifatida *doka ro‘mol* so‘z birikmasi olingan. Nima uchun ushbu maqolda aynan doka ro‘mol ishlatilgan? Shapka emas, ko‘ylak emas yoki boshqa bir buyum emas. Birinchi sabab , bu matoning xususiyati yani doka matosi yuvib dorga ilinishi bilan darrov qurib qoladi va aynan er-xotin urushsa ham xuddi shu tarzda darrov yarashib olishadi ,- deyilmoqchi. Ikkinchi tomondan esa ro‘mol nafaqat milliylikni, o‘tmishni, o‘zbek ayollarining madaniyati, iffati va go‘zalligini ko‘rsatib beradigan qadimdan to hozirgi kungacha kiyiladigan bosh kiyim hisoblanadi. O‘zbekistonning ba’zi viloyatlarida ayollarning turmushga chiqqan chiqmagani aynan ularning ro‘molidan bilinadi ya’ni ayol kishi ro‘mol o‘ragan bo‘lsa oilali, agar o‘ramagan bo‘lsa , boshi ochiq hisoblanadi. Ayollarning ro‘mollarining rangi ham hatto ularning hozir qaysi vaziyatda ekanliklarini bildiradi . Misol uchun oq yoki qora ro‘mol motam ramzini bildirsa , qizil ro‘mol yosh kelinlarga va qizlarga xoslikni, sariq, yashil, pushti ranglar esa bayram kayfiyatidagi ranglar hisoblanadi.

“Oiladagi erning o‘rni va martabasini **choyxona**da to‘plangan to‘rt beshta erkak bamaslahat belgilab bermagan”(“Baxt saroyi” 20-bet)

[125] Usmonova.Sh.,2019.-S.16.
[126] «Hikmatnoma. O‘zbek xalq maqollarining izohli lug’ati” Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov., 1990.- S.442.

Ushbu gapdagi choyxona so‘zi lingvokulturologik birlik sanaladi. Choyxona so‘zi asli odamlar choy ichadigan joy ma’nosidan kelib chiqqan, choy ham milliy ichimlik hisoblanadi. Millatimizda bu joyga faqatgina erkaklar borib , dam olib gaplashib o‘tiriladigan joy sifatida qaraladi. Bu joyning restoran yoki kafedan farqi bu yerda asosiy taom ham osh va ko‘pincha tapchan yoki so‘rilarda yonbosh qilib, chordana qurib mazza qilib suhbatlashib vaqt o‘tkazishadi.

“Bir birodarimiz qiziga kelayotgan **sovchilarni** sababsiz qaytaraverar ekan.” (“Zurriyot” 39 – bet)

Sovchi so‘zi milliylikka xos va mos go‘zal so‘zlardan yana biridir. Yigit qizni yoqtirib qolsa , qiz roziligini to‘g‘ridan to‘g‘ri emas aynan sovchilar orqali oladi. Sovchi yigit tomonidan qizning uyiga uni kelin qilish maqsadida ota-onasining va kelinning roziligini olish uchun yuborilgan elchi. Sovchilikka asosan ona, amma va xolalar yuboriladi.

“Mo‘min kishi bir ichagi to‘lguncha yeydi, kofir **yetti** ichagi to‘lguncha” (“sabr tagi-oltin” 335-bet)

Ushbu hadisda keltirilgan yetti soni orqali nafsni tiyolmaslik,ochko‘zlik kabi illatlar ochib berilgan . Yetti soni sehrli, mo‘jizaviy son sifatida qaraladi.

Yetti o‘lchab ,bir kes , yetti sayyora, yetti go‘zal , yetti aka- uka , dunyoning yetti mo‘jizasi, yetti gnom bularning hammasi aynan yetti soni orqali berilishiga sabab numerologiyada yetti soni yer sayyorasining raqami sifatida qaraladi. Bundan tashqari , ko‘pchilik odamlarda yetti sonini omad keltiradigan raqam sifatida qarash mavjud. Maqol , matal, so‘z birikmalari, frazemalar va hatto hadislarda ham yetti sonining keltirishi yuqoridagi fikrlarimizning aynan isbotidir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Tohir Malik asarlari misoli bir kata dengiz va biz hozir shundan bir tomhisini tahlil qildik. Lingvokulturologik birliklar asarlar tilida va og‘zaki nutqda nihoyatda ko‘p. Ularni tahlil qilganimiz sari tilimizning go‘zalligi va boyligiga yana bir karra ishonchimiz ortadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1 Sh.Usmonova. Lingvokulturologiya. darslik Toshkent. 2019.
2.Tohir Malik . Kelinlar daftariga.Toshkent.2016
3. Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov. «Hikmatnoma. O‘zbek xalq maqollarining izohli lug‘ati”, 1990.- S.442.
4.Jo‘rayeva B. Maqollarning lisoniy mavqei va ma’noviy-uslubiy qo‘llanishi. Filol. fan. nomz. diss. ...avtoref. –Samarqand. 2002
5.Maslova V.A. Lingvokulturologiya: Ucheb. posobie. –M.:Akademiya, 2001. –208 s.

AXBOROT TERMINLARINING YASALISH MASALALARI XUSUSIDA

REGARDING THE CREATION OF INFORMATION TERMS

Qo‘ldasheva Nazokat,
Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish
va malaka oshirish markazi
Navoiy viloyati hududiy bo‘linmasi o‘qituvchisi,
Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya axborot terminlari va ularni lug‘atda ifodalanishi, termin turlari haqida ma’lumot, termin-birikmalar, ikki-uch tarkibli termin-birikmalar

Kalit so‘zlar: axborot, termin, tarmoq, boshqarish, birikmali termin, global ishlash

Annotation information terms and their expression in the dictionary, information about term types, term-combinations, two-three component term-combinations

Key words: information, term, network, management, compound term, global performance

Hozirgi kunda o‘zbek tilshunosligida terminologiya yo‘nalishida ishlash alohida o‘rin tutadi. Bugungi kunda jadal rivojlanish fan va texnika, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, ilmiy-texnikaviy axborotlar hajmining ortib borishi natijasida axborot terminlari leksikasining tilshunoslikda kirib kelishi bilan izohlanadi. Bu jarayon axborot terminlarini ilmiy jihatdan o‘rganish zarurligini yuzaga keltiradi.

Yurtimizda axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha yigirmadan ortiq qaror hamda farmonlar e’lon qilindi. Axborot-kommunikatsiya vositalarining globallashuvi vujudga keldi. Axborot-kommunikatsiya vositalarining globallashuvi natijasida elektron xizmatlar sonining oshib borishi, yangi axborot dasturlarining yaratilishi va ularni hayotimizda joriy qilinishi lug‘at boyligimizda yangi-yangi terminlarni keltirib chiqardi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Raqamli iqtisodiyotga o‘tmasak, orqada qolib ketyapmiz. Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasini ishlab chiqishimiz kerak. Shu asosda «Raqamli O‘zbekiston – 2030» dasturini hayotga tadbiq etishimiz zarur”- deya O‘zbekiston aholisining Jahon tarmog‘iga kirish imkoniyatini ta’kidlagan edi.

Bugungi kunda 500 dan ortiq yirik sohalar va ularning o‘nlab yirik bo‘limlari mavjudki, har biri o‘ziga xos tizimga ega. Mamlakatimizda ham turli sohalar shiddat bilan rivojlanib borayotgani, buning natijasida terminologik tizimning ham boyib borayotgani sir emas. Tilshunoslikning terminologiya sohasi ham amaliy ham nazariy o‘rganishni talab qilmoqdaki, quyidagi mavzu guruhlarga oid terminologik tizimlarni keltirishimiz mumkin.

T/r	**Terminologiya turlari**	
1	Ijtimoiy-siyosiy terminlar	davlat, jamiyat
2	Harbiy terminlar	tank, askar
3	Savdo-sotiq, moliyaviy tushunchalar bilan bog‘liq terminlar	narx, hisobot
4	Soliq va bojxona terminlari	shartnoma, tashqi savdo
5	Zoonim terminlar	o‘tkir tish, yo‘lbars
6	Astronomiyaga oid terminlar	Yer sayyorasi, Venera sayyorasi
7	Tibbiy terminlar	dori-darmon, xirurg
8	Ma’dan nomlarini anglatuvchi terminlar	kumush, broncha
9	Diniy tushunchalarni ifodalovchi terminlar	zakot, namoz
10	Ekologik terminlar	suv, daraxt
11	Axborot texnologiyalari termini	fayl, kompyuter
12	Turistik terminlar	mehmonxona, gid xizmati
13	Qishloq xo‘jaligiga oid terminlar	o‘simlik, paxta
14	Ish yuritishga oid terminlar	bayonnoma, ariza
15	Adabiyotshunoslikka oid terminlar	adabiy tur, misra
16	Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati	leksikologiya, sintaksis
17	Kimyo texnologiyalariga oid terminlar	cho‘kma, karbamid
18	Pedagogikaga sohasiga oid terminlar	Adabiy o‘yinlar, dars tahlili
19	San’at va madaniyatga oid terminlar	tanbur, doira
20	Tarix faniga oid terminlar	oqsoqol, omoch
21	Fizika faniga oid terminlar	molekulyar, atom nazariyasi
22	Matematika va geometriya faniga oid terminlar	teorema, burchak
23	Falsafa faniga oid terminlar	olam va odam munosabatlari

24	Geografiya faniga oid terminlar	bo‘g‘oz, borliq
25	Transport terminlari	avtomashina shinasi
26	Sport va sport o‘yinlariga oid terminlar	sakrash, yugurish
27	Fan-texnikaga oid terminlar	changyutgich, muzlatgich
28	Huquq sohasiga oid terminlar	qonunchilik, saylov

O‘zbek terminologiyasida fan va texnikaning turli sohalarida qo‘shma terminlar ikki tushunchani ifodalash uchun xizmat qilmoqda. O‘zbek tili lug‘at fondida faol qo‘llanib kelayotgan tub hamda qo‘shma so‘zlar axborot termonologiyasida ham faol o‘ringa egadir. Internet va axborot ma’lumotlari rivojlangan Uchinchi Renessans davrda o‘zbek tili lug‘at tarkibi axborot terminlari kabi yangi terminlar hisobiga kengaydi.

Tarkib (konponent)lari muayyan bir leksik qatlamga tegishli so‘zlardan tashkil topgan qo‘shma terminlar o‘z navbatida ikki guruhga taqsimlanadi: 1) o‘zbek tilida qadimdan qo‘llanishda bo‘lgan asl o‘zbekcha, arabcha va fors-tojikcha leksemalarning birikishidan hosil bo‘lgan qo‘shma terminlar; 2) tarkiblari ruscha baynalminal termin va termin-elementdan tashkil topgan, ya’ni o‘zlashtirilgan qo‘shma terminlar.[127]

Birinchi tur axborot terminlari struktur jihatdan quyidagi ko‘rinishlarga ega:

- ✓ **ot+ot-fotohujjat.** Fotohujjat-fotografiya usulida tayyorlangan tasviriy hujjat.
- ✓ **sifat+ot-elektron kitob.** Elektron kitob-raqamli ko‘rinishdagi stol, cho‘ntak kompyuterlaridagi, noutbuklardagi, shuningdek, bu maqsad uchun maxsus mo‘ljallangan kompyuterlardagi maxsus dasturiy ta’minot yordamida o‘qish uchun mo‘ljallangan kitob.
- ✓ **sifat+ot-barqarorlik.** Barqarorlik-muvaffaqiyatli bajarilishi to‘g‘risida foydalanuvchi xabardor bo‘lgan tranzaksiya tizimi ishlamay qolganda ham yo‘qotilmasligini kafolatlash imkonini beradigan ma’lumotlar bazasining xususiyati. Odatda, barcha tranzaksiyalar maxsus jurnalga qayd qilinadi, bu tizimning ishlamay qolishdan oldingi holatini tiklash va tranzaksiyaning bajarilishini ta’minlash imkonini beradi.
- ✓ **son+ot-ikkilik**. Ikkilik-sanoq tizimida taqdim etilgan ma’lumotlar turi.
- ✓ **fe’l+ot-bilim.** Bilim-tizimlashtirilgan va predmetlar, jarayonlar, hodisalar to‘g‘risida aniq tasavvur beradigan obyektiv va aniq faktlar, usullar.
- ✓ **fe’l+harakat nomi-boshqarish.** Boshqarish-obyektga maqsadga yo‘naltirlgan ta’sir etish jarayoni. Berilgan talablarga muvofiq, uning ishlashini tashkil qilish uchun amalga oshiriladi.
- ✓ **sifat-fe’l-global izlash.** Global izlash-butun jujjat, ma’lumotlar bazasi yoki disk bo‘yicha izlash.
- ✓ **fe’l+gich qo‘shimchalari orqali (-g‘ich, -qich, -kich)-hisoblagich.** Hisoblagich-biror narsaning, masalan, foydalanilgan elektr energiyasi, gaz yoki suvning miqdorini o‘lchaydigan va qo‘shimcha ravishda kattaligini, darjasini yoki jadalligini qayd etadigan qurilma.
- ✓ **fe’l+ot+sifat+ot-ishonchlilik.** Ishonchlilik-tizim, quzilma yoki dasturiy maxsulot berilgan sharoitlarda va belgilangan vaqt davomida undan talab qilinadigan funksiyalarni so‘zsiz bajara olish ehtimoli.

Hozirgi davrda o‘zbek terminologiyasining termin-birikmalar hisobiga boyib borishi yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Termin-birikmalar deyarli barcha terminologik sistemalarda mavjud bo‘lib, ular tarkib nuqtayi nazaridan tiplarga bo‘linadi:[128]

T/r	Axborot termin-birikmalar turlari	Axborot termin-birikma namunasi	Axborot termin-birikmalarning izohli lug‘atda ifodalanishi

[127] H.Dadaboyev O‘zbek terminologiyasi. Yoshlar nashriyot uyi Toshkent-2019.85-bet
[128] H.Dadaboyev O‘zbek terminologiyasi. Yoshlar nashriyot uyi Toshkent-2019.87-88-betlar

1.	Ikki tarkibli termin-birikmalar	bitta qo‘ng‘iroq	firibgarlik usuli, mobil aloqa qurilmasi faqat bir marta jiringlaydi, agar uning egasi aniqlangan telefon raqamiga qayta qo‘ng‘iroq qilsa, firibgar ma’lum vaqt o‘tgandan so‘ng unga katta miqdordagi summaga hison yuboradi
2.	Uch tarkibli termin-birikmalar	bosmaga chiqmaydigan belgilar	tasvirga ega bo‘lmagan va matnni boshqarishda ishlatiladigan belgilar
3.	To‘rt tarkibli termin-birikmalar	foydalana olinishi cheklangan axborot	Davlat sirlari va konfidensial axborotdan iborat ma’lumotlarga ega bo‘lgan hujjatlashtirlgan axborot, ulardan foydalana olish qonun hujjatlariga muvofiq chegaralanadi
4.	Besh va undan ortiq tarkibli termin-birikmalar	axborotni muhofaza qilish bo‘yicha tadbir axborotni muhofaza qilish samaradorligini nazorat qilish biznes hamkor uchun mo‘ljallangan elektron biznes	axborotni muhofaza qilish usullari va vositalarini ishlab chiqarish yoki amaliy qo‘llashga yo‘naltirilgan harakatlar majmui axborotni muhofaza qilish bo‘yicha tadbirlar samadorligining belgilangan talablarga yoki muhofaza qilish samaradorligi me’yorlariga muvofiqligini tekshirish axborot makonidagi iqtisodiy faoliyatning qo‘shimcha qiymat zanjirini shakllantirishda qatnashadigan tashkilotlar bilan uzoq muddatli va samarali iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan soha

O‘zbek tili axborot terminlari o‘zgarishlar jihatidan boshqa terminologik tizimlarning markazida joylashgan bo‘lib, ular texnika, mashinasozlik, texnologiya, televideniya-radio, informatika kabi sohalarga oid terminlarni o‘zida mijassamlashtirgan. Axborot texnologiyalariga oid terminlarning nutqimizda qo‘llashimiz hamda iste’molda keng foydalanishimiz o‘quvchining shu fanga doir eng zaruriy va umumiy tushunchalar bilan tanishishiga, ularning bilim saviyasini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axborot texnologiyalari atamalarining izohli lug‘ati.-T.: “Kafolat print company” nashriyoti 2023.
2. A.Madvaliyev O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari.-T.:Davlat ilmiy nashriyoti 2017.
3. H.Dadaboyev O‘zbek terminologiyasi. Yoshlar nashriyot uyi Toshkent-2019.
4. Lutfillayev M. Axborot texnologiyalari fanidan o‘quv-uslubiy majmua. Samarqand-2019.

5.M.Hamrayev Ona tili-qo‘llanma-”Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati,T.:2012.

“TARBIYA” LEKSIK-SEMANTIK MAYDONI TASNIFI

Karimova Latofat
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada maydon nazariyasi, tarbiya leksik-semantik maydoni, tarbiya konseptining turli lug‘atlardagi izohi, makro va mikromaydonlarga bo‘linishi, mavzu guruhlari haqida so‘z boradi.

Аннотация. В данной статье говорится о теории поля, лексико-семантической сфере образования, трактовке понятия образование в разных словарях, разделении на макро- и микрополя, предметные группы.

Annotation. This article talks about field theory, lexical-semantic field of education, interpretation of the concept of education in different dictionaries, division into macro and micro fields, subject groups

O‘zbek tiliga maydon nazariyasining kirib kelishi til birliklariga nisbatan sistem-struktur metodlarning qo‘llana boshlashi bilan bog‘liq. Bu borada amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari ichida A.Nurmonov, I.Qo‘chqo‘rtoyev, E.Begmatov, T.Mirzaqulov, O.Bozorov, R.Safarova, B.Qilichev, M.Narziyeva, H.Hojiyeva kabi tadqiqotchilarning ilmiy kuzatishlari va olingan xulosalar o‘zbek tili leksikasini maydon nazariyasi asosida o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda ham tilning leksik sistemasini mazmuniy maydonlar asosida o‘rganishga katta e’tibor qaratib kelinmoqda. Tadqiqotimiz obyekti sanalgan “tarbiya” leksik-semantik maydoni atrofida birlashadigan so‘zlarni to‘plash va har tomonlama chuqur o‘rganish faniniz uchun qimmatli ma’lumotlarni berishi shubhasiz.

Dunyodagi barcha tillarda mavhum ma’noga ega bo‘lgan juda ko‘plab so‘zlar mavjud. Ular real borliqdagi narsa-hodisalarga emas, balki insonning his-tuyg‘ulariga, ruhiy olamiga tegishli ekanliklari bilan xarakterlanadi. Bu kabi so‘zlarning ma’nosi insonlar o‘rtasidagi muloqot jarayonida oydinlashadi [Yakushin B.V. 1985б s.4]. Mavhum ma’noli *tarbiya* leksemasi ham semantik ko‘lami kengligi bilan ajralib turadi.

Tarbiya tushunchasi murakkab taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan bo‘lib, uning mazmun-mundarijasi tobora kengayib bormoqda. Shu bilan bir qatorda, tarbiyaga turlicha qarashlar mavjudki, shunga ko‘ra u har xil tushunilgan va tushuntirilgan, lug‘at va tarbiyaga oid adabiyotlarda turlicha izohlangan. Xususan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *tarbiya* leksemasiga quyidagicha ta’rif berilgan:

№	Ta’rif	Misollar
1	Ta’lim, axloq-odob va sh.k. ni o‘rgatib, singdirib, insonni voyaga yetkazish, ulg‘aytirish, o‘stirish	*Internat tarbiyasida o‘sgan bola.* **A***bdurahmon.. otasi o‘lib, onasi va ota tomonlari tarbiyasida qoldi.* **A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.** *Qiz o‘n olti yoshgacha bu oilada, muzika muallimi bo‘lgan kambag‘al amakining tarbiyasida o‘sdi.* **Oybek, Tanlangan asarlar.**
2	Insonda ish-hunar, odob-axloq va sh.k.ni shakllantirish, rivojlantirishga, uning jamiyatda yashashi uchun kerak bo‘lgan xislatlarga ega bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan ish-amallar majmuyi va shu yo‘l bilan singdirilgan odob-axloq, xislat, fazilat kabilarning o‘zi.	*Siyosiy tarbiya.G‘oyaviy tarbiya. Maktab tarbiyasi. Tarbiyasi buzuq odam. Tarbiyasi yaxshi bola. Yosh avlod tarbiyasida yuqori samaraga erishish uchun bir qator shart-sharoitlar barqaror bo‘lishi lozim.* **Gazetadan.** *Bolalar kitobi tarbiya uchun yoziladi, tarbiya esa buyuk ish.* **«Saodat».**

3	Ma’lum tartib, usul asosida qarab, ishlov berib o‘stirmoq; parvarishlamoq (o‘simlik va hayvonlar haqida).	G‘o‘za tarbiyasi og‘ir ish. (O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik, 4-jild, B. 678)

Ko‘rinadiki, izohli lug‘at *tarbiya* leksemasini uch ma’noli so‘z sifatida belgilagan. Shaxsga qaratilgan birinchi va ikkinchi ma’nolar izohlarida katta farqni ko‘rmaymiz. Birinchi izoh ‘ta’lim’, ‘o‘rgatish’, ‘voyaga yetkazish’, ‘ulg‘aytirish’, ‘o‘stirish’ semalaridan, ikkinchisi esa ‘ish-hunar’, ‘shakllantirish’, ‘rivojlantirish’, ‘jamiyatda yashash’, ‘xislat, fazilat’, ‘majmua’ semalaridan tashkil topgan. Har ikki semema uchun ‘inson’, ‘odob-axloq’, ‘singdirish’ semalari umumiy. Bundan tashqari, tarbiya leksemasining ikkinchi ma’nosi izohidagi qisqartma (sh.k.) va “ish-amallar majmuyi” kabi umumiy ma’noli so‘zlarning qo‘llanishi mazkur ma’noni mavhumlashtirib qo‘ygan.

“O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da “tarbiya” so‘ziga ancha aniq izoh berilgan deb hisoblash mumkin: Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga karatilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora-tadbirlar yig‘indisi (EL, 2-jild, 114).

Pedagogik adabiyotlarda ham tarbiya atamasi keng va tor ma’nolarda ishlatiladi. Keng ma’noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy hayotida faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan barcha ta’sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig‘indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g‘oyalari, adabiyot, san’at, kino, radio, televideniye va boshqalarni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma’nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta’lim va ma’lumot olish ham kiradi. Tor ma’noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma’naviy-axloqiy qiyofasi, estetik didi o‘stirilishiga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. (EL, 2-jild, 114). Demak, tarbiyaga umumiy planda qaralar ekan, unga quyidagicha ta’rif berish o‘rinli: tarbiya – shaxsni ijtimoiy hayotga, ishlab chiqarish va madaniy faoliyatga tayyorlash maqsadida uning ma’naviy hamda jismoniy taraqqiyotiga muntazam va maqsadga muvofiq ravishda ta’sir ko‘rsatish. O‘zbek ma’rifatparvari Abdulla Avloniy ham “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida tarbiyaga quyidagicha tavsif beradi: “Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o‘sdurmakdur” [A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. **www.ziyouz.com** kutubxonasi, b.3]. U tarbiyaga pedagogika faniga ma’nodosh sifatida qaraydi va axloq ilmining asosi deb tavsif beradi.

Tarbiya tushunchasi keng bo‘lganligidan uning lisoniy ifodasi ham murakkab semantik xususiyatlarni o‘zida namoyon etadi. Shunga ko‘ra, ma’no tuzilishida *tarbiya* semasi mavjud birliklarni yanada aniqlashtirish, mazkur tizimga oid birliklarni mukammal darajada to‘plash uchun tarbiya mazmuniy maydoniga mansub birliklar tasnifini amalga oshirish, ularning mavzu guruhlarini aniqlash lozim.

Tarbiya mazmuniy maydoni atrofida birlashadigan so‘zlarni quyidagi mikromaydonlarga ajratish mumkin: fuqarolik tarbiyasi mikromaydoni; mafkuraviy tarbiya mikromaydoni; aqliy tarbiya mikromaydoni; mehnat tarbiyasi mikromaydoni; jismoniy tarbiya mikromaydoni; estetik tarbiya mikromaydoni; ekologik tarbiya mikromaydoni; axloqiy tarbiya mikromaydoni.

Har bir mikromaydonga xos leksemalar alohida xususiyatlarga ega bo‘lib, mazkur guruhlar bir qancha so‘z va so‘z birikmalarni o‘z ichiga oladi:

a) fuqarolik tarbiyasi: *vatanparvarlik, fidoiylik, qadriyat, uddaburonlik, mas’uliyat;*

b) mafkuraviy tarbiya: *yaratuvchanlik, tafakkur qilish, o‘z-o‘zini anglash mehr-oqibat, milliy an’analar va qadriyatlarga sodiqlik;*

c) aqliy tarbiya: *donolik, o‘z-o‘zini nazorat qilish, xotirani mustahkamlash, o‘tkir zehnli bo‘lish;*

d) mehnat tarbiyasi: *mehnatsevarlik, tartib, saranjomlik, ota-onaga yordam berish, ozodalikka rioya qilish*;

e) jismoniy tarbiya: *badantarbiya, yugurish, mashq, sport bilan shug‘ullanish, armiya safida xizmat qilish;*

f) nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya): *go‘zallik, ijodkorlik, iqtidor, ishtiyoq, badiiy asarlarni tahlil qilish, kiyinish madaniyati*;

g) ekologik tarbiya: *tejamkorlik, ona tabiatni asrash, hayvonlarga g‘amxo‘rlik, suvni tejash, atrof-muhitni ifloslantirmaslik*;

h) axloqiy tarbiya: *hayo, farosat, vijdonlilik, rahmdillik, do‘stlik, halollik, sabr-matonat, to‘g‘riso‘zlik, sadoqat, minnatdorchilik, oliyjanoblik, saxiylik, nomusli bo‘lish.*

Tarbiya leksik-semantik maydoni birliklari tuzilishiga ko‘ra: a) so‘z ko‘rinishida: vatanparvarlik, fidoiylik, odob, mas’uliyat, uddaburonlik, go‘zallik, iqtidor, halollik, do‘stlik, nomus; b) birikma ko‘rinishida bo‘lishi mumkin: milliy an’analarga sodiqlik, xotirani mustahkamlash, boriga shukur qilish, ozodalikka rioya qilish, o‘z-o‘zini anglash, vaqt qadriga yetish.

Tarbiya dastavval xulq-atvor, axloqiy sifatlarni rivojlantirishga nisbatan qo‘llangan. Ko‘rinadiki, tarbiya deganda faqatgina axloqiy tarbiya nazarda tutilmasdan, mazkur maydonning bir uzvi maqomida ekan. Biroq, shuni aytish kerakki, tarbiyaning bu komponenti mazmuniy maydon markazida joylashadi. Masalan, A.Avloniy sanab o‘tgan yaxshi va yomon xulqlar maydon markazidan o‘rin oladi: diyonat, nazorat, g‘ayrat, riozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, hilm, intizom, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazariy ibrat, iffat, hayo, idrok, iqtisod, viqor, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, munislik, sadoqat, muhabbat va avf. Yoki yomon xulqlar: g‘azab, shahvat, jaholat, safohat, hamoqat, adovat, g‘iybat, haqorat, hasad, nifoq, ta’ma va h.

Ma’lumki, inson barkamolligi uning tashqi ko‘rinishiga qarab emas, balki uning ma’naviy dunyosiga qarab belgilanadi. Jamiyat ravnaqi esa ana shu jamiyatda yashaydigan insonlar ma’naviy kamolotiga bog‘liqdir. Zamon rivojlanib borar ekan, kundan kunga ehtiyojlar paydo bo‘lib boradi, shuning uchun ham jamiyatimizda tarbiyali insonlarga ehtiyoj katta. Tarbiya, bu insonlarni kamolotga yetaklaydi, kishilarning yurish-turishi, odob-axloqi uning tarbiyasi orqali namoyon bo‘ladi.Tarbiya tarixiy jarayon ekan, inson ona qornidaligidayoq uning tarbiyasi shakllanadi, u tug‘iladi, voyaga yetadi, yetuk shaxs bo‘lib shakllanadi. Qarabsizki, uning tarbiyasi o‘zi bilan birga rivojlanib, shakllanib boraveradi. Xulosa qilib aytganda, tarbiya leksik-semantik maydoniga oid birliklarni to‘plash tarbiyaviy mazmundagi matnlar tuzish, terminologik lug‘atlarni yaratishda katta ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. **www.ziyouz.com** kutubxonasi
2. Sobirov A. O‘zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. T.: Ma’naviyat, 2004.
3. Якушин Б.В. Гипотезы и происхождения языка. М.: Наука, 1985
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-jild. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
5. Ensiklopedik lug‘at, ikki jildlik. –T.: “O‘zbek ensiklopediyasi” bosh redaksiyasi, – T.: 1990.

MEDIALINGVISTIKAGA OID AYRIM MULOHAZALAR

Navoiy davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti
1-kurs magistranti
Kamolova Aida Alisher qizi
aidakamolova53@gmail.com
+99890 005-50-96

Annotatsiya: Maqolada media-diskurs va ijtimoiy tarmoqning o‘zaro aloqalari tahlil qilinadi. Media-diskursning ijtimoiy tarmoq bilan bog‘liq jihatlari, axborot almashishning o‘zgarishi, reklama, media-matn va ularda ifodalangan badiiy tasvir vositalarining insoniyat ongiga ta’siri, reklama matnlarida tildan foydalanish imkoniyatlari va ularning lingvistik xususiyatlari to‘g‘risida ayrim fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: media-diskurs, kommunikativ vaziyat, noverbal vositalar, reklama matnlari, badiiy tasvir vositalari, metafora, interpretatsiya

Hozirgi kunda faol qo‘llanilayotgan diskurs tushunchasi zamonaviy tilshunoslikning asosiy va doimiy e’tiborda bo‘lgan sohalaridan biri hisoblanadi. “Diskurs” atamasi antroposentrik tilshunoslikda diqqat qaratilgan til egasi – shaxs faoliyati bilan aloqador barcha jarayonlarga asta-sekin kirib bormoqda. Kommunikativ vaziyatlarda lingvistik vositalardan foydalangan holda yaratilgan shaxs nutqini o‘rganishni obyekt qilib olgan holda, shu yo‘nalishda diskursiv tahlil, nutqiy tahlil kabi terminlar ilmiy tadqiqotlarda faol foydalaniladigan unsur sifatida qaralmoqda. Diskurs – nutqning amaliy vazifalarini o‘zida mujassamlashtirgan, so‘zlovchining ma’lum maqsadini amalga oshirishda tilning bor imkoniyatlaridan foydalaniladigan, emotsional holatlarni ifoda etadigan, verbal va noverbal vositalar, tana tili va boshqalar asosida yuzaga chiquvchi muloqot jarayoni hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar tezlashgan bir davrda yashar ekanmiz, zamon bilan hamnafas holatda kommunikativ vaziyatlar o‘chog‘iga aylanib ulgurgan media sohasi e’tiborimizni o‘ziga tortdi. Hozirgi axborotlashgan jamiyatda barcha media-resurslarini tahlil qilish zarurati kelib chiqmoqda. Matnni tahlil qilish nuqtai nazaridan ham lingvistik tahlilni, ham matnlararo janrlar va nutqlar tahlilini ham o‘z ichiga olishi kerak. Matnlarni lingvistik tahlil qilish fonetik, leksik, grammatik, sxematik va makrostruktura tahlilni o‘z ichiga oladi [Jose Maria Bernardo Paniagua, 2007- S.7.].

Avvalo, media (lotincha „vositachi“) axborotni uzatish usullari, aloqa vositalari va jamlangan axborotlarni aks ettiruvchi makonni o‘z ichiga oladi. Umuman olganda, media har qanday axborot shaklini ijtimoiy hayotga tatbiq etishda ko‘mak beradigan kommunikativ vositalar tizimi. Media-diskurs – ijtimoiy hayotda aloqa-aralashuv munosabatlarining tilshunoslik bilan kesishgan nuqtasida paydo bo‘lgan yangi soha bo‘lib, tilning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini tadqiq etadi. Axborot olamida internet, internet-televideniye, internet-radio, elektron pochta, onlayn-video kabi ko‘plab yangi axborot tarqatish texnologiyalari tez sur’atlar bilan rivojlanib, ularning auditoriyasi va ta’sir doirasi tobora kengayib borayotganligiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Bunday axborot vositalarining asosiy foydalanuvchi qismi yoshlar ekanligini hisobga olib, bu masala katta ahamiyatga ega ekanligi ko‘rinib turibdi. Ma’lumki, aholi o‘rtasida dunyoda, yon atrofimizda bo‘layotgan voqea-hodisalar, yangiliklar haqidagi fikrlarning shakllanishida ommaviy axborot vositalari katta rol o‘ynaydi. Shuning uchun ommaviy axborot muammolariga, ommaviy nutq ta’sir qilish muammolariga yo‘naltirish lozim. Bunda tinglovchilarga ta’sir etish mexanizmlari o‘rganiladi, lingvistik va paralingvistik ta’sir ko‘rsatadigan vositalar aniqlanib, ayrim nutq turlari misollarida tahlil qilinadi: siyosiy, marosim, diniy, reklama, ommaviy axborot vositalari nutqi va boshqalar.

Adabiyotlarda adresat xulq-atvoriga ta’sir o‘tkazish, tartibga solishga qaratilgan tilning vazifasi turlicha deyiladi: konotativ, denonativ, estetik, kognitiv. Ushbu funksiyaning mohiyati shundaki, u adresatga ta’sir o‘tkazish, ularning irodasini yuklash, adresat niyatlarini o‘zgartirish va hokazolarni ifoda etadi.

Media vositalarining nutqi eng globallashgan va dolzarb nutq sanaladi, shuning uchun ham media vositalarida ifodalanayotgan nutq orqali tilning ijtimoiy funksiyasini, jamiyat uchun ahamiyatini va g‘oyaviy mohiyatini o‘rganishimiz mumkin. Lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlarni o‘rganish orqali jamoat nutqining har xil turlarining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib

berish, zamonaviy ommaviy nutqning kommunikativ o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash mumkin. T.G. Dobrosklonskaya lisoniy va ekstralingvistik omillarni hisobga olgan holda ommaviy axborot matnlarining barcha komponent va miqyoslari sinchiklab tahlil qilinishi haqida gapirib, «Mediamatnlarni yaratish va tarqatish usullari ularning lisoniy hajm xususiyatlari, funksional-janrli tasniflash, fonologik, sintagmatik va stilistik xusu-siyatlar, talqin etish xossalari, madaniy-xususiy belgilar, ideologik modellilik, pragmalisoniy qimmatiga bog‘lik», deydi [T.G. Dobrosklonskaya, 2008].

Media-diskurs bilan bog‘liq nutqiy vaziyatlarni tahlil qilar ekanmiz, nutqni ham ayni paytda turlarga bo‘lib o‘rganish talab etiladi. Nutqning chiqishini quyidagi ko‘rinishlarda ifodalagan bo‘lar edik:

1. Xabar beruvchi matn(yoki nutq)- ma’lum bir voqea-hodisa,jarayon haqida ma’lumot beruvchi qisqa yoki yirik hajmli matn. Xabar beruvchi matnlarni ishonchli xabar va yolg‘on xabar(fake xabar) kabi turlarga bo‘lishimiz mumkin.
2. Tavsifiy matn – so‘zlovchi tomonidan bayon etilgan voqea-hodisa, narsa yoki shaxsning tasvirini tavsiflovchi matn ko‘rinishi.
3. Ijodiy matn – shaxs tomonidan ma’lum bir voqea-hodisalarga, narsa va shaxslarga oid fikr-mulohaza bildirish, badiiy-tasviriy vositalar orqali yaratilgan ijodiy nutq shakli.
4. Bahs-munozara matni (yoki nutq) – shaxs yoki jamoa tomonidan qandaydir nizoli, yechilmagan savolga aniq bir yechim topish uchun yaratiladigan, fikrlar tortishuvidan kelib chiqadigan matn.
5. Raddiya – biror xabar, ma’lumotni rad etuvchi, uning noto‘g‘ri yoki asossizligini isbotlovchi matn turi.

Matnni tahlil qilar ekanmiz, media sohasida publitsistik uslub namunalaridan foydalanilsa-da, qaysidir ma’noda unda badiiylik elementlari ham o‘z aksini topadi. Asosan, sarlavhada keltirilgan ma’lumotlar adresatning oldingi bilimlarini faollashtiradi va shu bilan uning qiziqishini uyg‘otadi. Quyida siyosiy, xabar, diniy, targ‘ibot, reklama matnlari, ommaviy axborot vositalari orqali uzatilgan matn sarlavhalarini misol tariqasida keltiramiz:

Xabar matn sarlavhalaridan namunalar:

“Onalar farzandlari bilan xayrlashishda davom etmoqdalar…”

“ Fuqaro daraxt kesgani uchun 45 mln so‘m tovon puli to‘laydi”

Farg‘onada fuqaro daraxt kesgani uchun 45 mln so‘m tovon puli to‘laydi. Daraxt kesilishi natijasida tabiatga 36 mln so‘m zarar yetkazilganligi ma’lum bo‘ldi. Shuningdek, huquqbuzarga 100 tup daraxt ko‘chatini kompensatsiya tarzida ekish hamda ularni kamida 3-yil parvarish qilish majburiyati yuklatildi.

*“G‘arbda yashab, bolam dini g‘ariblashdi”.*G‘arbga kochgan oilalar farzandlarining katta qismi o‘z dinlarini tark etishmoqda.

“Odamiylik hali tirik”

“Sportchi-yu otarchi – zamon qahramoni” (Zo‘r mushtlashganga – Tahoe, bozorda ovqat sotganga – tepki!)

“Dahshatli tendensiya: jurnalistlar och qolmoqda”

“Hamma yomon, men yaxshi!”

“Ko‘rganimizga emas, ko‘rsatishganiga ishonyapmiz”

“O‘zbek qiziga bokiralik ortiqcha yuk, qizlarimizga erkinlik” (gender tenglik bilan bog‘liq hayqiriqlar)

Reklama matnlari:

“Ta’mlar jangida ishtirok eting”

“Oqtepa lavash – mazali gaplar joyi”

Ommaviy auditoriyaga taqdim etilgan bunday matnlarning faqat sarlavhasini ko‘rib chiqdik. Bundan anglashiladiki, matnning eng katta yuk tushadigan, asosiy ma’lumot tashuvchi qismi bu- sarlavha. Adresant uzatilgan sarlavha orqali matn nima haqida ekanligi haqida xulosa chiqarishi mumkin. Ayni paytda media vositalar (radioeshittirish, teleko‘rsatuvlar, musiqiy kompozitsiyalar, qisqa metrajli film, animatsiya, anons, reklama) ning eng keng tarqalgan turi, shubhasiz, reklamadir. Televizorda qayta-qayta namoyish etiladigan, ko‘cha-ko‘yda peshtaxtalarda, bannerlarda, jamoat transportlarida, ovqatlanish shahobchalarida, yo‘l ustida joylashgan tablolarda, qayerga qaramaylik, go‘yo har tomondan reklama bizni qurshab olgandek ko‘rinadi.

Reklama tilida badiiy ifoda vositalari (metafora, sifatlash, alliteratsiya, taqqoslash) dan unumli foydalaniladi. Misol uchun:

1. Mo‘jizakor damlar, hayot uchquni, o‘z ritmingni yo‘q.

2. Yorqin hissiyotlar, yorqin ta’m, yorqin ichimliklar.

3. Har tomchida quyosh.

4. Noyob yumshoq ta’m

5. Iliq qalblar uchun sovutuvchi texnika.

Aslida reklama so‘zi izohli lug‘atda quyidagi ma’nolarda keladi: 1.Muayyan tovar yoki ko‘rsatiladigan xizmat turlari haqida xaridorlarni xabardor qilish, ularga nisbatan talab, ehtiyojni yuzaga keltirish yoki kuchaytirish maqsadida ana shu tovar va xizmatlar to‘g‘risida berilgan ma’lumot. 2. Biron shaxs, tashkilot, narsani ommalashtirish maqsadida ular haqida ma’lumotlar tarqatish. 3. Shu maqsadda chiqarilgan e’lon, plakat.

Statistik ma’lumotlarga qaraganda, 2023-yilda O‘zbekistonda reklama bozoridan keladigan foydaning 50 foizdan ko‘proq ulushi media sohalar, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn kanallardan kelgan. Raqamli reklamaning bunday o‘sishining sabablari ko‘p, mahsulotlarning aksariyati asosan yosh auditoriyaga qaratilgan. Bundan tashqari, onlayn reklamaga o‘tish uning boshqa reklama turlariga nisbatan ancha arzon va samaraliroq ekanligi bilan bog‘liq. Namoyish etilayotgan reklamaning inson ongiga ta’sir qilishini hisobga olib, asosiy e’tibor reklama qilinayotgan mahsulotning raqobatbardoshligini ta’minlash, xaridorgirligini oshirish va ba’zi hollarda sifatsiz mahsulotlarni "Sinovdan o‘tgan", "Tavsiya qilinadi" kabi tashviqotlar bilan kishi ongini manipulyatsiya qilish darajasigacha bormoqda. Iste’molchilar reklama qilingan mahsulotga berilgan bahoni ko‘rib, mana shu jarayonda diskursiv holat yuzaga kelmoqda. Reklama vositasida iste’molchilar soni ortadi, reklama beruvchi bu muloqot shakli orqali ko‘zlagan maqsadiga erishish imkoniga ega bo‘ladi. Avval reklamadan maqsad inson ehtiyojlari uchun kerakli mahsulotlarni namoyish etish bo‘lgan bo‘lsa, ayni paytda brend nomini tanitish, keng iste’molchilar auditoriyasini saqlab qolish va raqobatbardoshlikni ta’minlash maqsad qilib olingan. Reklama ishlab chiqaruvchiga foyda keltirgani holda, ba’zan reklama matnlarida tilning imkoniyatlaridan nojo‘ya foydalanish va buning natijasida noaniq tushunchalarning paydo bo‘lish holatlari kuzatilmoqda. Misol, *„Ta’mlar jangida ishtirok eting“, “Oqtepa lavash – mazali gaplar joyi”, „Artel - barakali texnika“, „Yangi Losk - hatto eng o‘jar dog‘larni ham olib tashlaydi“, „Andalus- o‘z qadriyatlariga ega kolbasa“, „Diqqatli va sezgir konditsioner“.*

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobida nutqiy so‘z birikmalari shakl, ma’no va grammatik jihatdan bir-biri bilan bog‘lanishi va tushuncha ifodalashi kerak deya aytib o‘tilgan [R.Sayfullayeva, 2009, - S.306.] So‘z birikmasiga qo‘yiladigan talablar:

a) birdan ortiq mustaqil so‘z; b) a’zolarning ma’noviy va grammatik jihatdan mosligi; d) tobelik; e) tushuncha ifodalash.
Yuqorida berilgan misollarda so‘zlar shakl va grammatik jihatdan bog‘langan, lekin ma’no jihatidan bog‘lanmagan. Mazali sifati, asosan, ovqat yoki mahsulot nomlari bilan kelganda to‘g‘riroq bo‘ladi. Izohli lug‘atda mazali so‘zining izohi quyidagicha: Ta’mi yaxshi, shirin; totli, lazzatli. Mazali sho‘rva/Mazali ovqat, ichkilik ilinjidami, restoranga kirgan odamning kayfiyati chog‘lashadi.

Tilda mazali taom yoki mazali muzqaymoq deya qo‘llash o‘rinli, ammo mazali gap tushunchasi nutqning jo‘yaliligiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Buning o‘rniga, do‘stona suhbatlar birikmasi qo‘llanganda to‘g‘riroq bo‘lardi. Barakali so‘zining izohli lug‘atdagi ma’nolari: 1. To‘kin-sochin, mo‘l-ko‘l. 2. Mavjud holatidan qat‘i nazar ko‘pchilikka yetadigan; foydali; tatimli. 3. Serunum, sermahsul, samarali. Barakali so‘zi barakali hosil, barakali qo‘l, barakali mehnat kabi shakllarda ham kelishi mumkin. Bizningcha, barakali so‘zining o‘rniga samarali, foydali so‘zlarini ishlatish to‘g‘ri bo‘ladi. Reklama matnlarida uchraydigan xatolar talaygina. Quyida ular bilan bog‘liq ba’zi misollar:





Xususan, reklama materiallarida qo‘llanilayotgan ranglar ham ma’lum bir ma’no ifodalash uchun xizmat qiladi. Insonlarning diqqatini tortish va mahsulotga bo‘lgan talabni oshirish maqsadida noverbal vositalar - ranglardan ham unumli foydalanishadi. Iste’molchilar reklamaning ko‘rarkan, rang orqali ular reaksiya qabul qiladi va assotsiatsiya jarayoni boshlanadi. Masalan, dunyodagi aksariyat oziq-ovqat kompaniyalari o‘z logotiplarida qizil rangdan foydalanishadi, chunki bu rang qon bosimini oshirib, qon oqimini tezlashtiradi, natijada ishtaha ochiladi. Yashil rang ishonch ramzi, shuningdek, tinchlantiruvchi rang bo‘lganligi tufayli, banklar, bank kartalari ayni shu rangda. Havorang kishiga erkinlik tuyg‘usini ifodalaydi. Tadqiqotlarga ko‘ra, devorlari havorang bo‘lgan maktabda bolalar o‘zlarini juda erkin his qilishadi. Shirinlik do‘konlari, atelyelarda pushti rangdan ko‘p foydalanishadi va ishchilarning pushti rangli kiyim kiyishlarining asosiy sababi mijozlar u yerda o‘zlarini qulay his qilishadi, bundan tashqari bu rang mijoz va xodimlar o‘rtasidagi samimiy muloqotni shakllantirishga xizmat qiladi. Kanzas universitetida o‘tkazilgan ko‘rgazmada devorlar texnologiya yordamida turli rangga o‘zgartirilgan. Oq fonda tashrif buyuruvchilar ko‘rgazma bo‘ylab sekin harakat qilishgan bo‘lsa, jigarrang fon harakatning tezlashishiga sabab bo‘lgan. Shuningdek, ovqatlanish shahobchalarida jigarrang interyer dizayndan foydalanilishining asosiy maqsadi iste’molchilar tezkorligini oshirish va iste’molchilar sig‘imini kengaytirish. bo‘ylab barcha taksilarning rangi sariq rangda. Nega? Chunki bu rang diqqatni jalb qilish xususiyatiga ega. Demak, muloqot jarayonida biz faqat verbal vositalar orqali axborotni anglamas ekanmiz, noverbal vositalar- ranglar, shakllar, tana harakatlari, imo-ishoralar ham bizga signal orqali muayyan axborotni yetkazib, ta’sir qiladi. Reklamalarda noverbal, nolisoniy xususiyatlar katta ta’sir kuchiga ega.





Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, shaxs ongida paydo bo‘layotgan interpretatsiya (axborotni saralash, unga ishlov berish jarayoni va u bilan bog‘liq omillarning butun kompleksi) har qanday kognitiv tushunchalar insonga dunyoni tushunishga yordam beradi, shaxs o‘zi uchun yangi tushunchalarni topib, narsa va voqea-hodisalarni anglab, ularni nomlaydi, muloqot jarayonida foydalanishi natijasida til rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. José maría bernardo paniagua Guillermo lópez garcía Pelegrí sancho cremades Enric serra alegre., Critical discourse analysis of media texts. 2008.
2.Dobrosklonskaya T.G.Medialingvistika: sistemniy podxod k izucheniyu yazika SMIMoskva 2008
2.Yo‘ldoshev Q., Yo‘ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. (O‘quv qo‘llanma) –T., Kamalak. 2016.
3.Xudoyberganova D. - "O‘zbek tilidagi matnlarning antropotsentrik talqini" dissertatsiya. - 240 bet.
4.Daminova O. - " Ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida diskurs holati" dissertatsiya. - 86 bet.
5.Yo‘ldoshev M. - Badiiy matnning lisoniy tahlili.
6. R.Sayfullayeva. - Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2009, S-306.

O‘TKIR HOSHIMOVNING “IKKI ESHIK ORASI” ASARIDA FONETIK SATHDA BAHO MUNOSABATLARINING IFODALANISHI

O‘zbek tili va adabiyoti mutaxasisligi
1-bosqich magistri Bahriddinova Yulduz.
Ilmiy rahbar: f.f.n., dotsent R.S.Nuritdinova

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimovning adabiy ijodi haqida umumiy ma’lumot berilib, “Ikki eshiq orasi” asaridagi fonetik sath tushunchasini baholashlar, lingvistik vositalar va tovushning badiiy ifodasi ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. O‘tkir Hoshimov, “Ikki eshik orasi” asari, fonetik, lingvistik.

O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asari o‘zbek adabiyotida fonetik yuzaning ifodasi, uning romandagi personaj va mavzularni baholashga ta’sirini o‘rganuvchi muhim adabiy asardir. O‘tkir Hoshimov adabiyot olamiga qo‘shgan hissasi bilan tanilgan taniqli o‘zbek yozuvchisi. Uning asarlari o‘ziga xos hikoya va o‘ylantiruvchi mavzulari bilan kitobxonlarni maftun etgan. O‘zbekistonda tug‘ilib o‘sgan Hoshimovning tarbiyasi uning madaniy unsurlarni umuminsoniy mavzular bilan uyg‘unlashtirgan adabiy uslubiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Faoliyati davomida Hoshimov ko‘plab romanlar, qissalar va she’rlar yozgan bo‘lib, ularning har biri o‘zining ta’sirchan hikoyalar va bir-biriga yaqin personajlar yaratish qobiliyatini namoyish etadi. Uning asarlarida ishq va o‘zlikdan tortib, ijtimoiy-siyosiy muammolargacha bo‘lgan keng ko‘lamli mavzular o‘rganilib, uni o‘zbek adabiyotida serqirra va ta’sirchan ovozga aylantiradi. O‘tkir Hoshimovning eng mashhur asarlaridan biri “Ikki eshik orasi” romanidir. Kichkina qishloqda bo‘lib o‘tgan hikoya uning aholisining hayotini kuzatib boradi va insoniy munosabatlarning murakkabligini o‘rganadi.[1]

“Ikki eshik orasi” sevgi, do‘stlik va orzular sari intilish mavzularini o‘rganadi. Roman o‘z qahramonlarining ichki kurashlarini chuqur o‘rganadi, ular qilgan tanlovlar va ular duch keladigan oqibatlarga urg‘u beradi. Hoshimov jonli tasvirlar va jozibali suhbatlar orqali kitobxonlar o‘zlari ichiga singib ketishi mumkin bo‘lgan dunyo yaratadi va ularni yakuniy sahifani varaqlagandan keyin ham hayotning nozik tomonlari haqida o‘ylashga majbur qiladi. O‘tkir Hoshimov o‘zining serqirra ijodi bilan o‘zbek adabiyotiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Uning asarlarida hazil, samimiylik va ijtimoiy sharhning o‘ziga xos aralashmasi mavjud bo‘lib, ular hayotning barcha qatlamlaridagi o‘quvchilar bilan rezonanslashadi. Hoshimovning jiddiy mavzularga zukkolik va joziba bilan murojaat qila olishi uni Hoshimov asarlarida ko‘pincha insoniy holatni chuqur o‘rganuvchi umuminsoniy mavzular atrofida bo‘ladi. U sevgi, o‘zlikni anglash, ijtimoiy tengsizlik, baxtga intilish kabi mavzularni mohirona yoritadi. Hoshimov o‘z qahramonlari orqali kundalik hayotning qiyinchiliklari va g‘alabalariga taalluqli hikoyalarni taqdim etadi. Uning hikoyalari realizm va syurrealizm uyg‘unligi bilan ajralib turadi, ko‘pincha uning hikoyalariga chuqurlik va intriga qo‘shish uchun sehrli realizm elementlarini o‘z ichiga oladi. Hoshimovning jonli tasvir va ta’sirchan tildan foydalanishi uning hikoyalarini jonlantirib, o‘quvchilarga qahramonlar va ularning kechinmalari bilan chuqur darajada bog‘lanish imkonini beradi.[1]

